

# Journal of New Century Innovations

VOLUME

**16**  
ISSUE-1



*Journal of new  
century innovations*

Exact and natural sciences

Pedagogical  
sciences

Social sciences  
and humanities

**AREAS**

Engineering and  
Medical Sciences

ISSN (p): 2181-3671  
ISSN (e): 2181-368X



Google  
Scholar



[newjournal.org](http://newjournal.org)



# **JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS**

**VOLUME - 16 | ISSUE - 1**

**NOVEMBER - 2022**



**ICI JOURNALS  
MASTER LIST**

**METHODS OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF PROBLEM  
SOLVING SKILLS IN ADOLESCENT PSYCHOLOGY**

*Jo'rayeva Nilufar Isomiddin qizi*

*Samarkand State Institute of Foreign Languages*

*3rd year student*

*Tel raqam: 906753583*

*jurayeva1202@mail.com*

**Key words:** adolescence, problems, inability, different situations, creativity, risk management, emotion, disagreements.

**Annotation:** Studying the problems observed in children in adolescence and the history of their origin and formation and development of how to solve problems.

Note that:

Based on the civil-legal contract, experienced psychologists working in general education schools and engaged in private practice are attracted to the social-psychological support centers for children, depending on the need;

The activity of children's socio-psychological support centers is coordinated by the Republican center for vocational guidance and psychological-pedagogical guidance of students under the Ministry of Public Education;

In the 2021/2022 academic year, the admission parameters for the educational areas in the field of psychology will be increased by 30% based on the state order.

The Ministry of Higher and Secondary Special Education, together with the Ministry of Health, improves the curricula and educational programs of higher education institutions that train personnel in the field of psychology, taking into account advanced foreign experience, help in adapting to the requirements of the providers.

The Ministry of Public Education should conduct training courses on child psychology in the training of pedagogic personnel and attract qualified, including foreign, experts to this process.

**SHAVKAT MIRZIYOYEV MIROMONOVICH**

**PRESIDENT OF UZBEKISTAN**

Adolescence is the period of life between childhood and adulthood, from ages 10 to 19. It is a unique stage of human development and a significant time for building the future. Cognitive, emotional, physical, cultural growth will be seen at that age.

At this age, various problems, strange habits and characters appear. They demand good foods, clothes, more money, valuable things and mainly freedom. They want to get all that they have not got. Violence, Alcohol drugs, Early pregnancy that they are

not the problems of teenagers' lives, these are their mistakes, knowing that it is a mistake, getting emotional, choosing the wrong path.

It is worth to say about some common problems of juvenility such as;

- 1) Disagreements between parents
- 2) Inability to spend time properly
- 3) Not being able to do something well
- 4) Inability to concentrate
- 5) Inability to get along well with people.

These are the most common problems in teenagers. These situations have a great impact on their lives. Everyone can solve these problems by himself, but he / she does not know how to do it. Problem-solving skills are the ability to identify problems, brainstorm and analyze answers, and implement the best solutions. Problem-solving includes more parts: identifying the problem, analyzing possible solutions, deciding on the best course of action,

Research is the first step of problem-solving because it helps you understand the context of a problem. Researching a problem enables you to learn why the problem is happening. For example, why happens disagreements between parents and childhood?, what causes arguments between them?, why are there a conflict between them? It is necessary to find the root of such questions in this step. In this way, you can understand who is more to blame for what caused the problem.

**Emotional Intelligence.** It is worth considering the impact that a problem and/or its solution has on you and other people. Emotional intelligence, the ability to recognise the emotions of yourself and others, will help guide you to an appropriate solution. See our Emotional Intelligence pages for more.

Analysis is the next step of problem-solving. Now that you've identified the problem, analytical skills help you look at what potential solutions there might be. Problem analysis is the process of understanding real-world problems and user's needs and proposing solutions to meet those needs. The goal of problem analysis is to gain a better understanding of the problem being solved before developing a solution. There are five useful steps that can be taken to gain a better understanding of the problem before developing a solution.

**Creativity.** Problems are usually solved either intuitively or systematically. Intuition is used when no new knowledge is needed - you know enough to be able to make a quick decision and solve the problem, or you use common sense or experience to solve the problem. More complex problems or problems that you have not experienced before will likely require a more systematic and logical approach to solve, and for these you will need to use creative thinking. See our page on Creative Thinking for more information.

Another step is Thinking. Think about everything you do first and think about how to solve the problem in a positive way. Thinking commands the brain, changes the brain. That's why it plays an important role, thinking about the positive side of everything can solve problems. Such as, ``Not being able to do something well``- in this case, everyone prefers to give up. But he will not try to show a better result next time, he will not believe. The reason is that only negative thoughts, prejudices, despair, and distrust appear in the brain.

#### **Reading books. Books Offer Valuable Advice**

“To be or not to be, that is the question!” Many a time, we are confronted with the biggest doubt of our life. We do not know which road to take to reach our desired destination. Books have a role to play here. If Characters like Margaret in North and South, Clym in The Return of the Native, Elizabeth in Pride and Prejudice, have given us some of the best life advice. Whether it’s through fictional characters or real life experiences, books are the things to turn to whenever you need some wise advice that would change your life. Books make you want to do what the characters did in a similar situation and you emerge as a stronger person.

Other main step is also online monitoring of children suffering during war. Children think about what hardship is suffering, gratitude. When we observe their lives, they are the same children as us, but some of them have rotten food, their parents are burdened, they don't go to school, they can't go to the doctor if they are sick, they can't play games on the streets, they have real smiles on their faces, and the children who see these situations are affected. This condition teaches them to be respectful, considerate, thankful, and interested in learning.

**Risk Management.** Solving a problem involves a certain amount of risk - this risk needs to be weighed up against not solving the problem.

To sum up, the above points it is essential that:

Identify and define the problem.

Come up with possible solutions.

Evaluate the options.

Choose the best solution.

Evaluate the outcome.

Implement the solution.

First of all, parents should be informed about these. A parent is a guide to a child in solving every problem. For example, if these methods are taught in schools, they will show great results. At this age, they spend most of their time in school. A lot of time changes a person in a lot of ways. The correct psychological advice and instructions of teachers will help them not to make mistakes or quickly solve their problems in the right way.

#### **REFERENCES:**

- 1) April 1979, February 1980, Sierra Leone, “ADOLESCENT PROBLEMS”
  - 2) Srtessbuster on March 11, 2019 by Anjita Ganguly
  - 3) John Foster Dulles Former US Secretary of State
- .

**GENDER MUNOSABATLARINI IFODALOVCHI INGLIZ  
FRAZEOLOGIYASINING RIVOJLANISHI**

*Ilmiy rahbar: Katta o'qituvchi Ashurova N.A.*

*Ubaydova Taxmina Abdurafikovna*

*SamDCHTI, XTA 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada muloqot jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lgan hurmat konseptini bildiruvchi til birliklarinini asosiy xususiyatlarini aniqlash hamda ularning badiiyestetik vazifalarini tahlil etilishi hamda ularning o'zaro farqi ko'rib chiqilgan. Hozirgi zamon tilshunosligining mazkur muammoga doir qarash va ma'lumotlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** gender, gender tilshunosligi, nutq, muloqot usuli, stilistik bo'yoq, muloqot uslubidagi farqlar.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются выявление основных признаков языковых единиц, выражающих концепт уважения, что имеет большое значение в процессе общения, и анализ их художественно-эстетических функций и их взаимных различий. Проанализированы взгляды и данные современного языкознания по этой проблеме.

**Ключевые слова:** гендер, гендерная лингвистика, речь, способ общения, стилистическая окраска, различия в стиле общения.

**Abstract.** In this article, the identification of the main features of the language units expressing the concept of respect, which is of great importance in the process of communication, and the analysis of their artistic and aesthetic functions and their mutual differences are considered. The views and data of modern linguistics on this problem have been analyzed.

**Key words:** gender, gender linguistics, speech, communication method, stylistic color, communication style.

### **KIRISH**

Gender tushunchasi zamonaviy tilshunoslik paradigmasiga boshqa gumanitar fanlardan ko'ra ancha keyin kirib kelib, o'tgan asrning 60-yillarida atama sifatida shakllana boshladi. 1980-yillarga kelib, uning ilmiy tadqiqotlarda ishlatilishi keskin oshdi. Gender konseptini birinchi bo'lib amerikalik psixoanalitik Stoller qo'llagan. U gender konseptini ikkiga, ya'ni biologik (jins) va sotsiologik (gender) turlarga bo'lishni ma'qul ko'rigan1. Biologiya va fiziologiya sohalari jins xususiyatlarini, psixologiya va sotsiologiya fanlari esa gender xususiyatlarini o'rganadi. Stollerning taklifi zamonaviy gumanitar bilimlar orasida gender tilshunosligi deb nomlangan alohida yo'naliishing yuksalishiga olib keldi. O'zbek va chet el tilshunosligida hozirgi kunda gender mavzusi bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ammo hurmat kategoriyasining genderlik xususiyatlari ingliz va o'zbek tillarida hanuzgacha qiyoslab o'rganilmagan.

G.A.Brandt gender – madaniyat ta'siri ostida bo‘ladigan, ma'naviy jihatdan ayol va erkaklarning nutqiy, hulq-atvoriy tomonlarini baholay oladigan xususiyatlar majmuidir, deb qaraydi[2].

## TADQIQOT METODI VA METODOLOGIYASI

N.L.Pushkaryova esa ushbu terminni quyidagicha izohlaydi: gender – jamiyatning hukmronlik o‘tkazadigan va bo‘ysunduradigan xususiyatlardan iborat bo‘lgan munosabatlar va o‘zaro harakatlar tizimidir [3]. Gender munosabatlari jamiyat ijtimoiy uyushmasining muhim elementi hisoblanadi. U kishilar orasidagi munosabatlarni aniqlaydi. Dunyo madaniyatlarida shaxsning hulq-atvori odatda jinsga nisbatan ajratiladi. Bu esa o‘z o‘rnida jamiyat talab etgan ma'lum ijtimoiy qonuniyatlarga ayollar va erkaklarning rivoja qilishlarini bildiradi.

Ye.I.Goroshko gender xususiyatlar nutq, hulqatvor, ayol va erkaklarning jamiyat modellarini qabul qilishda o‘z aksini ko‘rsatadi, deb ta'rif beradi4. O.A.Voronina Goroshkoning fikrini boshqa so‘zlar bilan ifodalab, quyidagi ta'rifni qo‘sib qo‘yadi: gender tadqiqotlarining asosiy uslubiyati ayol va erkaklarning jamiyatdagi genderlik roli va munosabatlari orqali tasdiqlangan hukmronlik va ustunlik tahlili hamdir [5].

J.Lakoffning ta'kidlashicha, muomala jarayonida ayollar yuqori darajadagi empatiya va o‘z suhbatdoshiga nisbatan moslashib ketish kabi xislatlar bilan farqlanadi, o‘z suhbatdoshining mulohazalarini diqqat bilan tinglab, muloqot jarayonida ustun bo‘lishga harakat qilmaydi. Erkaklar esa suhbat chog‘ida yana ham jizzakiroq, sharoitni nazorat qilishga intiladilar, o‘zaro kelishishga harakat qilishadi, deb biladi. U shuni ham ta'kidlaydiki, ingliz tilida qayd etilgan xususiyatlarga qo‘sishma qilgan holda, ayollar tasdiq so‘roq gapga tushuvchi intonasiya qo‘llash o‘rniga ko‘tariluvchi intonasiyadan, semantik jihatdan chuqur ma'noga ega bo‘lmagan leksika, odatiy ayollar faoliyatini tasvirlaydigan maxsus o‘zlashtirma so‘zlardan, so‘zlayotgan nutqni kuchli his-hayajon ma'nolarni ifodalovchi til vositalari va modal yuklamalardan keng foydalanishadi. Erkaklar esa undov so‘zlar qo‘llamasliklari, stilistik bo‘yoq darajasi kam va haqorat ma'nosи kelib chiqadigan jargonli leksikani juda ko‘p ishlatishlarini ham qo‘sib qo‘yadi[6].

Muloqot uslubidagi farqlar ayollar va erkaklar orasidagi munosabatlarda paydo bo‘ladigan muammolarni aniqlashtirmaydi. Ya’ni, munosabatlarda ruhiy muammolar, ya’ni sevgidagi yoki e’tibordagi omadsizlik, chin dillik, xudbinliklar ba’zan aks etadi. Va ular siyosiy va iqtisodiy tengsizliklarning natijasidir. Ammo aytib o‘tilgan xususiyatlar asossiz ifodalanishi ham tez-tez uchrab turadi. Demak, ayol va erkak borliqni turlicha qabul qiladi va baholaydi. Nutqiy muomalaning gender o‘zgaruvchanligi tilning turli sathlarida, ya’ni fonetik, leksik, grammatic, semantic sathlarda namoyon bo‘ladi. Gender munosabatlar faqatgina kodlangan ko‘rinishda ishlatilmay, balki nutq hodisasining mavzular majmui va xususiyatini yuzaga keltiradi.

«Hurmat» konseptining milliy madaniy xususiyatlarini o‘rganishda genderlik xususiyatlarni aniqlash katta ahamiyat kasb etadi. «Hurmat» konseptining qiyosiy chog‘ishtirish yondashuvi orqali nafaqat konsept nazariyasi o‘rganiladi, balki qiyoslanayotgan tillarning madaniyati, dunyoqarashi va urf-odatlari ham talqin etiladi. Hurmat kategoriyasiga tegishli genderlik xususiyatlarning leksik sathda aks etadigan misollar bilan aytib o‘tilgan fikrlarni izohlashga e’tiborimizni qaratsak:

1.– I am too bad, On the off chance that I sounded like o pompous ass in there. It was fair such a

...

- No, you were superbly right, Edward. Why on soil ought to they have chosen me? – Honey, you’d likely make a extraordinary envoy or ambassadress, or ...
- I (Mary) still can’t accept it.
- You’re energized around this, are not you?
- Of course I am. Wouldn’t you be?
- It may be a incredible honor, honey, I am beyond any doubt, it isn’t one they would offer delicately [1].

### TADQIQOT NATIJASI

Yuqorida keltirilgan er-xotin orasidagi suhbatda, oilada, odatda, erkak kishidan pastroq pog‘onaga ega bo‘lgan ayol endilikda teng huquqli va o‘zining fikrini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘ziga ishongan holda ifoda etyapti, erkak esa aksincha, ayol kishining ko‘nglini og‘ritib qo‘ymaslik maqsadida «I’m sorry, honey» ifoda vositalari va tasdiq so‘roq gapdan foydalanib, o‘z nutqini yumshatishga harakat qilyapti.

2. Chanqab ketdim. Sovuq suv yo‘qmi? Saltanat: «Voy tavba», kichkina bolaga o‘xshaysiz-a, ko‘chadan suv-suv bo‘lib keldingizku. Ana ayvonga chiqing, sovgan choy bor [2].

Aziz va Saltanatning suhbatli ularning o‘zaro munosabatini aniq qilib ko‘rsatib turibdi. Bunda er hukmini o‘tkazadigan sharoitda emas, u imperativ konstruksiya ishlatmayapti, aksincha, umumiy so‘roq gapga bo‘lishsiz ma’no beruvchi «yo‘qmi» so‘zi Saltanatga nisbatan hurmatini ko‘rsatib turibdi. Ammo Saltanat turmush o‘rtog‘ining hurmatiga yetarlicha javob bermayapti, «Voy tavba» so‘z birikmasi turmush o‘rtog‘iga nisbatan bo‘lgan hurmatsizlik ko‘rsatkichidir.

3. – Will you? – inquired Angela.

– Mightn’t harmed – this once, – reacted Thomas lightly.

– What will you are doing with the kids? ... may be so – in the event that we are not gone as well long. And so it was chosen that Tomas and Angela would acknowledge welcome to the

Sommerses’ party [ 3].

Yuqoridagi misolda, Tomas va Anjela Sommers oilasi tomonidan uyushtirilayotgan kechaga taklif qilingan. Tomas taklifni rad etmaslik maqsadida «may» modal fe’lining

yumshatish shakli «might», ya'ni o'tgan zamonida qo'llab, «not» inkor yuklamasi orqali Anjelaga hurmati yanada chuqurligini ifodalagani ko'rinish turibdi, qiz esa «may be» modal fe'li bilan o'z fikrini yumshattiryapti.

4. – Dadasi, shu kecha yana otamni tush ko'rdim...

Dadam betoqat bo'lib turganiga qaramay, xotirjam javob qildi:

– Ha, Husan pochcham yaxshi odam edilar...[4]

Yuqoridagi misolda esa er kayfiyati yo'qligini bilintirmay «ha» so'zini ayolining ko'nglini ko'tarish maqsadida qo'llab, ayol esa dadasi murojaati bilan erkakka nisbatan o'zaro hurmatini ko'rish mumkin. Murojaatning dadasi so'zi bilan ifodalanishi o'zbek turmush tarzining milliy madaniy xususiyatiga kiradi.

Hurmat kategoriyasidagi genderlik farqlar esa leksik sathda aniqlanganidek, sintaktik sathda ham aks etishi mumkin. Masalan:

5. – Care for a sandwich? – Thane was asking. – I'm not very hungry, – she overseen [1].

6. – Something off-base? – he inquired, – you're a million away. – I figure, I'm fair not much great at partying, – she answered [2].

Inglzlarda biror bir narsa taklif qilinganda «would you like», «what would you say to» kabi savol shakllari (nutq etiketi qoliplari) hurmat kategoriyasini o'zida aks ettiradi, ammo 5- va 6misollarda, ingliz erkaklari tomonidan asosan to'liq bo'limgan gaplar qo'llanishi ingliz

adabiyotida uchrab turadi. Bunda aynan aytib o'tilgan nutq etiketi qoliplarining shakli buzilsa ham, unda hurmat ma'nosi saqlanib qolgan. Ingliz ayollar esa buyruq konstruksiyali yoki to'liq bo'limgan gaplariga javoban suhbatdoshiga nisbatan bo'lgan hurmatini aynan «really» va «just» so'zlaridan foydalanib gaplarni to'liq konstruksiyasidan foydalanishlarini ko'rsatyapti. Ingliz va o'zbek adabiyotlarida erkak kishi ayol kishi tomonidan hurmat qilinishini ko'plab misollarda guvohi bo'lishimiz mumkin. Ayol kishi ko'pgina vaziyatlarda erkak kishining ko'nglini ko'tarish, unga nisbatan hurmatini ko'rsatish maqsadida umumiy so'roq gap konstruksiyasidan foydalanadi. Masalan:

7. – Yana suzib kelaymi? – dedi onam uning ko'ziga tikilib.

– Ertalabga qolsin! – Bobom tovoq tagini yalarkan, tushuntirdi. – Go'janing sovug'i ja ichishli bo'ladi [5].

8. Ra'no: Yana choy ichasizmi?

Anvar: Keyinroq ichaman [4].

9. – I am making a sandwich. Would you care for one? - inquired Roselyn.

– Pop and I ate, much appreciated. In the event that you have got more water, I may stand a drink, though, - replied Jerome.

– Beyond any doubt, how is the teacher doing?

– He is taking a nap. – Favor his heart. – Roselyn stopped to open the fridge [5].

7- va 8-misollarda ayollar nutqida umumiy so‘roq gapda «yana» kuchaytiruvchi ravish yordamida gap yumshatilyapti. Erkaklar nutqida modal ma'noga ega bo‘lgan -roq affaksi «keyin» ravishiga qo‘shilgan holda shu bilan birga ingliz tilidagi (9) misolda esa «if you have..., I could ...» gap konstruksiyasini qo‘llash orqali hurmat kategoriyasi ifodalanyapti. Izlanishlar natijasida o‘zbek madaniyatining yana bir gender xususiyatiga tegishli misollarga guvoh bo‘ldik. Bu xususiyat faqat erkaklarga xos bo‘lib, bunda erkak o‘zidan past pog‘onaga ega bo‘lgan ayoldan biror-bir narsa so‘raydi. Gapning morfologik strukturasi esa otning takrorlanish usuli bilan yasaladi. Masalan:

9. Yo‘ldosh: Saltanatxon, choy-poyga ovora bo‘lmang, men atigi bir minutga kirdim, xolos.

Ishim ziq. Har qancha tinib ketganingda ham ... maktabdoshingni ko‘rsang, odam shoshib qolar ekan, ...

Saltanat: Rahmat, – dedi go‘yo ortiqcha, noo‘rin gapning oldini olmoqchi bo‘lganday [6].

10. – Qizlarni ozod qo‘yibsan, yaxshi, – dedi Maxdum Nigor oyimga. Biz-ku shu xabarni kutib turgan edik. Shunday bo‘lgandan keyin non-poningni to‘g‘rilab turmaysanmi... – Axir o‘zingiz kechagina men xamir qilay desam koyidingiz, – dedi Nigor oyim [7].

Misollardan ko‘rinib turibdiki, otning takrorlanish shakli yordamida otlarning leksik ma'nosiga hurmat ma'nosi qo‘silyapti.

## MUHOKAMA

Hozirgi zamonda ijtimoy iqtisodiy, ta'lif va professional faoliyatda ayollar va erkaklar mavqeい tobora tenglashib ketmoqda. Modomiki, jamiyatda ayollarning erkaklarga nisbatan teng o‘ringa ega bo‘lish sa'y-harakatlari va o‘tmishdagi butunlay erkaklarga tegishli bo‘lgan ish harakatlarni ayollar teng holatda o‘zlarining vazifalari sifatida qarashsa ham muloqot davomida ayol va erkak ishlata digan til vositalarida sezilarli darajada farqlar mavjudligini qo‘rib chiqdik. D.Tannen «You just don’t understand» kitobida shunday fikr beradi: suhbat – ayollar uchun munosabatlarni yaqinlashtirish va rivojlantirish vositasi bo‘lsa, erkaklar uchun esa jamiyatda o‘z mustaqilligi, mavqeini ushlay bilish tartib-qoidalalariga rioya qilish xususiyatlarini namoyon qilishdir [1]. Biroq bizning kuzatuvlarimiz natijasida quyidagi xulosaga keldik: erkaklar ijtimoiy mavqeい nuqtai nazaridan ayollandan ko‘ra balandroq pog‘onada ekanligini ko‘rsatish o‘rniga ayollarga nisbatan hurmati baland, suhbat davomida ayollar o‘zini qulay his etish imkonini yaratib berishga intilishlari ma'lum bo‘ldi. Shunday qilib, gender munosabatlarni jamiyatdan ahamiyatga molik bo‘lgan darajada o‘zgarib borib, muayyan universal qolipga ega emasligi ma'lum bo‘ldi. Xulosa qilib aytganda, gender tilshunosligida ayollar va erkaklar nutqining farqlari bo‘yicha talaygina ma'lumotlar yig‘ilgan bo‘lib, ko‘pgina tilshunoslar ishlarida ayollar

erkaklarga qaraganda e'tiborga molik bo'lgan til shakllarini qo'llashi va ularning nutqi o'zgaruvchanligi (variativ) tadqiq qilingan. Erkaklarning nutqi til o'zgarishlariga og'zaki nutqni jalg qila turib faollik bilan ko'nikma hosil qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida ayollar nutqida ayollar nutqi of course, really, just, honey, tavba, dadasi, yana kabi aniq lisoniy vositalar bilan erkaklar nutqi esa qisqalik, qo'pollik, afzal ko'rish kabi xususiyatlar bilan bir-biridan farqlanadi. Bizning fikrimizcha, ayollar va erkaklar nutqini aniq qilib chegaralab bo'lmaydi. Shu bilan birga, genderlik xususiyatlarni xam ma'lum soni ayollar nutqiga va boshqalari erkaklar nutqiga xos deb aytish qisman noo'rin. Chunki ayollar va erkaklarning lisoniy nutq shakllarini tanlashga turli omillar, ya'ni har bir shaxs etnik kelib chiqishi, irqiy tegishliligi, dini, yoshi, kasbidan ta'sir qiladi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, badiiy adabiyotlar tahlillarida ayollar va erkaklar orasidagi nutq faoliyati xususiyatlari quyidagilarda aks etgan:

- a) badiiy adabiyotlarda ayol va erkakning jamiyatdagi o'rni;
- b) ayol va erkak nutqining fonetik jihatdan qo'llanilishi;
- v) ayol va erkak nutqining grammatik jihatdan qo'llanilishi;
- g) ayol va erkak nutqida leksik vositalar qo'llanilishi.

## XULOSA

Ingliz badiiy adabiyotidan olingen ba'zi misollarda ayol dominantasi aks etgan, erkak ayolning fikrini rad eta olmas holatlari uchradi. Ingliz madaniyatida bunday holat odatiy hisoblanib, o'zbek madaniyatida bunday holatlar uchramaydi. Ingliz badiiy adabiyotidan olingen misollarda o'zbek ayollarining nutq faoliyatidagi e'tiborga molik ana bir xususiyatining guvohi bo'ldik. Bunda ayollar nutqida suxbatdoshiga nisbatan hurmat, sabrlilik, bir-birini o'zaro tushunishga intilish strategiyalari namoyon bo'lgan. Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, mazkur tillarda ayollar nutqida ifodalananayotgan hurmat erkaklar nutqiga qaraganda kuchli ifoda etilishi hamda ayollar hurmatga doir jumlalarni to'liq va uzunroq tuzishlari aniqlandi.

## REFERENCES

1. Brandt G.A. Priroda jenshini kak problema: Konsepsiya femenizma. // «Obshestvennie nauki i sovremennoe», 1998, № 2.
2. Voronina O.A. Sosiokul'turnie determinanti razvitiya gendernoy teorii v
3. Rossii i na Zapade. // «Obshestvennie nauki», 2000, №4. -S. 12-14.
4. Pushkaryova. N.L. Chto takoe gender? // Gendernaya teoriya i poznanie: materiali nauchno prakticheskoy konferensii. Siktivkar. 2005.
5. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. – T.: «O'qituvchi», 1959.
6. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. – T.: «Sharq», 1996.
7. BO, I. T. N. O. R., & TAVSIYALAR, Y. A. M. R. Ortiqov–Farg ‘ona davlat universiteti o ‘qituvchisi. FARG ‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 128.

8. Abdumalik o'g'li, O. R. Cultural Comparison of Uzbek and English Language Speech Styles.
9. Soxibovna, M. G. (2022, August). THE ROLE OF LINVOCULTUREME IN THE STUDY OF NATIONAL AND CULTURAL FEATURES OF SPEECH UNITS. In INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS. (Vol. 1, No. 3, pp. 48-52).
10. Ismoilova, S., & Xalilova, G. (2022). RESEARCH ON THE ISSUE OF QUESTIONS IN LINGUISTICS. Development and innovations in science, 1(1), 17-19.
11. Usmonova, D. (2022). TO STUDY THE IMPORTANCE OF TRANSPOSITION OF WORD CATEGORIES IN ENGLISH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(10), 128-131.
12. Мирзаева, Д. И. (2017). АНАЛИЗ ДИСКУРСА УЧЕНИЯ И ИЗУЧЕНИЯ. Актуальные научные исследования в современном мире, (4-2), 73-75.
13. Mirzayeva, D. (2019). THE CONCEPT OF "FRIENDSHIP" IN UZBEK AND ENGLISH LINGUISTIC CULTURE. Мировая наука, (11), 29-32.
14. Mirzaeva, D. I. (2020). THE ROLE OF PAREMIOLOGY IN THE LANGUAGE SYSTEM. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(6), 245-251.
15. Ravshanovna, G. N. (2022, April). THE STUDY OF THE MEANING OF THE WORD TOLERANCE IN OTHER LANGUAGES. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 3, pp. 8-9).
16. Ravshanovna, G. N., & Anvarovna, Y. D. (2022, May). INGLIZ VA OZBEK TILLARIDAGI TURIZMDAGI ATAMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLARI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 3, pp. 14-17).
17. Ismoilova, S. (2022). SO'ROQ GAPLARNI O'QITISH VA O'RGANISHNI METODIK TASHKILLASHTIRISH YUZASIDAN TAKLIFLAR VA MASALALAR. Science and innovation, 1(B5), 266-270

**OTMDA BO'LAJAK O'QITUVCHILAR O'ZINI-O'ZI RIVOJLANTIRISH  
KOMPTENSIYASINI SHAKLLANTIRISH**

*Ilmiy rahbar: Abdalova Sayyora Rustamovna  
Ataboyeva Muyassar Baxromovna  
Toshkent viloyati, Chirchiq davlat pedagogika instituti  
Ta'lif muassasining boshqaruv yo'nalishi 2-kurs magistranti*

**ANNOTATSIYA**

Xalqaro tajribalarga ko'ra, ta'lif amaliyotining differentsiatsiyalanishi va innovatsionlik sharoitida ishlashga, yangiliklarni amaliy joriy etishga qodir professional pedagoglar tayyorlash oliy ta'limning strategik vazifalaridan hisoblanadi.

**Kalit so'zlari:** Ta'lif, tajriba, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, kasbiy faoliyat, bo'lajak o'qituvchi.

Hozirgi zamon jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ro'y berayotgan katta o'zgarishlar kasbiy faoliyatning mazmuni va harakterini sifat jihatdan qayta o'zgartirishni, bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-kasbiy safarbarligi darajasini, raqobatbardoshligini belgilovchi sifatlar (nazariy bilim va amaliy tayyorgarlikning o'zviyligi va birligi, kasbiy kompetentlik, moslashuvchanlik va kasbiy safarbarlik, kasbiy vazifalarni hal etish usullarini egallash, turli kasbiy muammolarni yecha bilish qobiliyati, o'ziga ishonch, mas'uliyat, muvaffaqiyatga intilish, faol hayotiy va kasbiy pozitsiya, o'zining amaliy tajribasini muntazam boyitishga tayyorgarlik)ni talab etmoqda.

Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o'z ustida ishlay oladigan shaxsni tayyorlashdan iborat. Bu haqda mamlaktimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "jamiyatning eng dolzarb muammolarini yuqori saviyali mutaxassis kadrlar hal etishi, ularning kasbiy bilimdonligi, professional kompetentligi, yuksak mahorati, boy ma'naviy-axloqiy qiyofasi, madaniy saviyasiga bog'liq ekanligi isbot talab qilmaydigan harakatdir"[2].

Shuningdek, 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-soni Prezident farmonida o'rta muddatli istiqbolda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergen eng muhim dasturiy hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat asosida ta'lif sohasiga doir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ta'lif tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan mazkur hujjatlarning barchasida sohaga innovatsiyalarni kiritish, xorijiy tajribalarni

o'zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim turlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog'liq umumiyl jihatlar mavjud.

Pedagogika fanida psixologik-pedagogik kompotentlik tushunchasi pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonida eng yuqori darajada natijaga erishishi, yuqori kasbiy salohiyat, shuningdek, muloqotchanlik va ijobiy fazilatlarga ega bo'lish degan xulosaga kelinadi.

Ta'lim va tarbiya jarayoni o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o'zida aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, yoshlarda davr talabidan kelib chiquvchi yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo'ladigan sifatlarni shakllantirish pedagogik faoliyat sohasining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Buning uchun avvalo pedagogning o'zida yangicha bilim berish, o'zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq ijodiy faoliyat bilan shug'ullana olish ko'nikmalari tarkib topgan bo'lishi lozim.

Bo'lajak o'qituvchilardan talab qilinadigan kompetentlik quyidagi turlarga ajratiladi: – bo'lajak o'qituvchi tomonidan o'z bilimini muntazam ravishda boyitib borish, egallagan malakalarini takomillashtirishga tayyor bo'lish, zamon yangiliklaridan boxabar bo'lish; – ta'lim jarayonida axborot kommunikatsiya, informatsion texnologiyalari va o'qitish vositalarining barcha turini qo'llay olish ko'nikma va malakasiga ega bo'lish; – anglangan va mustaqil faoliyat (mustakil fikr, maqsad qo'yish, o'quv adabiyoti va qo'shimcha manbalardan to'g'ri foydalana olish); – tashabbuskorlikda o'z harakatlari uchun javobgarlikni his qila olish; – tanqidiy fikr yurita olish va dars jarayonida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni ijobiy hal eta olish; – hamkorlik, o'zaro bir-birini tushunish, empatiya bildirish, o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan pedagogik muloqotni o'rnata olish; – chuqr kasbiy bilimdonlikka ega bo'lish [3].

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy bilimdonligi va qobiliyati mezonlariga quyidagilar kiradi: Ijtimoiy bilimdonlik – dars mobaynida auditoriya bilan samarali o'zaro muomala shaklini tashkil eta olish, yoshlar bilan til topish va sog'lom ma'naviy muhitni hosil qila olish qobiliyati. Uslubiy bilimdonlik – barcha bilimlarini, ko'rgankechirganlarni yoshlarga tushunarli, ravon tilda yetkaza olishi, ta'lim texnologiyasi va metodlaridan samarali foydalanishi. Ixtisoslik bilimdonligi – o'z fani va predmeti sohasi bo'yicha chuqr va har tomonlama mukammal bilimlarga ega bo'la olishi, o'z ustida ishslash qobiliyati.

Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir.

Pedagog doimo o'sib o'zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondashishda bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr "O'zbekiston Respublikasi oliv ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
3. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M.A. Ta'lim va tarbiyada innovatson pedagogik texnoogiyalar (ta'lim tizimi xodimlari, metodistlar, o'qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o'quv qo'llanma) - T. 2017, Z68 b .
4. Ismoilovich, I. M. (2021). THE SOCIETY IS AT A NEW STAGE OF DEVELOPMENT PRIORITY IN EDUCATION SYSTEM REFORM FUNCTIONS.
5. Isroilov, M. (2022). The system of education and its interaction with the concept of spirituality. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(1), 88-93.
6. Исройлова, С. М. (2018). Понимание" интерактивность" и" интерактивное обучение" в образовательной среде. *Вопросы науки и образования*, (3 (15)), 122124.
7. Холматова, З. Т. (2017). ОПРЕДЕЛИТЬ ОДАРЁННЫХ ДЕТЕЙ И РАЗВИВАТЬ У НИХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ. *Ученый XXI века*, 58.
8. Холикова, Д. М. (2017). О ФОРМИРОВАНИИ ЗДОРОВЬЕСБЕРЕГАЮЩЕЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ. *Ученый XXI века*, 53.
9. Холикова, Д. (2021). Ўқитиша копмпентенциявий ёндавшув самарадорлигини ташхислаш имкониятлари. *Общество и инновации*, 2(9/S), 239252.
10. Kipchakova, Y. X., & Kodirova, G. A. (2020). INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION. *Теория и практика современной науки*, (5), 29-31.

**EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING NAZARIY VA METODIK  
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Sulaymonova Saodat Yusubxonovna*

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori PHD*

*Namangan davlat universiteti*

*Telefon raqam: +99897 3748272 saodat@mail.com*

*Qayumova Dilafruz Dilmurod qizi*

*Namangan davlat universiteti*

*Pedagogika va Psixologiya yo'nalishi talabasi 3-kurs talabasi*

*Telefon raqam: +998913535003 dilafruzqayumova000@mail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ekologik ta'lismi, ekologik tarbiya, ekologik ong, ekologik madaniyat, “Ekologik ta'limga rivojlantirish konsepsiysi”, yoshlarning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik muammolar va ularni oldini olish, ekologik ta'lismi va tarbiyani takomillashtirish haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ekologik ta'lismi, ekologik tarbiya, ekologiya, ekologik madaniyat, global, ekologik ong, ekologik ma'rifat, tabiiy muhit, ekologik bilim.

**Keywords :** Environmental education, environmental education, ecology, ecological culture, global, ecological consciousness, environmental awareness, natural environment, environmental knowledge.

Respublikamizda ta'lismi tizimini isloq qilish va rivojlantirish zaminida “Ta'lismi to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” mazmun mohiyatan asosi sifatida e'tirof etiladi. Yuqori malakali yuksak ma'naviyatni o'zida mujassam etgan raqobatbardosh mutaxassislar tayorlash va tarbiyalash har-bir davlatning asosiy vazifalaridan biridir.

Respublika hududlaridagi ekologik muammolar yechimiga ta'lismi tizimini joriy qilish bilan hissa qo'shib o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ongi va ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish, ekologik ta'lismi va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida 2019 yil 27 maydagi “O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limga rivojlantirish to'g'risida”gi VQ-434-sonli, 2019 yil 30 oktyabrdagi “2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish to'g'risida”gi PF-5863-sonli, Kontseptsiyalar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar belgilab qo'yildi. Ushbu qarorga muvofiq uzluksiz ta'lismi tizimida ekologik ta'limga rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni ta'lismi-tarbiya jarayoniga izchillik bilan bosqichmabosqich tatbiq qilish va shu asosda ekologik ta'limga yangi bosqichga ko'tarish;

Ta'lim dasturlarini mavjud ekologik muammolar va ularni bartaraf etish vazifalaridan kelib chiqib takomillashtirish;

Ta'lim oluvchilarining e'tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali ularning ona tabiatning qayta tiklanmaydigan manbalarini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish borasidagi mas'uliyatini kuchaytirish; Ekologik ta'limning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish; Ekologik ta'lim sifatini, kadrlar tayyorlash tizimi samaradorligini hamda barqaror rivojlanish kafolatlarini va ustuvorligini ta'minlovchi normativ-huquqiy, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish; Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli davlat organlari va ta'lim sohasining o'zaro manfaatli hamkorligini rivojlantirishra qaratilgan vazifalar yuzasidan qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Qarorda ekologik muammolar global ahamiyatga ega ekanligi inobatga olinib atrof muhit muhofazasi, ekologik madaniyat ekologik ta'lim tarbiya, ekologik ma'rifat masalalariga alohida e'tibor berilgan. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ekologik ong, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, global ekologik muammolarni bartaraf etish, tabiiy muhitni qayta tiklash uchun umummilliyl tadbirlar o'tkazish ko'zda tutilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiyl o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, professional ta'lim tizimi, oliy ta'lim tizimi, oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi, Kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish bosqichlarida ekologik ta'lim tizimini takomillashtirish, maktabdan tashqari ta'lim tizimida ekologik ta'limni takomillashtirish tizimli ko'zda tutilgan. Mazkur ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyanadan kutilayotgan natijalar; ekologik ta'lim tarbiya jarayonini tizimli tashkil etish ,yoshlar orasida ekologik bilim va madaniyatni targ'ib qilish, ekologiya soxasini ilg'or innovatsion texnologiyalarni jalb etgan holda yanada takomillashtirish, yoshlarni Ona tabiatni sevish va uni ko'z qorachig'idek asrashga qaratilgan bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Konsepsiyaning amalga oshirilishi Vatanimiz tabiatni, ekotizimlari, atrof muhitni izdan chiqishdan asrashga xizmat qiladi hamda aholi barcha qatlamlarining ekologik madaniyatini oshirishga hissa qo'shadi. [1]

Ekologiya o'zi nima? Ekologiya so'zini eshtishimiz bilan ko'z oldimizga ko'chalarni toza tutish, suvlarni muhofaza qilish, havoni ifloslanishdan saqlashgina kelmaydi. Ekologiya – hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Ekologik muammolarni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan shu muammo yechimiga bog'liqdir. Ekologiya- hayot jarayonlarini, insonning atrof-muhiti muammolarni o'ziga xos uslublarda tadqiq qiladigan mustaqil fandir. Ekologiya "Tabiy uyimiz"ni o'rganish, boshqacha qilib aytganda ekologiya organizmlarning "yashash joyi" to'g'risidagi fan bo'lib, unda asosiy e'tibor organizmlarning o'zaro va tashqi muhit orasidagi bog'lanishlar xarakteriga qaratiladi.[2]

Hozirgi zamon ekologiyasi siyosiy, iqtisodiy, huquqiy organlar, psixologiya, pedagogika, va ma'naviyat bilan chambarchas aloqada bo'lib insonning tashqi muhit bilan o'zaro aloqasi va bu boradagi muammolarini o'rganib boradi. Bugungi kunda jamiyat ongiga ekologik madaniyatni singdirish zarur, ekologik ongni ekologik ta'lif va tarbiya inson hayot tarzini va manaviyatini o'zgartirish zarur.

Ekologik ta'lif-tarbiyaga oid tushunchalarni ijtimoiy tomondan quyidagicha izohlash mumkin. Ekologik ta'lif - ekologik tarbiya o'zi nima?

**Ekologik ta'lif** – kishini hayotga, jumladan mehnatga tayyorlashning tizimlashgan, muddatli, rasmiy, tegishli ekologik bilim, ko'nikma va malaka berish vositasidir.

**Ekologik tarbiya** – kishini yuksak ekologik ma'naviyatli va ma'rifatli shaxs etib tayyorlash vositasidir. Tabiat bilan doimiy muloqotda bo'lish insoning axloqiy rivojlanishining zaruriy shartidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida shu yilning 2-fevral kuni chiqindilar bilan ishlash tizimi va ekologik holatni yaxshilash, "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish borasida dolzarb vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Davlatimiz rahbari jamoatchilikka murojatlarda: XX1 asrda ekologiya bilan bo'g'liq muammolar birinchi darajali muammo sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Avlodlarimiz bizdan keyin ham munosib tabiiy muhitda yashashi kerak. Buning uchun biz tabiatga e'tibor berishimiz, faqat bugunni emas, yaqin va uzoq kelalajakni o'ylab ish tutishimiz zarurdir deb yoshlar oldiga kata vazifa qo'ydilar.

- "Yashil makon" umummilliy loyihasi bir yillik tadbir emas. Uning doirasida kelgusi besh yilda 1milliard tup daraxt ko'chatini ekishni maqsad qilganmiz. Bu umummilliy harakatning natijasi har bir mahallada ko'rinishi kerak, bu savobli ishni havas bilan qilish kerak,- dedi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev. [4]

Markur mavzu yuzasidan olib borgan izlanishlar natijasidan shunday xulosa qilish mumkinki: tabiatdagi barcha o'zgarishlarning sababchisi inson ekan demak, uning yaxshilashga, asrab avaylashga ham u ma'sulligini o'quv mashg'ulotlarida zamonaqiy ekologik ta'lifga asoslangan holda rivojlantirish lozim. Bunda o'sib kelayotgan kelajak avlodga ekologik ong va madaniyatni shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'lifni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida 2019-yil 27-maydag'i 434-son qarori <https://lex.uz/docs/-4354743#-4358134>
2. X.T.Tursunov, T,U,Rahimova ekologiya o'quv qo'llanma "Chinor ENK" ekologik nashriyot kompaniyasi Toshkent-2006 (12-15bet)

3. Ekologiya O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi darslik Dilorom Yormatova (14-20bet) Toshkent-2012.
4. Prezident Shavkat Mirziyoyev chiqindilar bilan qayta ishlash tizimi va ekologik holatni yaxshilash, "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish borasidagi videoselektor yig'ilishidagi nutqi  
<https://president.uz/uz/lists/view/4955>
5. THE IMPORTANCE OF USING GAME TECHNOLOGY IN THE PROCESS OF EDUCATION A.O Kamalova Экономика и сотциум 82 (№ 3 (82)), 12-14

**KLASTER ASOSIDA YONDASHUV.MAKTABGACHA TA'LIM  
TASHKILOTLARIDA TA'LIM TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH  
VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI**

*Abdikerimova Madina Miyatovna*

*Toshkent viloyati, Chirchiq davlat pedagogika instituti*

*Ta'lif muassasining boshqaruv yo'nalishi 2-kurs magistranti*

**ANNOTATSIYA**

MTT da tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarishni takomillashtirishda fan-texnika yutuqlariga asoslangan eng samarali metodlar va uning mazmun-mohiyati tarbiyachilar o'z faoliyatida afzal bilgan va ilmiy asoslangan barcha usullardan tashkil topgan tizim sifatida qaraladi. Bunda bir tomonidan tarbiyachilar bilan tarbiyalanuvchilarning faoliyati mazmuni, boshqa tomonidan bu tizimning o'zi pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lif tashkilotlarida tizimli yondashuv asosida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishdagi faoliyatlar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** Tizim, obyekt, subyekt, innovatsiya, nazariy-metodologik, motivlashtirish, boshqaruv strategiyasi, kommunikatsiyalar, loyiha.

**АННОТАЦИЯ**

Наиболее эффективными методами, основанными на научно-технических достижениях, являются методы совершенствования организации и управления педагогическими процессами в ОДО на научной основе, а его содержание рассматривается как система, состоящая из всех научно-обоснованных методов, предпочтаемых воспитателями. При этом, с одной стороны, содержание деятельности воспитателей и учащихся, с другой стороны, сама система играет важную роль в совершенствовании педагогического процесса. В данной статье речь пойдет об организации и управлении педагогическими процессами в дошкольных образовательных учреждениях на основе системного подхода.

**Ключевые слова:** система, объект, субъект, инновация, теоретикометодологическая, мотивация, стратегия управления, коммуникации, проект.

**KIRISH**

Pedagogik jarayonlarda tarbiyachilar bilan tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, ya'ni subyekt-subyekt munosabatlarini shakllantirish o'zaro ta'sir jarayonida amalga oshiriladi va mazkur jarayonda o'zaro ta'sir etish madaniyati

shakllanib, rivojlanib boradi. O‘zaro ta’sir etish madaniyatining rivojlanishi ta’limiy muhitda innovatsion o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Pedagogik jarayonlarda innovatsiyalar o‘zaro ta’sir madaniyatining eng muhim va asosiy vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘lib, ular innovatsion jarayonlarda nafaqat o‘zining tavsifi va xususiyatlari bilan, balki pedagogik jarayonlarni takomillashtirishning eng muhim omillari sifatida ham belgilanadi. Bu o‘z navbatida innovatsiyalarning sifatini va ahamiyatlilagini belgilash bilan bir qatorda, vaziyatlarga ko‘ra ularni tatbiq etish vaqtlarini ham oldindan belgilaydi.

O‘zaro ta’sir madaniyati umumiy ijtimoiy madaniyatning tashkil etuvchi komponenti sifatida ma’lum bir ijtimoiy madaniyat kontekstida tushunchalar, shaxslararo munosabatlar va o‘zaro ta’sir natijasida shakllanadi va unda qator kattaliklar – an’anaviylik, dolzarblik darajasi, motivlashtirish tizimi, rahbarlik uslublari, tashkiliy muhitning sifati, kommunikatsiyalar, personalni boshqarish, boshqaruv strategiyasi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning kasbiy hamda shaxsiy madaniyati rasmiy jihatdan namoyon bo‘ladi. O‘zaro ta’sir madaniyatining an’anaviyligi milliy-tarixiy ijtimoiy madaniyat bilan pedagogikaning o‘zaro bog‘liqligiga asoslanuvchi umumtaraqqiy va milliy ta’lim-tarbiya madaniyatining pedagogik tizimda barqaror namoyon bo‘lishi, uning dolzarblii ta’limiy muhitda qulay vaziyatlarning vujudga kelishi sifatida va ijtimoiy ehtiyojlarga mos kelishi bilan belgilanadi. Ta’limiy muhitning sifati uning holatining milliy-madaniy namunalar bilan mos kelishini hamda pedagogik jarayonning samaradorlik darajasi va subyektlar (tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar)ning imkoniyat darajasini belgilaydi.

Ya’ni, vujudga kelayotgan vaziyatlarni ta’limiy muhitning asosiy tashkil etuvchi elementlari bilan muvofiqlashtirish o‘zaro ta’sir madaniyatining asosiy ko‘rsatkichi sifatida xizmat qiladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Pedagogik jarayonlarni takomillashtirish vositalarining nazariy-metodologik asoslari pedagogik jarayonlarning yangi shaklini vujudga keltiruvchi, ta’limning tarkibiy tuzilishining sifatlarini belgilovchi yangi g‘oyalalar hisoblanadi. Shunga ko‘ra, MTT tarbiyachilarining pedagogik jarayonlarni takomillashtirishga ta’sir ko‘rsatuvchi vositalarini tafsiflovchi integrativ xususiyatlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- innovatsion tartibda faoliyat ko‘rsatishni tashkil etishning umumiy tamoyillari;
- pedagogik jarayonlarni rivojlantirish va takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan g‘oyalarning mavjudligi;
- ijtimoiy organizm sifatida jamoani rivojlantirish va tarbiyalanuvchi – ixtirochilar jamoasini vujudga keltirish bo‘yicha tashkiliy-metodik faoliyat;

□ yangi tarkibiy tuzilishga ega va mazmunan rivojlantirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish asosida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish;

□ pedagogik jarayon subyektlarining ijodiy qobiliyatlarini psixologikpedagogik jihatdan rivojlantirish;

□ pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda subyektlarning individualpsixologik xususiyatlarini hisobga olish;

□ yagona ta’lim-tarbiyaviy maqsadni amalga oshirish va rivojlantirish uchun o‘zaro birikkan tarbiyalanuvchi, tarbiyachi va ota-onalarning hamkorligini vujudga keltirish.

Bunday hollarda MTT tarbiyachilari pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish funkstiyalari bilan bir qatorda, boshqaruvchi, tarbiyachi va tadqiqotchi funksiyalarini ham bajarishi zarur. Chunki pedagogik jarayonlarni takomillashtirish asosida ko‘zlangan natijalarga erishishda, eng avvalo, pedagogik jarayonlarda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni o‘rganish va tahlil qilish va ularni bartaraf etishda bajarilishi zarur bo‘lgan vazifalarni, maqsadni aniqlash, shuningdek, pedagogik jarayon subyektlaridan biri hisoblanayotgan tarbiyalanuvchilarining imkoniyati va ehtiyojlarini inobatga olish zarur.

Pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda innovatsiyalarni pedagogik jarayon subyektlarining harakatlanishi va faolligini ta’minlovchi hamda maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy, sifatiy o‘zgarishlar jarayonini vujudga keltiruvchi vosita sifatida belgilash mumkin. Boshqacha qilib aytganda, innovatsiya eskilikning yangilik bilan o‘zaro o‘rin almashinishini ta’minlovchi vosita deb aytishimiz mumkin.

Innovastiya tushunchasi tadqiqotlarda “yangilik kiritish” tushunchasi sifatida ko‘rib chiqiladi, “innovastion jarayon” tushunchasi esa yangilik yaratish va ularni o‘zlashtirish hamda ta’lim muassasasi amaliyotida samarali qo‘llash jarayoni sifatida ifodalanadi.

Demak, pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda innovatsiya (yangilik kiritish) –maqsadga yo‘naltirilgan o‘zgartirishlar vositasi, innovastion jarayon – pedagogik jarayonlarga yoki pedagogik faoliyatga o‘zgartirishlar ( yangilik) kiritish vositasi deb aytishimiz mumkin.

Bizning fikrimizcha, bu jarayonda quyidagi qator vazifalar pedagogik jarayonlarni takomillashtirish, yangiliklar kiritishni amalga oshirishda pedagogik innovatsiyalarni samaradorligining asosiy shartlari hisoblanadi:

–ta’lim tashkiloti jamoasi uchun yangilik kiritishning dolzarbliji mavjud muammolarni uzil-kesil hal qilish va pedagogik jarayon samaradorligini ta’minalashning asosiy omillari sifatida belgilanishi;

–tanlangan innovatsion vositalarni ta’lim tashkilotining imkoniyatlariga mos kelishi;

- innovatsiyalarning to‘la ilmiy asoslanganligi;
- innovatsion jarayonlarning ahamiyatliligi va tizimliligi;
- yangilik yaratuvchi va undan foydalanuvchilarning shaxsiy-individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish;
- innovatsiyalarning ahamiyatini anglash har bir subyektning yuqori darajadagi mas’uliyati hamda javobgarligini ifodalashi;
- innovatsion jarayonlarda tavakkalchilikni minimal darajada bo‘lishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish zaruriyat;
- tavakkalchilik darajasini tushunish va ularning asoslanganligi zaruriyat;
- ta’lim mazmunida, pedagogik loyihalarda o‘zgartirishlar hamda rivojlanish tamoyillarining o‘z ifodasini topishi.

MTTda pedagogik jarayonlarni innovatsion yondashuv asosida takomillashtirishga obyektiv va subyektiv omillar sabab bo‘ladi.

Obyektiv omillarga davlatning yangi ta’lim siyosati, ta’lim sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlar, ta’lim tashkilotlarining innovatsion faoliyat yo‘nalishidagi tajribalarini kiritishimiz mumkin.

Subyektiv omillarga ijtimoiy-hududiy ehtiyoj hamda ta’lim tashkilotlari faoliyatining rivojlanish jarayoni, tarbiyachilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini va ta’lim tashkiloti ilmiy-pedagogik salohiyatining rivojlanishi.

Pedagogik jarayonlarni takomillashtirish ilg‘or pedagogik texnologiyalarni aniqlash va tatbiq etish muammolarini vujudga keltiradi va bular subyekt-subyekt munosabatlariga asoslanadi, bu munosabatlar shaxsning qiziqishlari, qobiliyatları va sifatlarini anglashga yo‘naltirilgan umumiylar rivojlanish shartlarini belgilovchi asoslar hisoblanadi.

Pedagogik jarayonlarni takomillashtirish yo‘nalishida amalga oshirilgan ishlarning samaradorligini aniqlash pedagogik jarayon subyektlari faoliyatini obyektiv baholashni talab etadi va bunga quyidagilar misol bo‘ladi:

- pedagogik jamoaning kasbiy mahoratini o‘sishi;
- jamoada barcha uchun qulay ijtimoiy-psixologik muhitni vujudga kelishi hamda uning mustahkam va ijobiy xususiyatlari;
- pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va rivojlantirishga subyektlar moyilligi va jamoaning tayyorlarligi;
- ilmiy va ilmiy-metodik salohiyatni o‘sishiga jamoadagi moyillik;
- tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar o‘rtasida axborotlar almashinuvni sifatining o‘sishi;
- uzluksiz ta’lim tizimining navbatdagi bosqichlarida o‘qishni davom ettirishlari uchun tarbiyalanuvchilarni tayyorlash darjasini va ta’lim muassasasida yaratilayotgan shart-sharoitlar sifati;
- umumiylar maqsadlarning mavjudligi va manfaatlar uyg‘unlashuvni;

-innovatsion jarayonlarda tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning samarali ishtirokini ta'minlovchi chora-tadbirlarning mavjudligi.

MTTda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda qulay ta'limiy muhitni shakllantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratishda tarbiyalanuvchilarning ehtiyojlari va imkoniyatlarini o'rganish asosida ularning faolligini rivojlantirish zarur bo'lib, ularning faolligini ta'minlashda motivlashtirish pedagogik jarayonlarni takomillashtirish vositalardan biri sifatida maydonga chiqadi.

Amerikalik psixolog A. Maslou nazariyasi bo'yicha barcha ehtiyojlarni qat'iy iyerarxiya strukturasi bo'yicha joylashtirish mumkin. U quyisi darajadagi ehtiyojlarni qondirishni talab qiladi, o'z navbatida inson xulqiga ta'sir ko'rsatadi, yuqori darajadagi ehtiyojlar esa asta-sekin ta'sir ko'rsatadi.

Maslou inson hayotidagi mavjud ehtiyojlardan beshta asosiylarini ajratib ko'rsatadi. Birlamchi ehtiyojlar – bu insonning hayotiy faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan ehtiyojlar. A.Maslouning fikricha, inson, eng avvalo ana shu ehtiyojlarini qondirish uchun ishlaydi. Birlamchi ehtiyojlar hisoblangan oziq-ovqatga, kiyim-kechakka, uy-joyga, uyquga bo'lgan ehtiyoj qondirilsa, boshqa darajadagi ehtiyojlar ham asta-sekin ahamiyat kasb etib boradi.

Yuqorida aytganimizdek, birlamchi ehtiyojlar qondirilgach, boshqa zaruriyatlar kishilarni yuqori darajadagi ehtiyojlarga qarab harakat qilishga majbur qiladi. Lekin, insonning barcha ehtiyojlarni hech qachon to'la-to'kis qondirish imkoniyati bo'lmaydi. Shu sababli ehtiyojlarga asoslangan motivlashtirish jarayoni mavjuddir.

Mak Klelland nazariyasida asosiy e'tibor yuqori darajadagi ehtiyojlarga qaratiladi, ularga hokimiyat, muvaffaqiyat, mansublik kiradi. Hokimiyat ehtiyoji – boshqa odamlarga ta'sir ko'rsatishga xohish, bu albatta hokimiyatga intilish emas, balki o'z ta'sirini ko'rsatish ehtiyoji. Muvaffaqiyatga bo'lgan ehtiyoj ma'lum bir vazifani muvaffaqiyat bilan bajarish orqali amalga oshiriladi.

Mansublik ehtiyoji Maslou nazariyasiga o'xhash bo'lib birga ishlaydigan xodimlar, tanishlar huzurida bo'lishi, do'stona munosabatlar o'rnatishdan manfaatdorlikni ifodalaydi.

Frederik Gertsbergning motivlashtirish nazariyasi boisiy tozalanish (motivastionnaya gigiena) deb yuritilib, uning asosida qoniqish keltiruvchi mehnat ruhiy sog'lom bo'lishga ham hamkorlik ko'rsatadi degan fikr yotadi.

Agar ish joyi iflos, qorong'i, ko'rimsiz bo'lsa bu mehnatga intilishni kamaytiradi. Agar ish joyi toza, ergonometrik nuqtai nazardan benuqson bo'lsa, mehnatga aniq ifodalangan motivlar paydo bo'ladi. Gertsberg bu omillarni "gigienik" omillarga oid deb hisoblaydi.

Motivlashtirishda amerikalik psixolog V.Vrum tomonidan 1964 yilda ishlab chiqilgan kutish nazariyasi ham muhim ahamiyat kasb etib, mehnatning natijasini kutish, ya'ni mehnat xarajatlari bilan olingan natija o'rtasidagi farqni, foydani kutish,

natija bilan rag‘batlantirish o‘rtasidagi farqni kutish, bu yerda rag‘batlantirish mehnat natijasidan qoniqish yoki qoniqmaslikni bildiradi. Ya’ni, kutilgan natijaga erishish motivlashtirishning holatini belgilaydi, rahbarlar tomonidan mehnati natijalariga ko‘ra xodimlarning o‘z vaqtida rag‘batlantirilib borishi motivlashtirishni kuchaytiradi va h.k. Umuman olganda ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda motivlashtirish subyektlarning (tarbiyachilar, tarbiyalanuvchilar) mazkur jarayonlarda keng miqyosda ishtirok etishiga asoslangan bo‘lib, uni qo‘llash orqali sog‘lom ijtimoiy-ruhiy muhit yaratiladi. Bunda ijtimoiy-psixologik metodlar mehnat faolligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, u subyektlarning ma’naviy va ijtimoiy xulqiga ta’sir etish orqali amalga oshiriladi.

Psixologik adabiyotlarda motivlashtirish keng ma’noda inson hayotining (uning xulq-atvori, faoliyatining) murakkab, ko‘p qirrali boshqaruvchisi deb keltiriladi. Tarbiyalanuvchilar faoliyati turli motivlar yordamida boshqarilishi mumkin. Motivlar yordamida irodaviy hatti-harakatlarni vujudga keltiruvchi va faoliyatni muvofiqlashtiruvchi ta’sir samarali hisoblanib, faoliyat natijalarining samaradorligi motivlarning xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi, bu o‘z navbatida motivlashtirish jarayonining samaradorligini ifodalaydi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda motivlashtirish bu pedagogik jarayon samaradorligini ta’minalash yo‘nalishidagi mavjud ehtiyojlardan kelib chiqib, tarbiyalanuvchi faoliyatini psixologik ta’sir etish yo‘llari bilan maqsadga muvofiq yo‘naltirishdir. Motivlashtirish jarayonida pedagogik jarayon subyektlari ehtiyojlari yoki ularning umumiyl manfaatlarini ifodalovchi ehtiyojlarni inobatga olish zarur hisoblanadi, chunki motivlashtirish ehtiyojlarning qondirilishi asosida amalga oshiriladi. Pedagogik jarayonlarda motivlashtirish ijtimoiy amaliyat va ta’lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, subyektlarning qiziqishlarini, egallayotgan bilim, ko‘nikma va malakalarini tahlil qilish orqali ularning faolligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Mavjud ehtiyojlarni o‘rganish asosida tarbiyalanuvchilar faolligini ta’minalashga va rivojlantirishga, ya’ni o‘qish, o‘rganish va bilim olishga yo‘naltiruvchi motivlarni shakllantirish pedagogik jarayonlarda subyektlar faolligini ta’minalash va rivojlantirishga xizmat qilishi bilan bir qatorda, ularni jismoniy yoki aqliy mehnatga, shuningdek, dam olish, bilim olish, hunar o‘rganish, umuman olganda yashash uchun kurashishga chorlaydi.

Motivlashtirishning samaradorligi pedagogik jarayonlarda erishish mumkin bo‘lgan natijalar bilan erishilgan natija o‘rtasidagi mutanosiblikni ifodalab, pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va samaradorlikka erishish uchun quyidagi shartlarning bajarilish zaruriyatini belgilaydi:

- tarbiyalanuvchilarining boshlang‘ich tushunchalariga ilmiy yondashish;
- pedagogik jarayonlarda motivlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;

- tarbiyalanuvchilarda bilim olishga bo‘lgan ijobiy motivlarni shakllantirish; – pedagogik jarayonlarda subyektlar faolligini ta’minlash uchun qulay vaziyatlarni vujudga keltiruvchi ijodiy muhitni tashkil etish;
- pedagogik jarayonlar komponentlarining o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligini inobatga olish;
- pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga innovatsion tuzilishga ega bo‘lgan murakkab pedagogik tizim sifatida yondashish;
- pedagogik jarayonlarda tarbiyalanuvchilar faolligini ta’minlovchi, tanqidiy va tahliliy fikrlashga undovchi reflekstiv yondashuvni joriy etish;
- pedagogik jarayonlarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’sirning o‘ziga xos xususiyatlarini hamda tarbiyalanuvchilarning reflektiv faoliyatining ahamiyatini inobatga olish.

MTTda pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish va takomillashtirishda alohida e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan omillardan biri pedagogik jarayonlar samaradorligining motivlashtirishga bog‘liqligi bo‘lib, motivlashtirish pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va samaradorligini ta’minlashda subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning faolligini ta’minlash va rivojlantirish vositasi sifatida zarur. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish va ularning samaradorligini ta’minlashda axborotlar bilan ishslash va ularning yangiligi va ishonchligini ta’minlash o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Pedagogik jarayonlar to‘g‘risidagi hamda tarbiyalanuvchilarning tasavvuri, boshlang‘ich tushunchalari, ularning dunyoqarashi, ehtiyoji va yashash sharoitlari bo‘yicha axborotlar to‘plash va ularni chuqur o‘rganish, tahlil qilish hamda obyektiv baholash tarbiyachilarning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish asosida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va rivojlantirish yo‘llari, tarbiyalanuvchilarda ijobiy motivlarni shakllantirish va rivojlantirish omillari va vositalari aniqlanadi hamda samaradorlik ta’minlanadi.

Axborot – pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda, shuningdek mazkur jarayon subyektlari hisoblangan tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar faoliyatini tashkil etish va ularni muvofiqlashtirishda, pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish hamda samaradorligini oshirishda o‘ziga xos, turli xil yangiliklarni o‘z ichiga olgan ma’lumot va xabarlardan iborat bo‘lib, yangi, ishonchli va zarur axborotlar pedagogik jarayon subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Axborotlar bilan ishslash – turli ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishslash va uzatishdan iborat bo‘lib, pedagogik jarayonlar subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonida qo‘llaniladi. Bu jarayonda pedagogik jarayon tashkilotchilari hisoblangan rahbarlar va tarbiyachilar kelib tushayotgan asosiy ma’lumotlarning generatori sifatida

faoliyat ko‘rsatadi va ular uchun asosiy vosita axborotlar bo‘lib, ular asosida pedagogik jarayon subyektlari faoliyati muvofiqlashtirib boriladi.

## **XULOSA**

Axborotlar bilan ishslash tarbiyachilar bilan tarbiyalanuvchilar o‘rtasidagi shaxsiy va texnologik axborotlar almashuvini tashkil etadi. Uning asosiy xususiyati tarbiyachilar tomonidan tarbiyalanuvchilarning faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’sirni vujudga keltirish asosida ularning faolligini ta’minlash, tarbiyalanuvchilarning o‘z o‘quv faoliyatidan va tashkil etilgan pedagogik jarayonlarda yaratilgan shart-sharoitlardan qoniqish xosil qilishlari uchun ularda qiziqishlar vujudga keltirish bilan belgilanib, bu xususiyat tarbiyachilarning o‘qitish funkstiyalari bilan bir qatorda, axborotlar bilan ishslash funksiyasining ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tizimli yondashuv asosida pedagogik jarayonni tashkil etish va boshqarish samaradorligiga erishish uchun pedagogic faoliyat subyektlarining yangi va zamonaviy axborotlar bilan ishslash ko‘nikmasini shakllantirish va tarbiyalanuvchilarni ta’limiy va tarbiyaviy jihatdan motivlashtirishdan iborat .

## **REFERENCES**

1. Turg‘unov S.T., L.A. Maqsudova, H.M. Tojiboyeva, G.M. Nazirova, M.A.Umaraliyeva Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish,sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari Toshkent 2014 122 bet
2. Djuraeva B.R., Tojiboeva H.M., Nazirova G.M. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendenstiyalari Toshkent, - O‘zPFITI. – 2015. 112 bet.
3. Djuraeva B.R., Umarova X.A., Tojiboeva H.M., Nazirova G.M. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimi monografiya Toshkent, Real print. – 2017. 160 bet.

## TALABALARDA KREATIVLIKNI BAHOLASH

*Malika Jo‘rayeva Ikromjon qizi*

*Nizomiy nomidagi TDPU, Pedagogika va psixologiya fakulteti  
Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi II bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Kreativlik nima? Kreativlikni baholash mumkinmi? Agar shunday bo‘lsa, qanday qilib? Xuddi shu va shu kabi savollarga javob topish maqsadida olib borilgan ilmi izlanishlar natijasida mazkur maqola vujudga keldi. Ta’limdagi ijodkorlikka yondashuvlar haqida ham maqolada fikr-mulohazalar yuriladi.

**Kalit so‘z va iboralar:** kreativlik, kreativlikni baholash, ta’limda ijodkorlik, talaba, kreativ yondashuv.

**Аннотация:** Что такое творчество? Можно ли оценить творчество? Если да, то как? Эта статья создана в результате научных исследований с целью поиска ответов на одни и те же и похожие вопросы. В статье также комментируются подходы к творчеству в образовании.

**Ключевые слова и фразы:** креативность, оценка креативности, креативность в образовании, студент, творческий подход.

**Abstract:** What is creativity? Can creativity be assessed? If so, how? This article was created as a result of scientific research to find answers to the same and similar questions. The article also comments on approaches to creativity in education.

**Key words and phrases:** creativity, assessment of creativity, creativity in education, student, creative approach.

### KIRISH

Ta’lim sohasi haqida so‘z yuritganda uning ishtirokchilarida kreativlikning mavjud ekani yoxud rivojlantirish masalasi, bundan tashqari kreativlikni baholash mavzusi borasida suhbat qurilsa, suhbat muqarrar ravishda yuqorida ta’kidlangani singari muhim savollarga aylanadi. Bu masalalarda ko‘pgina odamlar baholash, xususan, standartlashtirilgan baholash haqida kuchli fikrga ega ekanliklariga guvoh bo‘lish mumkin. Hamda aksariyati kreativlikni shu tarzda o‘lchash mumkinmi yoki kerakmi degan bir xil darajadagi kuchli fikrning egalari ekanliklarini ham namoyon etadilar.

### TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Annotatsiyada berilgan savollarga aniqlik kiritish maqsadida alohida vaqt ajratish muhim ekaniga amin bo‘lindi. Savollarga oddiygina «ha» yoki «yo‘q» deb javob bermoqlikdan ko‘ra, mavzuni yanada munozaraga aylantirish — yanada nozikroq diaologga imkon beruvchi savollarni berish pedagogika va psixologiyada ta’lim beruvchi va oluvchilar uchun ham qiziqarli ham foydali bo‘lishi mumkin deb

qaraldi. Masalan: Baholash deganda aynan nima nazarda tutiladi? Kreativlikning ba'zi jihatlari bormi, boshqalarga nisbatan baholashga ko'proq moyil bo'ladimi? Kreativlik kabi konstruksiyaga ko'proq va kamroq mos keladigan kuzatish, hujjatlashtirish va o'lhash uchun muayyan yondashuvlar bormi? Baholashning ba'zi yondashuvlari ta'lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantirishga yordam bera oladimi? Nima uchun?

Bugungi kunda dunyo bo'ylab trendlar doimiy ravishda va juda tezkorlik bilan o'zgarib turishi sir emas. Bu trendlar ta'limga, o'qishga, o'rganishga, ishga kirish jarayoniga va albatta, butun jamiyatning hayotiga ta'sir o'tkazmay qolmaydi. XXI asrda yuqori sur'atda rivojlangan va juda ko'plab an'analarning o'zgarishiga sabab bo'lib kelayotgan trend bu — kreativlik bo'ladi.

Kreativlik! Ha, bu shunchaki bir qobiliyat-ku deb aytish mumkin. Ammo ham nazariy ham amaliy va bu boradagi olib borilgan tadqiqot natijalarini o'rganish asosidagi bilimlarga suyanib, quyida faktlar bilan kreativlik nega eng muhim omillardan biriga aylanayotgani haqida kengroq mushohada olib boriladi.

Avvalo, kretivlik aslida nima ekaniga javob berib o'tish lozim.

**Kreativlik** – bu qaysidir ma'noda yangi va foydali biror bir narsaning yaratilishiga hissa qo'shadigan fenomen. Boshqacha qilib aytganda, yangi mavhum biror narsa (asar, musiqa, idea yoki start-up) yoki jismoniy biror kashfiyot (mashina, qurilma yoki robot)lar yaratilishi uchun eng kerakli vosita bu *kreativlikdir*.

### TADQIQOT NATIJALARI

Endi kreativlikni baholash masalasiga kelinsa, bunda nega «Kreativlikni baholash» g'oyasi bilan shug'ullanish juda qiyin? Nega ko'pchilik uchun bu so'zlarning birikmasi hayratlanarli qarama-qarshilik sifatida qayd etiladi? Baholash va kreativlikni amalda birlashtirishda qiyinchilikka duch kelishning sabablaridan bir sifatida kreativlik va baholashning aqliy modellari bir-biriga mos kelmaydi deb ko'rsatish mumkin.

### KREATIVLIKNI BAHOLASH

Kreativlikni baholash natijasini qayd etish uchun tanlab olingan respondentlar bilan «Kreativlikni baholash» so'rovnomasi o'tqazildi. Ta'kidlovchi eksprement so'rovnama natijalarining ko'rsatishicha respondentlarning 13% ida kreativlikning quyi darajasi qayd qilindi. Ya'niki, ularda ijodiylik, mustaqillik, nostandard munosabat, orginallik, egiluvchanlik past darajada ekanligini kuzatish mumkin. Respondentlarning 50 % esa o'rta daraja va 37 % i yuqori darajani namoyon qildilar. O'rta darajani ko'rsatgan ko'rsatkichlarga sabab bo'lgan talabalarda kreativlik, muammoga nostandard munosabat, kreativ munosabat, ijodiy nodatiy yondashish ko'nikmalari o'rtacha darajada ekanligidan pedagogik jarayonda ularning nisbatan faol, mazmunli ishtorok etishlarini ko'rish mumkin.

Yuqori darajani ko'rsatgan respondentlarda faollik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, original fikrlash, muloqotchanlik, fikrlarining egiluvchanligini alohida ta'kidlash lozim.

### **MUHOKAMA**

Kreativlik va baholash singari muayyan masalalar uchun talabalarning madaniy modellari ularni aql va amaliyatda qanday birlashtira olishiga ta'sir qiladi.

Tadqiqot mobaynida yuqori natijani qo'lga kiritish maqsadida qo'llanilgan metodlar va so'rovnomalar talabalarning madaniy modellarini ham o'rganib, aql va amaliyat birligini hosil qilish edi.

Oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalar hamda talabalar jamoasining kreativlik darajasini baholash tashkil qilinadigan dars mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etishda ham o'zini namoyon etadi.

### **XULOSA**

Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar hamda ularga bilim berayotgan o'qituvchilar faoliyatini kuzatish, ular bilan olib borilgan suhbatlar, o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida talabalarda kreativ yondashish, kreativ munosabat bildira olish, kreativ qobiliyat ko'nikmalari, tadqiqotchilik ko'nikmalari hamda ularni rivojlantirishning ma'lum bosqichli texnologiyasining ishlab chiqilishiga asos bo'ldi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Cramond, B. & Wang, L. (2012). The audacity of creativity assessment. In S. Hunsaker (ed.), Identification of students for gifted and talented education services: Theory and practice, pp. 337– 361. Mansfield, CT: Creative Learning Press.
2. Dewey, J. (1938/2008). The Later Works of John Dewey, Vol. 4, 1925–1953: 1929: The Quest for Certainty (Collected Works of John Dewey). Carbondale, IL: Southern Illinois University Press.
3. Guilford, J. P. (1950). Creativity. American Psychologist, 5, pp. 444–454.
4. Wason, P. (1983). Realism and rationality in the selection task. In J. St. B. Evans (Ed.), Thinking and reasoning: Psychological approaches (pp. 44–75). London: Routledge & Kegan Paul.  
Zimmerman, C. (2000). The development of scientific reasoning skills. Developmental Review, 20, 99–149.

## INGLIZ TILIDAGA OID BILIMLARNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI

*Ilmiy rahbar: NDPI Ingliz tili amaliy kafedrasi o`qituvchisi  
Gapparova Mehribon Tulqin qizi  
1-kurs talabasi: Sobirova Shohina Arslon qizi*

### Annotatsiya

Ushbu maqolada Ingliz tilidaga oid bilimlarni rivojlantirishning samarali yo'llari, ularning ahamiyati haqida fikr yuritiladi va misollar orqali tushuntirib beriladi.

**Tayanch tushunchalar:** til, yozish ko'nikmasi (writing), o'qish ko'nikmasi (reading), tinglash ko'nikmasi (Listening), gapirish ko'nikmasi dominant so'z, ijobiy va salbiy bo`yoqdorlik.

Hozirgi kunda nafaqat bizning mamlakatimizda balki boshqa mamlakatlarda ham ingliz tili eng mashhur tillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun deyarli barcha davlatlarda ingliz tilini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ota-onalar ham o'z farzandlarini ingliz tilini o'rganishga jalb qilmoqdalar, inson qancha til o'rgansa, o'ziga yangi omad eshigini ochadi. Maqsadlari sari olg'a borsa albatta buyuk inson bo'ladi.

Bizning yurtimizda, "O'zbekiston Respublikasi Vazifalar Mahkamasining 2013-yil 31-dekabrdagi "Chet tilini bilish darajasini aniqlash va malaka sertifikatlarini berish darajasini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 352-soniga asosan birinchi bo'lib 2018-yilda test sinovlari o'tkaziladi"<sup>1</sup>. Hozirgi kunga kelib "Multi-level" test sinovlari ham o'tkazilmoqda, buning hozirgi yoshlarga eng qulay tarafi shuki, u har oyda o'tkaziladi. Bizning yurtimizdagи fuqarolar orasida chet elga borib bilimini oshirib kelganlar soni ortib bormoqda. Bu esa albatta yurtimiz rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Aytish joizki, yurtimizda bunday sertifikat olganlar soni oshib bormoqda. Hozirgi kunda bolalarni yosh paytidan ingliz tiliga qiziqishlarini oshirishmoqda. Masalan, telekanallarda ham inglizcha ko'rsatuylar olib boriladi. Bu esa til rivojlanishining eng samarali yo'li hisoblanadi. "Endi esa ingliz tilini o'rganishning samarali usullarini ko'rib chiqamiz, bular ham 4-bosqichga bo'linadi: tinglash ko'nikmasi (Listening), o'qish ko'nikmasi (reading), yozish ko'nikmasi (writing), gapirish ko'nikmasi (speaking)"<sup>2</sup> "tinglash ko'nikmasi (Listening)" ni o'rganish uchun avvalo lug'at kerak bo'ldi va diqqatni bir nuqtaga jamlay olishimiz kerak.

<sup>1</sup> Zyonet.uz

<sup>2</sup> Google.uz

“Tinglash ko’nikmasi ( Listening)”ni oshirish uchun ko‘proq inglizcha qo‘sishq, video va dasturlarni ko‘rishimiz kerak. Keyin shu ko‘rgan, eshitgan narsalarimizni nima haqida ekanligini daftarga yozib borishimiz kerak. Keyingi bo‘lim bu albatta “o’qish ko’nikmasi (reading)” inglizcha o‘qigan kitoblarimizni tushunishimiz albatta bizga birinchi marta tashvish tushirishi mumkin. Buni yaxshilash uchun kitobning 1-bo‘limini ingliz tilida 2 bo‘limini esa ingliz tilida o‘qishimiz kerak. Bundan tashqari, kitobni o‘qiganimizda ovoz chiqarib o‘qishimiz kerak ya’ni, o‘zimizni ovozimizni eshita olishimiz kerak bo‘ladi, va haftada bir kunimizni o‘qish ko’nikmasi (reading) uchun sarflashimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu orqali hammasini bajarib borsak albatta natijaga erishamiz. 3-bo‘lim “yozish ko’nikmasi (writing)” hisoblanadi. Bunda o‘quvchilar insho yozishadi va bu ham 2 bosqichdan iborat bo‘ladi. yozihs ko’nikmasi (writing)ni oshirish uchun so‘zlarni sinonimlari bilan birga yodlagan bo‘lishimiz va bundan tashqari, ko‘proq fikrlay olishimiz kerak bo‘ladi. Biz o‘zimiz yoqtirgan va yoqtirmagan narsalarni daftaramizga yozib borish orqali writingni o‘rganishimiz mumkin va kamida 30-40 daqiqamizni “reading”ga sarflashimiz kerak albatta bu writingni endi boshlaydiganlar o‘quvchilar uchun shu tarzda biz writingni bo‘limini oshirishimiz mumkin. Ingliz tilida gapishtishni yani “speaking”ni o‘rganish uchun o‘quvchilardan lug‘at boyligi talab qilinadi, qanchalik ko‘p lug‘at bilsak yani so‘zlarni sinonimlari bilan o‘rgansak gapishtishimiz yanada tezlashadi. Ko‘pchilik video va inglizcha filmlar tomosha qilish gapishtishni o‘rganishning eng yaxshi usullaridan biri deb hisoblanashadi. Lekin odamlar bilan ko‘rishib yuzma yuz og‘zaki muloqot qilish so‘zlashishning eng samarali va tez natijaga erishtiradigan yo‘li hisoblanadi. Masalan, agar biz sayohatga chiqqanimizda haqiqiy ingliz insonlarini ko‘rsak albatta ular bilan muloqot qilishimiz kerak. Shu yo‘l orqali biz ular so‘zlarni qanday talaffuz qilishini bilib olishimiz mumkin. Bundan tashqari ko‘chada sayr qilganimizda yoki mashinada o‘tirganimizda ham so‘zlarni inglizcha miyamizda o‘ylab o‘zimiz tarjima qilishimiz kerak va hech qachon to‘xtamay o‘z ustimizda qattiq ishlasak albatta buyuk natjalarga erishamiz. Shunday ekan inson hech qachon harakatdan to‘xtamasligi kerak .

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Google.uz
2. Zyonet.uz

**OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINI ARALASH TA'LIM  
MUHITIDA INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH  
METODIKASI**

*Ko'makova Dilshoda Shirinqulovna*

*Toshkent viloyati, Chirchiq davlat pedagogika instituti*

*Ta'lim muassasining boshqaruv yo'nalishi 2-kurs magistiranti*

**Annotatsiya:** Maqlolada aralash ta'lism tushunchasi, uning rivojlanishi, hozirgi paytdagi ahamiyati hamda tutgan o'rni ko'rib chiqilgan. Shuningdek aralash ta'lism afzalliklari va yutuqlari hamda kamchiliklari keltirilgan. Ta'linda axborot texnologiyalarini ommaviy joriy etish ta'lism usullari va nazorat formati o'zgarishiga olib keladi va ta'lism tuzilmasida o'zgarishlarni talab qiladi. Bu yerda ta'lism berishning an'anaviy shakllaridan o'tish va axborot jamiyatida o'quv jarayonini tashkil etish zarurati mavjud bo'lib, bu ta'lism faoliyatida yangi ta'lism modellarining paydo bo'lishiga olib keladi.

**Kalit so'zlar:** Blended learning, aralash ta'lism, elektron ta'lism, an'anaviy ta'lism, onlayn rejim, onlayn platforma, o'qitish shakli, onlayn o'quv materiallari, mustaqil ta'lism

**Abstract:** The article examines the concept of mixed education, its development, modern meaning and role. Describes the advantages and disadvantages of blended learning. The massive introduction of information technologies in education will lead to a change in teaching methods and the format of control, and will also require changes in the structure of education. A departure from traditional forms of education and organization of the educational process in the information society is necessary. This leads to the emergence of new learning models in educational activities.

**Keywords:** Blended learning, e-learning, traditional education, online mode, online platform, learning form, materials online learning, self-education

Respublikamiz ta'lism tizimida olib borilayotgan islohotlar o'qitish tizimini jahon andozalariga moslashtirishni va eng samarali usullarga asoslanishni taqoza etmoqda. Elektron ta'lism jarayonini tashkillashtrish hozirgi zamon talabidir. Shuning uchun aralash ta'lism (Blended Learning) asosida ta'lism tizimi tashkil etishni yo'lga qo'yish ta'lism samaradorligini oshirishga olib kelishi shubhasiz. Bizning nazarimizda, bu borada aralash ta'lism ananaviy va elektron ta'lism tizimida o'qitish ishlarini takomillashtirish, ommalashtirish, aralash ta'lism bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasini chuqr o'rganish aralash ta'lism milliy modelini yaratilishiga imkon yaratadi.

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim olishning internet texnologiyalariga asoslanganligini inobatga olgan holda, aralash ta'limni qo'llash metodikasini ishlab chiqish ahamiyatga molik masalalardan hisoblanadi.

Aralash ta'lim zamонавиј та'лимни нисбатан янги ва тобора оммалашиб борайотган шакли саналиб, онлайн о'кув материаллари hamda o'qituvchi rahbarligida guruhda ta'lim olishга asoslangan o'qitish shaklidir.



Elektron ta'lim qanchalik qulay bo'lmasin, ana'anaviy ta'lim natijasida olinadigan nutq va ijtimoiy-madaniy ko'nikmalarining rivojlanish darajasini bera olmaydi. Shunga qaramay elektron ta'lim an'anaviy ta'limga nisbatan samarali natija bermoqda. Buning natijasida an'anaviy ta'limning elektron ta'lim bilan birgalikdagi, ya'ni aralashgan holdagi turi samarali natija berishi yaqqol ko'rinoqda. Aralash ta'lim an'anaviy, masofaviy va ineraktiv ta'limning

birgalikda olb borilishidir. An'anaviy ta'lim insonlarda muloqot qobiliyatini rivojlantirib, ijtimoiylashrtirsa, elektron ta'lim bilim olish jarayonini tezlashtiriradi.

O'quv jarayoni odamlarning ehtiyojlariga mos keladigan va o'z shaklida mobil telefonga ega bo'lган zamонавиј modelga o'tishni talab qilmoqda. Ushbu model sizga ta'lim jarayonini takomillashtirish va bir vaqtning o'zida bir nechta muhim masalalarni hal qilish imkonini beradi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi turli sohalarda aralash ta'limni rivojlantirish va qo'llashga yordam beradi.

O'quv jarayonida AKTning vazifasi ma'ruzalar, videolar, taqdimotlar va hokazolarni uzatish va saqlash hisoblanadi. Aralash ta'limda ushbu funksiyalar o'quv jarayonida o'qituvchilar va talabalar o'rtasida o'zaro muloqot va shu muloqotni amalga oshirishga qaratilgan. Muloqot texnologiya orqali qo'llab-quvvatlanadi: suhbatlar, bloglar, videokonferentsiya, Skype va boshqalar.

AKT orqali ta'lim va aralash ta'lim o'rtasidagi farqning oxirgi mezonlari o'quv jarayonida o'qituvchining roli hisoblanadi. Avvalo, ta'lim jarayonida o'qituvchining o'rni axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi bilan o'zgarib borayotganini aytish kerak. Bu endi klassik o'qituvchi emas, balki ta'lim muhiti bo'yicha yo'naltiruvchi yoki maslahatchidir. Aralash ta'limda o'qituvchining o'rni o'quv jarayonini tashkil etuvchi bo'lib, o'qituvchi talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etadi va qo'llabquvvatlaydi.

Blended learning (Aralash ta'lim) - bu kompyuter grafikasi, audio va video, interfaol elementlar va boshqalar kabi maxsus axborot texnologiyalaridan

foydalanadigan elektron o'qitish elementlari bilan sinfda o'qitishning an'anaviy shakllarining kombinatsiyasi.

Blended learning - onlayn o'quv materiallari hamda o'qituvchi rahbarligida guruhda ta'lif olishga asoslangan o'qitish shakli. Ushbu shakldagi o'qitish jarayonida talaba mustaqil ta'lif oladi, ammo ayni vaqtda unga guruh va o'qituvchi tomonidan yordam ko'rsatiladi.

Guruhli mashg'ulotlar davomida aralash o'qitish "blended learning"ning qo'llanilishi tufayli har bir talaba o'quv materiallarini o'zlashtirish borasida o'zida ro'y berayotgan ijobjiy o'zgarishlarni namoyon etgan holda muloqot ko'nikmalarini o'zlashtirib boradi, o'tilgan materiallarni takrorlaydi va yangi mavzuni o'rganishga tayyorlanadi. Aralash ta'lif ko'p holatlarda topshiriqlarga tayanadi va asosiy, muhim ma'lumotlar negizida tashkil etiladi, qo'shimcha materiallar esa talabaga onlayn platforma orqali uzatib beriladi. Talaba mustaqil ta'lif olar ekan, guruhning boshqa a'zolari bilan onlayn rejimda tashkil etilayotgan muhokamada ishtirok etish orqali hamkorlik qiladi. Auditoriyada va onlayn rejimda tashkil etilayotgan mashg'ulotlar vaqt miqdori bo'yicha o'zaro mos kelishi turlicha o'zgarib turishi mumkin. Ta'lifning turli bosqichlarida masofaviy va mustaqil ta'lif samarali ravishda qorishtirib yuboriladi.

Blended learning metodik yutuqlari va afzalliklariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Dars jadvalining qulayligi. O'quvchi o`ziga ma'qul bo`lgan vaqtda o'quv jarayoniga qatnashishi mumkin.
  - Qulay foydalanish manzillari. O'quvchi internet kafe, uy, mexmonxona, ish joyida va boshqa joylardan o'quv jarayoniga qatnashishi mumkin.
  - Qulay o`qish tempi. Ta'lif o`quvchilarining yangi bilimlarni tushunishi tempida o`tkaziladi.
  - Qulay o`quv reja. O'quv rejani talabalarga individual va davlat ta'lif talablariga mos holatda tashkil qilish mumkin.
  - Ma'lumotlar bazasini to`planishi. Oldingi o`qigan talabalar bilimlarini to`plash va undan foydalanish imkoniyati.
  - Kurgazmali qulayliklar. Multimediya imkoniyatlaridan to`lik foydalanish imkoniyati.
  - Malakali o`qituvchilarini tanlab ta'lif jarayoniga jalb qilish.
  - O'quv resurslaridan kuniga 24 soat foydalanish ikmoni.
  - Ta'lif harajatlarini nisbatan kamligi.
- Ammo masofaviy ta'lifning salbiy tomonlari ham borligi haqida aytish lozim. Ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

• O'qituvchi bilan jonli muloqotning yo'qligi. Ushbu sababdan talabalar asosan virtual holatdagi ta'lif turida emas, balki oddiy (kunduzgi va sirtqi) ta'lif turlarida o`qish istagida bo`lishadi.

• Davlat masofaviy ta'lif standartlari yo`qligi va natijada davlat nusxasidagi diplom berilmasligi. Shu sababdan ko`pgina masofaviy ta'lif kurslari bitiruvchilariga faqat ushbu kursni bitirganligi haqida sertifikat yoki guvoxnomalar berishadi.

• Virtual muhit va texnika ta'minot bilan bog`liqligi. Masofaviy ta'lif internet borligi, undan foydalanish narxi, tezligi va servislar mavjudligiga, maxsus kommunikatsion texnikalar mavjudligi va ular ishlashiga taalluqli.

• O'quv vositalaridan samarasiz foydalanish resurslarning isrof qilinishiga olib kelishi mumkinligi.

• Talabalar texnologiya haqida asosiy bilimga ega bo'lishlari va o'rganish istagi bo'lishi kerakligi.

• Yuqori texnologiyalar texnik xizmat ko'rsatishda ancha qimmatligi.

Masofaviy ta'lif nuqtai nazaridan aralash ta'lif o'quv jarayonini amalga oshirishda ko'proq moslashuvchanlikni (erkinlikni) ta'minlaydi. Moslashuvchanlik o'quv jarayonining bir necha jihatlarini o'z ichiga oladi. Birinchidan, o'qituvchi o'quv materiallarini taqdim etishda ko'proq erkinlikka ega. Endi u dars paytida barcha materiallarni tarqatishga majbur emas. O'qituvchi barcha materiallarni ikkiga ajratish imkoniyatiga ega, aytaylik, birini dars davomida berish uchun, boshqasini esa talabalar tarmoqdagi mustaqil ish yoki Internetdagi boshqa manbalar orqali olishlari uchun. Ikkinchidan, aralashtirilgan ta'lif o'qituvchilarga monitoring va baholashda ko'proq moslashuvchanlik va erkinlikni beradi. O'qituvchi onlayn test, post topshiriqlari, testlarni va hatto semestr oxirida yakuniy testni o'tkazish imkoniyatiga ega. Bunday imkoniyat o'qituvchi uchun ham talabalar uchun ham qulay. O'qituvchi o'quvchilarning faoliyatini baholashga ko'proq vaqt ajratadi va talabalar o'zlarining topshiriqlari bo'yicha istalgan joydan, darsga kelmasdan ishlashlari mumkin. Aralashtirilgan ta'lif jarayonida o'qituvchilar xatti-harakatlarni nazorat qila olmaydilar va bunday qilmasliklari kerak.

Hozirgi kunda axborot eng asosiy ishlab chiqaruvchi resurslardan biriga, iqtisodiyot va umuman jamiatning rivojlanish poydevoriga aylanmoqda. Yangi axborot kommunikatsion texnologiyalar hozirgi kunda eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda, sababi har bir sohani o'rganish, izlanish va tajriba ortirish uchun turli usullardan foydalanish kerak bo'ladi. Shuning ushun yangi axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqlikdir.

Respublikamizda olib borilayotgan islohatlarning tarkibida yuqori malakali mutaxassislarning roli benihoya kattadir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Ertangi kun yangicha fikrlay oladigan zamonaviy bilimga ega bo'lgan yuksak malakali mutaxassislarni talab etadi". Shu sababli xalqimizning boy intellektual merosi va

umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalar asosida yuksak mutaxasislar tayyorlash tizimi ishlab chiqildi va jadal sur'atlar bilan hayotga tadbiq etilmoqda.

O'zbekistonda o'qitish texnologiyalari zamonaviylashtirish, jadallashtirish iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga qaraganda yanada dolzarb ahamiyatga ega.

Chunki hozirgi kunda milliy ta'lif tizimining salohiyati tizimli rivojlanishinig yanada yuqori pog'onasiga ko'tarilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, elektron ta'lif jarayonini tashkillashtrish hozirgi zamon talabidir. Shuning uchun blended learning (aralash ta'lif) asosida ta'lif tizimi tashkil etishni yo'lga qo'yish ta'lif samaradorligini oshirishga olib kelishi shubhasiz. Bizning nazarimizda, bu borada aralash ta'lif ananaviy va masofali ta'lif tizimida o'qitish ishlarini takomillashtirish, ommalashtirish, aralash ta'lif bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasini chuqur o'rganish aralash ta'lif milliy modelini yaratilishiga imkon yaratadi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar**

1. Абрамова Я.К. Смешанное обучение как инновационная образовательная технология // Перспективы развития информационных технологий. 2014. №17. С. 115-119.
2. Богоряд Н.В., Лысунец Т.Б. Изменение роли преподавателя в концепции смешанного обучения // В мире научных открытий. 2014. №3(51). С. 76-81.
3. Велединская С.Б., Дорофеева М.Ю. Смешанное обучение: секреты эффективности // Высшее образование сегодня. – 2014, №8. С. 8-13.
4. Долгова Т.В. Смешанное обучение – инновация XXI века Интерактивное образование: информационно-публицистический образовательный журнал/учредитель ООО «А-Приор». 2017, №5

### **References**

1. Abramova Ya.K. Blended learning as an innovative educational technology // Prospects for the development of information technologies. 2014. No. 17. S. 115-119.
2. Bogoryad NV, Lysunets TB Changing the role of the teacher in the concept of blended learning // In the world of scientific discoveries. 2014. No. 3 (51). S. 76-81.
3. Veledinskaya S.B., Dorofeeva M.Yu. Blended learning: secrets of efficiency // Higher education today. - 2014, No. 8. S. 8-13.
4. Dolgova T.V. Blended learning - an innovation of the XXI century Interactive education: informational and publicistic educational journal / founder of LLC APrior. 2017, no.5

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA METODIK XIZMAT  
SAMARADORLIKNI OSHIRISHDA PEDAGOGIK SHART SHAROITLAR**

*Ilmiy rahbar: Shodmonov Bahodir Sherqulovich*

*Xakimova Irada Xayrullayevna*

*Toshkent viloyati, Chirchiq davlat pedagogika instituti*

*Ta'lim muassasining boshqaruv yo'nalishi 2-kurs magistranti*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlari tarbiyachilarining kreativlik qobiliyatlarini interfaol o`qitish metodlari va texnologiyalari asosida rivojlantirishning ahamiyati. Ta'lism samaradorligini oshirishdagi yana bir o'ziga xos zamonaviy yondoshuvlaridan biri bu interfaol ta'lism metodlari va texnologiyalari asosida nafaqat o`qitish, balkim shaxsni kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish sanaladi.

**Kalit so'zlar:** kreativlik, qobilyat, maktabgacha ta'lism tashkilotlari, ijodiy, faoliyat

**Abstract**

In this article, the importance of developing the creative abilities of educators of preschool education on the basis of interactive teaching methods and technologies. Another unique modern approach to increasing the effectiveness of education is to develop not only teaching, but also the creative abilities of the individual on the basis of these interactive teaching methods and technologies.

**Keywords:** creativity, ability, preschool organizations, creativity, activity

**Kirish**

Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llash dunyoviy ta'lism tizimining tobora rivojlanib borayotgan muhim tendentsiyalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda aksariyat o'quv fanlari, shu jumladan, pedagogika turkum fanlarini o`qitish jarayonida ham pedagogik texnologiyalari va boshqa interaktiv vositalardan samarali foydalanilmoqda.

Ta'lism samaradorligini oshirishdagi yana bir o'ziga xos zamonaviy yondoshuvlaridan biri bu interfaol ta'lism metodlari va texnologiyalari asosida nafaqat o`qitish, balkim shaxsni kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish sanaladi.

## METODOLOGIYA

Tarbiyachining kasbiy mahorati. Tarbiyachining kasbiy mahorat – bu ma'lum shaxsiy (bolalarni sevishi, mehribonligi, hayrixohligi va h.k) va kasbiy (bilimdonligi, javobgarlikni his qilishi, ijodkorligi eruditsiyasi va h.k.) fazilatlarining yig'indisi hisoblanib, u pedagogik-psixologik, usuliy tayyorgarligida, bolalarni tarbiyalashning optimal yo'llarini izlab topishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun tarbiyachining kasbiy mahorat, bilimdonligi, zukkoligi, ijodkorligi bilan birga shaxsiy sifatlarni ham takomillashtirishni ham taqozo qiladi.

Hozirgi zamон pedagogi fan va texnika taraqqiyotining eng so'nggi yutuqlaridan foydalanishi, o'z kasbiy faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarni unumli qo'llay olishi taqozo etiladi.

Shu sababli tarbiyachi-pedagoglarning ish faoliyatini yanada yuksaltirish, kasbiy mahoratlarini va kreativligini oshirish asosiy vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Kreativlik o'zi nima degan savol tug'iladi? Kreativlik (lot., ing. "create" yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) - individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyatni ma'nosini ifodalaydi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Ko'pgina tarbiyachilar o'zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin:

- birinchidan, aksariyat tarbiyachilar ham aslida "kreativlik" tushunchasi qanday ma'noni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar;

- ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar.

Ma'lumki, kreativlik – shaxsning akmeologik darajadagi faoliyat bosqichi bo'lib, bu qo'yilgan masala yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon qilish, o'zgalarning fikrlarini ijodiy qayta idrok etish, refleksiya, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lishga tayanadi. Shaxs kreativ faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini bilish mayllari, ehtiyojlari, faolligi, mustaqillik, tashabbuskorlik, nostandard tafakkur, improvizasiya kabilar tashkil etib, ular bevosita shaxsning yo'nalganligi va kreativ qobiliyatları bilan uyg'unlashadi. Oliy ta'lim muassalaridagi ta'lim jarayonining asosiy vazifasi esa, shaxsning mana shu ehtiyojlarini ta'minlash

uchun zarur pedagogik shart-sharoitni yaratish va samarali metodik ta'minotni vujudga keltirishdan iborat.

### **MUHOKAVA VA NATIJALAR**

Interfaol ta'lim jarayonini tashkil etishga qaratilgan pedagogik faoliyat quyidagilar bilan bevosita boliqdir:

- ta'lim oluvchilarni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayoniga maxsus tayyorlash;
- mahsuldor ta'lim muhitini tashkil etish;
- muayyan o'quv predmetlari bo'yicha mahsuldor o'quv materiallari va didaktik topshiriqlartizimini tanlash va loyihalashtirish kabilar.

Interfaol ta'lim nazariyasi o'zida kompetentlilikka asoslangan yondashuv hamda loyihiachilikka yo'naltirilgan muammoli ta'lim paradigmalarini mujassamlashtiradi. Interfaol ta'lim nazariyasidagi mazkur yondashuvlar va texnologiyalar ta'lim oluvchilarda kreativ tafakkurning turli shakllarini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovasion yondoshuvlardan biri ekanligi bilan tavsiflanadi.

Innovasiya - yangilik tushunchasini ifodalab, ta'lim jarayoniga yangiliklarni kiritish va uni o'zgartirish demakdir. Innovasiyalar pedagogik vosita va jarayon sifatida o'quv jarayoniga mashg`ulotlarda, yangiliklar kiritishni taqozo qiladi. Pedagogik jarayonda qo'llaniladigan yangiliklar, uning maqsadi, mazmuni, metodlari va shakllari, o'qituvchi hamda ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatlarini tashkil etish usullarini o'zgartirishni talab qiladi. Buning uchun, oliy pedagogik ta'lim jarayonida yangiliklarni qo'llash va ijod qilishga yo'naltirilgan muayyan pedagogik muhitni tashkillashtirish lozim.

Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida tarbiyachilarning kreativ tafakkurga ega bo'lislari ularda ijodiy muhitning qanchalik tarkib toptirilganligiga bog'liq. Ma'lumki, tarbiyachilar kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida quyidagi yo'nalishlarda bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lislari zarur:

kreativ faoliyatga nisbatan motivasiyaning qaror topganligi; kreativlik sifatlari; kreativ fikrlash ko'nikmalar; amaliy kreativ faoliyat jarayonini tashkil etish malakalari, xususan, ixtissoslashgan (pedagogik) kreativlikni ta'minlovchi malakalar.

Jumladan, kreativ faoliyatga nisbatan motivasiyaning qaror topganligi ulardag'i:

- kreativlik tushunchasining mazmun-mohiyatini, shaxs kreativligining ijtimoiypedagogik zararuatini anglash va to'g'ri baholay olish;

- o'ziga nisbatan ishonch, o'z-o'zini kasbiy va shaxsiy rivojlantirish ehtiyojining qaror topganligi;

- kreativ faoliyatga yo'nalganlik, jamiyatda va kasbiy faoliyatda o'zining mustahkam pozisiyasiga ega bo'lish istagining mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Tarbiyachilarning kreativlik sifatlari qo`ydagilar orqali namoyon bo`ladi:

- shaxsiy-ijodiy yo'nalganlik;
- tavakkalchilikka moyillik;
- fantaziya va ijodiy tasavvurning yuqoriligi;
- mustaqillik;
- murakkab kasbiy vazifalarni hal etishdagi nostandard tafakkur tarzi;
- intelekt darajasi(IQ);
- erudisiya, intuisiya;
- refleksiya;
- tafakkur tezligi, fikrlash ravnligi;
- moslashuvchanlik;
- o'ziga xos (orginal) fikrlar, g'oyalarni ilgari sura olish bilan asoslanadi.

### **XULOSA**

Tarbiyachilarning kerativ fikrlash ko'nikmalari ulardagি kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda harakatga keltiruvchi kuch sanaladi. Aynan mazkur ko'nikmalar ijodiy faollik, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat uchun yo'naltira olish, nosantdart tafakkur tarzini shakllantira olish, muammolarga nisbatan sezgirlik, intelektual qobiliyatlar, hissiy jihatdan erkin va ijobiy fikrlar, konstruktivlik, innovasiyalar transformasiyasi bilan bog'liq divergent tafakkur tarzining shakllanishiga xizmat qiladi.

### **REFERENCES**

1. Ma'murov B.B. O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari. Ped. fan. nom.dis. Avtoreferati.– Toshkent:2009. – 26 b
2. Mahkamova M.Yu. Bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqotmadaniyatini shakllantirish: Ped.fanl.nomz. ... diss. Avtoref. – T.: 1999. – 22 b.
3. Nishonaliev U. Innovasionnie pedagogicheskie texnologii obucheniya i razvitiya. – V SB. materialov nauchno-prakticheskoy konferentsii "Aktualnie Voprosi professionalnogo vospitaniya molodeji". – Alma-Ata: Resp. izdat. kab. kazaxsk. akad. obrazovaniya im. I.Altinsarina, 2000. – S. 235-240.

## ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОРОШЕНИЯ ОВОЩНЫХ КУЛЬТУР С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

*Пирманова С.М.<sup>1</sup>, Кузиев Ж.М.<sup>1</sup>, Ким В.В.<sup>2</sup>*

*Институт почвоведения и агрохимических исследований<sup>1</sup>*

*Институт генетики и экспериментальной биологии растений Академии наук Республики Узбекистан<sup>2</sup>*

### Аннотация

В связи с ежегодными возрастающими потребностями населения земли в обеспечении качественной и свежей продукции овощных культур для обеспечения необходимого сбалансированного питания, высокая урожайность овощных культур, может быть достигнута за счет внедрения современных технологий. В данной статье приведена информация о необходимости своевременного полива овощных культур учитывая их потребность в воде, которая имеет прямое влияние на урожайность.

**Ключевые слова:** дождевальный полив, дождевание, овощные культуры, урожайность, продуктивность.

Сегодня ежегодный прирост численности населения повышает позиции и значение аграрного сектора. Следовательно, единственный способ обеспечить население продуктами питания – это внедрение в сельское хозяйство современных и ресурсосберегающих агротехнологий, позволяющих продуктивно и эффективно использовать каждый гектар.

Это касается всей нашей земли. Необходимо разумно использовать имеющиеся природные ресурсы и их возможности, обеспечивать население сельскохозяйственной продукцией, стараться еще больше повышать продуктивность каждого гектара и повышать интересы землепользователей, благодаря новым технологиям и достижениям науки. Среди отраслей сельского хозяйства особое значение имеет овощеводство, выращивание которого возможно на открытых и закрытых грунтах [5, 6].

Почвенно-климатические условия Узбекистана чрезвычайно благоприятны, что позволяет получать высокие урожаи разнообразной овощной продукции. Овощи являются богатым источником необходимых витаминов и минералов для человеческого организма в течении курглого года.

Одним из важных факторов интенсивного развития овощеводства в нашей республике является организация полива и удобрения посевов с грамотным подходом на научной основе. Поэтому важно знать удобные режимы, способы полива и удобрения для овощей и картофеля в период всей вегетации. Роль

орошения и удобрения овощных культур в развитии современных агротехнологий чрезвычайно важна.

Сельскохозяйственные культуры, в том числе овощные, могут поглощать влагу из почвы только тогда, когда корни соприкасаются с водой, достаточной в почве. Поскольку почва представляет собой сложную много-дисперсную систему, вода в ней запасается в различных состояниях - в виде отдельных или связанных капилляров, на поверхности твердых или пористых почвенных частиц, в зависимости от механического, агрегатного и микро-агрегатного состава, а также как и водно-физические, накопление и перемещение почвенной влаги имеет разную мощность и скорость.

По мнению специалистов, одним из наиболее перспективных и эффективных способов орошения сельскохозяйственных культур является дождевание, которое обеспечивает почву влагой и питательными веществами и регулирует микроклимат орошаемой территории [1, 3, 4].

Ученые, Зуев В.И., Азимов Б.Ж., Умаров Х. [2] утверждают, что для получения высокого урожая овощных культур дождевое орошение в несколько раз эффективнее традиционного орошения, и это особенно важно в связи с высокой возможностью экономии ресурсов.

Maktabgacha ta`lim tashkilotini boshqarish, rejalashtirish va tashkil qilish ishini bajarish tufayli ta`lim tashkiloti jamoasi a'zolarining kuch-g`ayratini samarali birlashtirish uchun zarur, ammo yetarli bo'limgan shart-sharoit yaratiladi. Amaliyotdan shu narsa ma'lumki, odamlar real bajarayotgan ishlar ularga qo'yilayotgan rasmiy talablarga har doim ham mos kelavermaydi. Ijtimoiy tashkilotlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularga kiruvchi odamlar o'z sabablariga ega bo'lgan holda, o'z oldilariga o'zları maqsad qo'yishga qodirdirlar. Ular nimanidir qilishni xohlashlari va xohlamasliklari va shunga qarab ishlashlari mumkin. Odamlar tashkilotga kelgach, u o'zlarining manfaatlarini amalga oshirish imkonini berishini xohlashadi. Bu hol yuz bermasa, ular yo tashkilotdan ketadilar yoki salohiyatlari va iqtidorlarini ishga to'liq safarbar etmaydilar.

Birgalikdagi faoliyat yaxshi rejalashtirilgan va uyushtirilgan bo'lsa, ijrochilar bu jarayonga tuzatish kiritishni talab qiladigan qandaydir ichki va tashqi shart-sharoit o'zgarmagunga qadar nimani, qaerda va qay yo'sinda bajarishlarini bilishgandagina u muvaffaqiyatli kechadi. Bu o'zgarishlar rejalashtirilgan harakatlarni amalga oshirish uchun xavf tuxdirishi yoki, aksincha, qandaydir yangi imkoniyatlarni ochishi mumkin.

Boshqaruv yuz berayotgan o'zgarishlarga o'z vaqtida munosabat bildirishi, buning uchun esa bu haqda axborotga ega bo'lishi lozim. Bunday axborotni olish va ishning borishiga tuzatish kiritish zarurligini aniqlash uchun nazorat qilish deb ataladigan maxsus boshqaruv harakatini amalga oshirish zarur.

Boshqaruv nazorat tufayli o'zi usiz faoliyat yuritmaydigan eng muhim tarkibiy qism — qayta aloqaga ega bo'ladi. Nazorat boshqaruvning «ko'zini ravshan» va o'zgarishlarga nisbatan ta'sirchan qiladi. Ushbu o'zgarishlarga munosabat esa rejalashtirish, tashkil etish va rahbarlik qilish orqali amalga oshiriladi. Natijada boshqaruv davrasi yopiq holga keladi.

Rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik qilish va nazorat qilish murakkab tuzilmaga ega bo'lib, o'zi ham ko'plab boshqa ishlardan tashkil topadi. Masalan, u rejalashtirish, vaziyatni tahlil etish, prognozlash, maqsad qo'yish, samaradorlikni baholash, ish rejasining biron-bir variantini tanlash haqida qaror qabul qilish kabilarni o'z ichiga olishi mumkin. Rahbarlik qilish qo'l ostidagi xodimlarga topshiriqlar berish, jamoa ahvolini tahlil qilish, qo'l ostidagi xodimlarning ishini baholash, taqdirlash va jazolash haqida qarorlar qabul qilish, xodimlarni xabardor qilish, nizoli vaziyatlarni hal qilishni va h. k. ko'zda tutadi.

Ta'lim tashkilotini boshqarishda bitta emas, balki ko'plab boshqaruv turkumlari amalga oshiriladi. Bu turkumlar ierarxik tuzilmaga ega — xususiy turkumlar nisbatan umumiylari tarkibiga kiradi. Masalan, ta'lim tashkilotida o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishning umumiy turkumida boshlanQich va umumiy o'rta ta'limni rejalashtirish, tashkil etish, unga rahbarlik va uni nazorat etish turkumlari ajratib ko'rsatiladi. Bu turkumlar ham, o'z navbatida, murakkab tuzilmaga ega. Masalan, boshlang'ich ta'limni boshqarish turkumi ichida va ayrim sinflar, predmetlarni o'rganishni rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik qilish, nazorat qilish turkumlari ajratiladi.

Boshqaruv jarayonida, ayni paytda, turli boshqaruv turkumlari ishi amalga oshiriladi. Kimdir mashg'ulotlar jadvaliga tuzatishlar kiritishi, kimdir o'qituvchining ishini nazorat qilib borishi, yana kimdir pedagogika kengashining ish rejasini muhokama qilishi mumkin. Bu boshqaruv turkumlarini nafaqat bexabar kuzatuvchi uchun, balki aksariyat boshqaruv sub'ektlari uchun ham nooshkor holga keltiradi. Ammo boshqaruv faoliyatining yaxlitligi uchun javob beruvchi ta'lim tashkiloti rahbari ushbu turkumlarni tuzib, ularning har birini kuzatib borishi kerak.

Rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik va nazorat qilish hokimiyat munosabatlarini amalga oshirishi tufayli boshqaruv ishi deb hisoblanadi.

Samaradorlik tushunchasi, garchi ijtimoiy munosabatlar jarayonida ko'p qo'llanilsa-da, boshqaruv nazariyasida eng kam ishlangan tushunchalardan biridir. Samaradorlikning umumiy nazariyasi mavjud bo'limganligi bois ushbu yo'nalishdagi

barcha urinishlar hozircha kutilgan natijaga olib kelmadı. Faoliyatning turli sohalarida samaradorlikning o’z xususiy ko’rsatkichlaridan foydalaniladi. Ammo ta’limda bugungi kunda bunday ko’rsatkichlar yo’q. Shunga qaramay, samaradorlik tushunchasi sifatga yo’naltirishda juda muhim va foydalidir. Vazifaning butun murakkabligini anglagan holda, boshqaruv samaradorligi nima ekanligini aniqlashga urinib ko’ramiz.

Samaradorlik haqida gapirishdan oldin faoliyat unumidorligi tushunchasini kiritamiz. O’ar qanday faoliyat ozmi-ko’pmi unumli bo’ladi. Unumidorlik — bu qandaydir vaqt ichida olingen natijalarning foydaliligi va u bilan bog`liq xarajatlar o’rtasidagi nisbatni ko’rsatuvchi faoliyat xususiyati demakdir.

Unumidorlikdan ko’pincha boshqaruv samaradorligi ko’rsatkichi sifatida foydalaniladi. Garchi faoliyat unumidorligi bilan boshqaruv samaradorligi bir-biriga bog`liqligi shubhasiz bo’lsa-da, biroq ular bitta narsa emas. Ta’limning boshqa ta’lim tashkilotiga nisbatan yuqoriroq natijalari ushbu ta’lim tashkilotida boshqaruv sifati yuqori bo’lishidan har doim ham dalolat beravermaydi.

Masalan, ta’lim tashkiloti ajoyib moddiy bazaga ega bo’lsa, moliyalashtirishning qo’shimcha manbalari hisobiga o’qituvchilarga boshqa ta’lim tashkilotlaridagiga nisbatan yuqoriroq ish haqi to’lay olsa, ushbu barcha ne’matlardan mahrum bo’lgan oddiy ta’lim tashkilotidagiga qaraganda ta’lim sifati yuqoriroq bo’lishini ta’milashi mumkin. Lekin masala har bir ta’lim tashkiloti o’zida mavjud imkoniyatlardan nechog`li yaxshi foydalanayotganligidadir.

Boshqaruv sifatini baholash aynan shu savolga beriladigan javobga boQliq. Boshqaruv o’z vazifasiga ko’ra foydali natija olish uchun imkoniyatlardan to’liq foydalanishni ta’milashi kerak. Ushbu vazifani qanchalik yaxshi uddalasa, u shunchalik samarador bo’ladi.

Boshqaruv samaradorligi deganda erishilgan va erishish mumkin bo’lgan unumidorlik o’rtasidagi munosabatni aks ettiruvchi xususiyatni tushunamiz.

Bunday ta’rifni faoliyat ko’rsatishni boshqarishga nisbatan ham, rivojlanishni boshqarishga nisbatan ham ishlatsa bo’ladi. Lekin bu holatlarning har birida turli natijalar va turli xarajatlar hisobga olinishi kerak. Ta’lim tashkiloti o’zi uchun ta’lim sifati iloji boricha yuqori darajada bo’lishini ta’milay oladi (bu yuqori samaradorlik hamda faoliyat yuritishni boshqarishdan dalolat berishi mumkin), ammo ayni paytda u yangiliklarni o’zlashtirish va o’zining salohiyatini kuchaytirish uchun ob’ektiv tarzda ta’limning mavjud imkoniyatlaridan foydalanmasligi mumkin. Bu ta’lim tashkilotini rivojlantirishni boshqarish samaradorligi pastligidan dalolat beradi.

Ta’lim sifati ta’lim oluvchi yoshlarning xabardorligini rivojlantirishni ta’milaydigan ta’lim faoliyatining turli jihatlarini, o’qitish mazmuni, shakllari va metodlarini, moddiy-texnika bazasini, kadrlar tarkibini va h. k. tavsiflovchi ko’rsatkichlar yig`indisi bilan belgilanadi.

«Bilimdonlik» («xabardorlik») termini menejmentda keng qo'llaniladi. Ammo uni ta'lim tizimida ishlatish u qadar ommalashmagan. O'quvchilar va talabalarga nimani berish maqsad qilib qo'yilganligini aniqlash uchun ko'pincha bilim, qadriyat yoki ishonch va e'tiqod tushunchalaridan foydalanib kelingan va hozir ham shulardan foydalanilmoqda.

## REFERENCES

1. Камилова Г. А., Курбанова Г. Р., Джаббарова С. З. Особенности формирования педагогических навыков у воспитателей дошкольно-образовательных учреждений //Academy. – 2020. – №. 5 (56). – С. 25-27.
2. Kamilova G. Maktabgacha talim muassasalarida ekologik tarbiyani tashkil etishda integrativ yondashuv //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
3. Olimovna K. G. The importance of the criteria of pedagogical technologies at training highly qualified personnel //Достижения науки и образования. – 2017. – №. 5 (18).
4. Камилова Г. А., Тураева О. С. ФОРМИРОВАНИЕ ДИАГНОСТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ //Проблемы науки. – 2021. – С. 50.
5. Eshova S. D., Rajabova K. I. Organization of didactic games for preschoolers.
6. Rajabova I. Ossobennosti organizatsii i provedeniya didakticheskix igr s detmi starshego doshkolnogo vozrasta //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
7. Xamidovna R. I. Play as a means of developing the creative abilities of Preschool Children //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 10.
8. Rajabova I. Ossobennosti organizatsii i provedeniya didakticheskix igr s detmi starshego doshkolnogo vozrasta //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
9. Хамроева Н. А. МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ РЕЧИ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ //Проблемы науки. – 2021. – №. 3 (62). С. 74-76.
10. Хамроева Н. А., Назарова Д. Ж. Особенности речевого развития детей старшего дошкольного возраста //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 1-5. – С. 37.
11. ХАМРОЕВА Н. А. преподаватель кафедры дошкольного образования, факультет дошкольного и начального обучения //Бухарский государственный университет, Узбекистан.
12. Supkhonovna H. N. Technology for the development of the qualities of pedagogical competence in future teachers //ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH. – 2021. – Т. 10. – №. 5. – С. 372-382.
13. To'raqulovich J. U., Supxonovna H. N. Ways to shape a healthy lifestyle in the family of preschool children //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 11.

14. Хакимова Н. С., Хабибова Г. Г. АВЛОНИ-ПРОСВЕТИТЕЛЬ, ПЕДАГОГ И РЕФОРМАТОР ШКОЛЫ //Вопросы науки и образования. – С. 34.
15. Umarova G. Bolalarning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishda matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg'ulotlarining ahamiyati //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
16. Sharipova I. F., Umarova G. U. Some methods for calculating limits //Journal: JOURNAL OF ADVANCES IN MATHEMATICS. – Т. 10. – №. 7.
17. Nurulloyev F. Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarini axloqiy tarbiyalash //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
18. Nurulloyev F. Oilada sog'lom, ma'naviy-axloqiy muhit //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 5. – №. 5.
19. Nurulloyev F. Maktabgacha yoshdagi bolalarda oilaga nisbatan hurmat munosabatini hakllantirish //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
20. Жабборова С. З. Особенности труда в дошкольном возрасте //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).
21. Джаббарова С. З. ЭТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ ЧЕРЕЗ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ЦЕННОСТИ //Проблемы науки. – 2021. – С. 61.
22. Jabborova S. Z. Forms, methods and ways of moral education of children in the family by means of national values //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 3. – С. 820-823.
23. Zarafshon J. Мактабгача таълимда жисмоний тарбияни шакллантириш методлари //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
24. Jalilov Z. B. Educational Value in Works of Eastern Thinkers and Principles of Their Use //Eastern European Scientific Journal. – 2017. – №. 1.
25. Zarafshon J. Мактабгача таълимда жисмоний тарбияни шакллантириш методлари //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)
26. Zarafshon J. МАКТАБГАЧА TA'LIMNING SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK JARAYONNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
27. Zarafshon J. МАКТАБГАЧА TA'LIMDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYACHINING ROLI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1. Asadovna U. F., Baxshilloyevich Z. J. METHODOLOGICAL SUPPORT FOR EXTRA-CLASS ACTIVITIES OF A STUDENT //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 1. – С. 321-325.
28. Жалилов З. Воспитание студентов в духе национальных ценностей //International scientific review. – 2016. – №. 2 (12).
29. Мирзаева, Дильтуза Шавкатовна, and Зулайко Бахтиоровна Кенжаева. "Значение использования интерактивных методов в развитии дошкольного образования." Academy 5 (56) (2020): 57-59.

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARINING BOSHQARUV  
KOMPETENSIYALARINING ILMIY NAZARIY ASOSLARI**

*Axmadjonova Diloraxon Abdulazizovna*

*Toshkent viloyati, Chirchiq davlat pedagogika instituti*

*Ta'lim muassasining boshqaruv yo'nalishi 2-kurs magistiranti*

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta`lim tashkilotlarini boshqarish va rejalashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalardan sanaladi. Maqolada boshqarishning yangi usullari to`grisida fikrlar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** boshqarish, rejalashtirish, tashkilot, faoliyat, imkoniyat, xususiy turkumlar, tashkil etish, rahbarlik qilish, nazorat qilish, samaradorlik, ta'lim sifati, bilimdonlik, xabardorlik.

**Abstract:** Management and planning of preschool education today is one of the most important tasks. The article proposes ideas for new management methods.

**Keywords:** management, planning, organization, activity, opportunity, private categories, organization, leadership, control, efficiency, quality of education, knowledge, awareness.

Maktabgacha ta`lim tashkilotini boshqarish, rejalashtirish va tashkil qilish ishini bajarish tufayli ta`lim tashkiloti jamoasi a'zolarining kuch-g`ayratini samarali birlashtirish uchun zarur, ammo yetarli bo'limgan shart-sharoit yaratiladi. Amaliyotdan shu narsa ma'lumki, odamlar real bajarayotgan ishlar ularga qo'yilayotgan rasmiy talablarga har doim ham mos kelavermaydi. Ijtimoiy tashkilotlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularga kiruvchi odamlar o'z sabablariga ega bo'lgan holda, o'z oldilariga o'zlari maqsad qo'yishga qodirdirlar. Ular nimanidir qilishni xohlashlari va xohlamasliklari va shunga qarab ishlashlari mumkin. Odamlar tashkilotga kelgach, u o'zlarining manfaatlarini amalga oshirish imkonini berishini xohlashadi. Bu hol yuz bermasa, ular yo tashkilotdan ketadilar yoki salohiyatlari va iqtidorlarini ishga to'liq safarbar etmaydilar.

Birgalikdagi faoliyat yaxshi rejalashtirilgan va uyushtirilgan bo'lsa, ijrochilar bu jarayonga tuzatish kiritishni talab qiladigan qandaydir ichki va tashqi shart-sharoit o'zgarmagunga qadar nimani, qaerda va qay yo'sinda bajarishlarini bilishgandagina u muvaffaqiyatli kechadi. Bu o'zgarishlar rejalashtirilgan harakatlarni amalga oshirish uchun xavf tuxdirishi yoki, aksincha, qandaydir yangi imkoniyatlarni ochishi mumkin. Boshqaruv yuz berayotgan o'zgarishlarga o'z vaqtida munosabat bildirishi, buning uchun esa bu haqda axborotga ega bo'lishi lozim. Bunday axborotni olish va ishning

borishiga tuzatish kiritish zarurligini aniqlash uchun nazorat qilish deb ataladigan maxsus boshqaruv harakatini amalga oshirish zarur.

Boshqaruv nazorat tufayli o’zi usiz faoliyat yuritmaydigan eng muhim tarkibiy qism — qayta aloqaga ega bo’ladi. Nazorat boshqaruvning «ko’zini ravshan» va o’zgarishlarga nisbatan ta’sirchan qiladi. Ushbu o’zgarishlarga munosabat esa rejalashtirish, tashkil etish va rahbarlik qilish orqali amalga oshiriladi. Natijada boshqaruv davrsasi yopiq holga keladi.

Rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik qilish va nazorat qilish murakkab tuzilmaga ega bo’lib, o’zi ham ko’plab boshqa ishlardan tashkil topadi. Masalan, u rejalashtirish, vaziyatni tahlil etish, prognozlash, maqsad qo’yish, samaradorlikni baholash, ish rejasining biron-bir variantini tanlash haqida qaror qabul qilish kabilarni o’z ichiga olishi mumkin. Rahbarlik qilish qo’l ostidagi xodimlarga topshiriqlar berish, jamoa ahvolini tahlil qilish, qo’l ostidagi xodimlarning ishini baholash, taqdirlash va jazolash haqida qarorlar qabul qilish, xodimlarni xabardor qilish, nizoli vaziyatlarni hal qilishni va h. k. ko’zda tutadi.

Ta’lim tashkilotini boshqarishda bitta emas, balki ko’plab boshqaruv turkumlari amalga oshiriladi. Bu turkumlar ierarxik tuzilmaga ega — xususiy turkumlar nisbatan umumiylari tarkibiga kiradi. Masalan, ta’lim tashkilotida o’quv-tarbiya jarayonini boshqarishning umumiylarini turkumida boshlanQich va umumiylarini o’rta ta’limni rejalashtirish, tashkil etish, unga rahbarlik va uni nazorat etish turkumlari ajratib ko’rsatiladi. Bu turkumlar ham, o’z navbatida, murakkab tuzilmaga ega. Masalan, boshlang’ich ta’limni boshqarish turkumi ichida va ayrim sinflar, predmetlarni o’rganishni rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik qilish, nazorat qilish turkumlari ajratiladi.

Boshqaruv jarayonida, ayni paytda, turli boshqaruv turkumlari ishi amalga oshiriladi. Kimdir mashg’ulotlar jadvaliga tuzatishlar kiritishi, kimdir o’qituvchining ishini nazorat qilib borishi, yana kimdir pedagogika kengashining ish rejasini muhokama qilishi mumkin. Bu boshqaruv turkumlarini nafaqat bexabar kuzatuvchi uchun, balki aksariyat boshqaruv sub’ektlari uchun ham nooshkor holga keltiradi. Ammo boshqaruv faoliyatining yaxlitligi uchun javob beruvchi ta’lim tashkiloti rahbari ushbu turkumlarni tuzib, ularning har birini kuzatib borishi kerak.

Rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik va nazorat qilish hokimiyyat munosabatlarini amalga oshirishi tufayli boshqaruv ishi deb hisoblanadi.

Samaradorlik tushunchasi, garchi ijtimoiy munosabatlar jarayonida ko’p qo’llanilsa-da, boshqaruv nazariyasida eng kam ishlangan tushunchalardan biridir. Samaradorlikning umumiylarini mavjud bo’lmaganligi bois ushbu yo’nalishdagi barcha urinishlar hozircha kutilgan natijaga olib kelmadi. Faoliyatning turli sohalarida samaradorlikning o’z xususiy ko’rsatkichlaridan foydalilanildi. Ammo ta’limda bugungi kunda bunday ko’rsatkichlar yo’q. Shunga qaramay, samaradorlik tushunchasi

sifatga yo'naltirishda juda muhim va foydalidir. Vazifaning butun murakkabligini anglagan holda, boshqaruv samaradorligi nima ekanligini aniqlashga urinib ko'ramiz.

Samaradorlik haqida gapishtidan oldin faoliyat unumidorligi tushunchasini kiritamiz. O'ar qanday faoliyat ozmi-ko'pmi unumli bo'ladi. Unumidorlik — bu qandaydir vaqt ichida olingan natijalarning foydaliligi va u bilan bog`liq xarajatlar o'rtasidagi nisbatni ko'rsatuvchi faoliyat xususiyati demakdir.

Unumidorlikdan ko'pincha boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichi sifatida foydalaniladi. Garchi faoliyat unumidorligi bilan boshqaruv samaradorligi bir-biriga bog'liqligi shubhasiz bo'lsa-da, biroq ular bitta narsa emas. Ta'limning boshqa ta'lim tashkilotiga nisbatan yuqoriroq natijalari ushbu ta'lim tashkilotida boshqaruv sifati yuqori bo'lishidan har doim ham dalolat beravermaydi.

Masalan, ta'lim tashkiloti ajoyib moddiy bazaga ega bo'lsa, moliyalashtirishning qo'shimcha manbalari hisobiga o'qituvchilarga boshqa ta'lim tashkilotlaridagiga nisbatan yuqoriroq ish haqi to'lay olsa, ushbu barcha ne'matlardan mahrum bo'lgan oddiy ta'lim tashkilotidagiga qaraganda ta'lim sifati yuqoriroq bo'lishini ta'minlashi mumkin. Lekin masala har bir ta'lim tashkiloti o'zida mavjud imkoniyatlardan nechog`li yaxshi foydalanayotganlidadir.

Boshqaruv sifatini baholash aynan shu savolga beriladigan javobga boQliq. Boshqaruv o'z vazifasiga ko'ra foydali natija olish uchun imkoniyatlardan to'liq foydalanishni ta'minlashi kerak. Ushbu vazifani qanchalik yaxshi uddalasa, u shunchalik samarador bo'ladi.

Boshqaruv samaradorligi deganda erishilgan va erishish mumkin bo'lgan unumidorlik o'rtasidagi munosabatni aks ettiruvchi xususiyatni tushunamiz.

Bunday ta'rifni faoliyat ko'rsatishni boshqarishga nisbatan ham, rivojlanishni boshqarishga nisbatan ham ishlatsa bo'ladi. Lekin bu holatlarning har birida turli natijalar va turli xarajatlar hisobga olinishi kerak. Ta'lim tashkiloti o'zi uchun ta'lim sifati iloji boricha yuqori darajada bo'lishini ta'minlay oladi (bu yuqori samaradorlik hamda faoliyat yuritishni boshqarishdan dalolat berishi mumkin), ammo ayni paytda u yangiliklarni o'zlashtirish va o'zining salohiyatini kuchaytirish uchun ob'ektiv tarzda ta'limning mavjud imkoniyatlaridan foydalanmasligi mumkin. Bu ta'lim tashkilotini rivojlantirishni boshqarish samaradorligi pastligidan dalolat beradi.

Ta'lim sifati ta'lim oluvchi yoshlarning xabardorligini rivojlantirishni ta'minlaydigan ta'lim faoliyatining turli jihatlarini, o'qitish mazmuni, shakllari va metodlarini, moddiy-texnika bazasini, kadrlar tarkibini va h. k. tavsiflovchi ko'rsatkichlar yig`indisi bilan belgilanadi.

«Bilimdonlik» («xabardorlik») termini menejmentda keng qo'llaniladi. Ammo uni ta'lim tizimida ishlatish u qadar ommalashmagan. O'quvchilar va talabalarga nimani berish maqsad qilib qo'yilganligini aniqlash uchun ko'pincha bilim, qadriyat

yoki ishonch va e'tiqod tushunchalaridan foydalanib kelingan va hozir ham shulardan foydalanimoqda.

## REFERENCES

1. Камилова Г. А., Курбанова Г. Р., Джаббарова С. З. Особенности формирования педагогических навыков у воспитателей дошкольно-образовательных учреждений //Academy. – 2020. – №. 5 (56). – С. 25-27.
2. Kamilova G. Maktabgacha talim muassasalarida ekologik tarbiyani tashkil etishda integrativ yondashuv //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (бuxdu.uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
3. Olimovna K. G. The importance of the criteria of pedagogical technologies at training highly qualified personnel //Достижения науки и образования. – 2017. – №. 5 (18).
4. Камилова Г. А., Тураева О. С. ФОРМИРОВАНИЕ ДИАГНОСТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ //Проблемы науки. – 2021. – С. 50.
5. Eshova S. D., Rajabova K. I. Organization of didactic games for preschoolers.
6. Rajabova I. Ossobennosti organizatsii i provedeniya didakticheskix igr s detmi starshego doshkolnogo vozrasta //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
7. Xamidovna R. I. Play as a means of developing the creative abilities of Preschool Children //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 10.
8. Rajabova I. Ossobennosti organizatsii i provedeniya didakticheskix igr s detmi starshego doshkolnogo vozrasta //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
9. Хамроева Н. А. МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ РЕЧИ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ //Проблемы науки. – 2021. – №. 3 (62). – С. 74-76.
10. Хамроева Н. А., Назарова Д. Ж. Особенности речевого развития детей старшего дошкольного возраста //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 1-5. – С. 37.
11. ХАМРОЕВА Н. А. преподаватель кафедры дошкольного образования, факультет дошкольного и начального обучения //Бухарский государственный университет, Узбекистан.
12. Supkhonovna H. N. Technology for the development of the qualities of pedagogical competence in future teachers //ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH. – 2021. – Т. 10. – №. 5. – С. 372-382.
13. To'raqulovich J. U., Supxonovna H. N. Ways to shape a healthy lifestyle in the family of preschool children //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 11.
14. Хакимова Н. С., Хабибова Г. Г. АВЛОНИ-ПРОСВЕТИТЕЛЬ, ПЕДАГОГ И РЕФОРМАТОР ШКОЛЫ //Вопросы науки и образования. – С. 34.

15. Umarova G. Bolalarning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishda matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg'ulotlarining ahamiyati //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
16. Sharipova I. F., Umarova G. U. Some methods for calculating limits //Journal: JOURNAL OF ADVANCES IN MATHEMATICS. – Т. 10. – №. 7.
17. Nurulloev F. Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarini axloqiy tarbiyalash //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
18. Nurulloev F. Oilada sog'lom, ma'naviy-axloqiy muhit //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 5. – №. 5.
19. Nurulloev F. Maktabgacha yoshdagi bolalarda oilaga nisbatan hurmat munosabatini hakllantirish //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
20. Жабборова С. З. Особенности труда в дошкольном возрасте //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).
21. Джаббарова С. З. ЭТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ ЧЕРЕЗ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ЦЕННОСТИ //Проблемы науки. – 2021. – С. 61.
22. Jabborova S. Z. Forms, methods and ways of moral education of children in the family by means of national values //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 3. – С. 820-823.
23. Zarafshon J. Мактабгача таълимда жисмоний тарбияни шакллантириш методлари //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
24. Jalilov Z. B. Educational Value in Works of Eastern Thinkers and Principles of Their Use //Eastern European Scientific Journal. – 2017. – №. 1.
25. Zarafshon J. Мактабгача таълимда жисмоний тарбияни шакллантириш методлари //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)
26. Zarafshon J. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМНИНГ СИФАТ VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK JARAYONNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
27. Zarafshon J. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМДА IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYACHINING ROLI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
28. Asadovna U. F., Baxshilloyevich Z. J. METHODOLOGICAL SUPPORT FOR EXTRA-CLASS ACTIVITIES OF A STUDENT //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 1. – С. 321-325.
29. Жалилов З. Воспитание студентов в духе национальных ценностей //International scientific review. – 2016. – №. 2 (12).
30. Мирзаева, Дильтуза Шавкатовна, and Зулайко Бахтиоровна Кенжаева. "Значение использования интерактивных методов в развитии дошкольного образования." Academy 5 (56) (2020): 57-59.

MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH MILLAT TARAQIYOTINING POYDEVORI

Tojiboev Abdug'ani Abdumalikovich

Toshkent viloyati Zangiota tumani

"Toshkent Tibbiyot Akademiyasi" akademik litseyi

Bosh o'qituvchisi

**Anotatsiya:** Ushbu maqolamda Milliy o'zlikni anglash Millat taraqiyotida uning tutgan o'rni va maqsad vazifalari, ajdodlarimizning bizga qoldirgan madaniy va ma'naviy meroslarining o'zlikni anglashdagi moxiyati va yosh avlod tarbiyasida vatanga muxabbatni shakilantirish asosiy omill bo'lib qaralishi xaqida muloxaza qilamiz.

**Tayanch so'zlar:** O'zlikni anglash, Milliy o'zlikni anglash, ajdodlar merosi, millat taraqiyoti, tarixiy xotira, yoshlар ongida milliy o'likni shakilantirish, milliy ong, milliy g'urur, milliy his, milliy iftixor, milliy xarakter.

UNDERSTANDING NATIONAL IDENTITY IS THE BASIS OF NATIONAL DEVELOPMENT

**Abstract:** In this article, we discuss the role and purpose of national identity in the development of the nation, the essence of the cultural and spiritual heritage of our ancestors and the formation of love for the motherland in the upbringing of the younger generation.

**Keywords:** Awareness of identity, National identity, ancestral heritage, national development, historical memory, the formation of national identity in the minds of young people, national consciousness, national pride, national feeling, national pride, national character.

KIRISH

Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti o`z-o`zini anglash, eng avvalo, insoniy mavjudlikning mohiyatini ma`naviy voqelik, sha`ni, qadr-qimmat, obro`-e`tibor, ornomus orqali namoyon bo`lishini ko`rsatadi Hayotning ma`no-mazmunini, maqsadini tushinib etish, o'zlikni ,anglashdan boshlanadi. Milliy g'oyada uning negizlari mujassam bo`lganligi uchun ham o'zlikni anglashga xizmat qiladi va bir-biri bilan uzviy bog'li»O'zlikni anglash deganda men tarixiy xotirani tiklash, nasl-nasabimiz kim ekanini, kimlarning vorisi ekanligimizni anglab etishni tushunaman» deydi I.A.Karimov. Shundagina inson o`z mamlakatning tom ma`nodagi munosib fuqarosi bo`la oladi. O'zlikni anglash «Milliy o'zlikni anglash» va nihoyat «Umumbashariy o`zlikni anglash» tushunchalari bir-biridan ayri emas, balki bir-biri bilan uzviy aloqador, bir-birini taqozo etadi. Zero, inson ota-on, oila, millat, ahli bashar, boringki

butun borliq bilan munosabatlar asosida o`zining kim ekanligini anglab boradi. Ayni shu munosabatlar zaminida shakllangan milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida milliy g`oya tamoyillari shakllangan va o`z navbatida, milliy g`oya ularni zamon talablari asosida boyitib beradi. O`z-o`zini anglash · bu o`z Vatani va shu Vatanda yashagan xalqning, millatning o`tmishi, uning madaniyati, urf-odati, hamda qadriyatlarini bilishi demakdir.O`z-o`zini anglash bu · o`z xalqining azaldan jahon hamjamiyati taraqqiyotiga qo`shtigan hissasini anglashdir. O`zo`zini anglash bu-o`tgan ajdodlar tarixini mukammal bilish, ularning ruhlari hurmatini o`rniga qo`yish demakdir. Shu bilan birga o`z-o`zini anglash Vatan hududidagi boy madaniy va moddiy merosni aniqlab, porloq kelajak uchun xizmat qilishga intilish, avlodlar farovonligi uchun o`z hissasini qo`shtish hamdir. O`z-o`zini anglash faqat o`z tarixini bilish bilan cheklanib qolish degan so`z emas. O`zining zamonaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda o`z millati va Vatanining shuhratini oshirish hamdi Milliy o`zlikni anglash - millatning o`zini chuqurroq anglash imkoniyatlariga ega bo`lish, tarixi, madaniyati, an`analari, qadriyatlarini tiklashga, rivojlantirishga xarakat qilishdir. Milliy o`zlikni anglash - 1) Milliy birlikni va boshqa etnoslarning mavjudligini tushunib etish; 2) Milliy qadriyatlar: til, tug`ilib o`sgan joy, madaniyatga (keng ma`noda) sodiqlik; 3) Milliy manfaatlarni tushunish;4) Milliy mustaqillik va milliy taraqqiyotga intilish;5) Vatanparvarlik kabi fazilatlarni sharllantirishdir.Milliy o`zlikni anglash barcha davrlarda xam jamiyat tarixining asosiy omillaridan biri bo`lib kelgan va u millat manfaatlari va qadr- qimmatini anglashdan, ularni himoya qilish uchun kurashdan boshlanadi. Prezidentimiz Islom Karimov o`zining «Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q» asarida «Tarixiy xotirasi bor inson – irodali inson tarix saboqlari insonni xushyorlikka o`rgatadi. O`zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi» deb ta`kidlaganlar Demak, tarixni bilmasdan, yaxshi bilmasdan turib, yuksak ma`naviyatga erishish mumkin emas. Sobiq ittifoq davrida millatimiz ongiga shunday g`oya singdirildiki, u o`z yurtida boshini baland ko`tarib yurishi taqiqlangan edi. Xalqimizning shunday ahvolga tushib qolishiga asosiy sabablardan biri – uning tarixiy xotirasidan judo bo`lishi edi. Milliy g`oya xalqimizga nafaqat o`z tarixini odilona, ob`ektiv va xolisona o`rganish imkoniyatini yaratadi, balki Millat sifatida shakllanish davridagi murakkab sharoitlardan kelib chiqish sabablarini ko`rsatib beradi. Chunki, millat g`oya xalqimizning qadimiyligi va boy tarixidan, ulug` alloma ajdodlarimizning hikmatlari va hayotiy o`gitlaridan, bunyodkor g`oyalaridan, yashash iboratidan ozuqa olgan.Shuning uchun ham, tarixni buyuk murabbiy, tarbiya va ibrat manbai deyiladi. Dono xalqimizning «Etti pushtingni bilgin – degan o`gitlari bekorga kelib chiqmagan. Shuning uchun ham qadimgi Sharq donishmandlari insonni gavdasi oldinga, yuzi esa ortga qaratgan holda tasvirlaganlar. Ya`ni, ularning nazdida insoniyat kelajak sari intilar ekan, o`tmishni doimo yodda saqlamog`i shart. Bu ko`hna haqiqatni teran anglagan Prezident I.A.Karimov «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka

tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida istiqboldagi vazifalarni belgilab berar ekan: «Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni ta'birl joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi» deb ta'kidlaydi. O'zligini anglash birinchidan, odamning ozod, erkin, nodir, ulug' siymoligini anglash va o'zida unga amal qilish sifatlarini shakllantirib borish bo'lsa, ikkinchidan uning o'ziga xos milliy-insoniy sifatlarini ochib beruvchi etnik, ma'naviyinsoniy asoslarini anglash va ularga amal qilishdan iboratdir. Davlatimiz rahbarining «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarida: «...inson o\_zligini anglagani, naslnasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg\_usi ildiz otib, ulg\_aya boradi. Bu ildiz qancha teran bo\_lsa, tug\_ilib o\_sgan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo\_ladi», deya ta'kidlangan. Binobarin, bugun mamlakatimizda ma'naviy yuksalishga xizmat qilayotgan islohotlar navqiron avlodni ulug\_ ajdodlarimiz xotirasi bilan haqli ravishda faxrlanish, tinchlik, oso-yishtalik hamda obodlik uchun kurashish, mustaqillikni qadrlash va Vatanni ardoqlab yashashga undashi bilan yanada ahamiyatlidir. Ma'lumki, xalqimiz uzoq o'tmishta ega. U o'z tarixida ko'pgina qiyinchiliklar, bosqinchiliklarga duchor bo'lgani bilan, shunday boy tarixiy meros qoldirganki, ularni anglash beixtiyor milliy g'urumi shakllantiradi.O'rta Osiyoning markazi bo'lmish O'zbekiston dunyo tarixida o'chmas iz qoldirib kelayotir. Buni jahon xalqlari e'tirof etadi. Masalan, O'zbekiston qadim zamonlardayoq «Buyuk Ipak yo'li» orqali G'arb va Sharqni bog'lash uchun xizmat qilgan. U dunyo davlatchiligini rivojlantirishga, jahon madaniyatini ko'tarishga o'z hissasini qo'shgan. Shu sababli ham, bu yurtdan mag'rurlansak arziydi. O'zbekiston hududida qadimdan ko'p elat va millatlar yashagan bo'lsa-da, ular o'rtasidagi do'stlik, totuvlik, barqarorlik insonlarni hayratda qoldirib kelgan. Demak, tarixan birlikni, etnoslar mavjudligi, ularni qonqarindoshligi bilan, ulardag'i til, ona zaminning ma'naviy jihatlari yaqinligini, ulardag'i muqaddas tuproq, Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatni anglash hozirgi avlod uchun ayniqsa dolzarbdir.Gohida onda-sonda dunyoda bo'lib turgan kelishmovchiliklar, ziddiyatlarning oldini olishga bizning yurtimiz ma'naviy qurol bo'lib xizmat qiladi.Hozirgi zamonda o'z-o'zini anglash bu shaxsiy va mahalliychilik, urug'- aymoqchilik illatlarini yo'qotishga yordam beradi. Azaldan bir tan, bir jon bo'lib yashab, shu mamlakat ravnaqini ta'minlagan ajdodlarimizning turmush tarzi hozir ham yorqin misol bo'lib, hamkorlik qilishning manbai bo'lib xizmat qiladi. MUXOKAMA; Milliy o'z-o'zlikni anglash natijasida o'z mamlakati taraqqiyotini belgilash, uning mustaqilligi uchun kurashning namunasini beradi. O'z-o'zini anglash kelajakda o'z taqdirini o'zi belgilash uchun foydalilanadi, u mas'uliyatni oshiradi. Ajdodlar fidoiyligi, jonkuyarligidan xulosalar qilinadi. Insonning komillik darajasi uning jamiyatdagi o'z o'rnini qanchalik bilgani, o'zini jamiyatning ajralmas qismi ekanligini qanchalik his etishi bilan belgilanadi. Shundagina inson o'zining

qadrqimmati xalqning, millatning qadrqimmati bilan nechog'lik bogliq ekanligini, jamiyatda, yurtida sodir bo'layotgan voqyealarga daxldorligini anglaydi. Yurtimiz mustamlakachilik asoratiga tushgan XX asr boshlarida yurt qaygusida yongan Fitrat o'lkaning boshiga yogilgan balolarda, avvalo o'zini aybdor deb hisoblagani bejiz emas. Amir Temur ruhiga murojaat etib, u shunday yozgan edi: "Yukorida aytdigim ishlarning xammasiga o'zim sabab bo'ldim, barchasini o'zim kildim. Sening Turoningni o'zim talatdim, Sening turkligingni o'zim ezdirdim, Sening omonatlarin gga xiyonat o'zim kildim". Shu emasmi komillikning belgisi? Milliy o'zligini anglagan insongina, Fitrat kabi: "Turonim, sendan ayrilmoq — mening uchun o'limim, Sening uchun o'lmos mening tirikligimdir", —deya baralla ayta oladi, Najmiddin Kubro singari jonini saqlashni emas, yov bosgan yurtini himoya qilib, jon taslim berishni afzal ko'radi. XULOSA; Xozirgi kunda Milliy o'zlikni anglash real ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy asoslarda shaxs ongida qaror topadi va u iroda bilan bog`lanib, amaliy harakat tusiga kiradi. CHunonchi, milliy o'zligini anglagan shaxslar hozirgi tarixiy sharoitda mamlakat xayotining barcha sohalaridagi salohiyatini ko'tarish zaruriyatini anglab, etadi. Yoshlar qalbi va ongiga milliy o'zlikni anglash tuyg`ularini chuqur singdirish, milliy g`ururni tarbiyalash masalasi eng dolzarb vazifadir. Ushbu vazifa bilan uzviy bog`liq bo`lgan muammo - yoshlarda faol grajdanimlik pozitsiyasini shakllantirish, hayotga ongli munosabat, doimo ogoh va hushyor bo`lib yashash tuyg`usini oshirishdir. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Erkin fuqaro ma`naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarbvazifalardandir. Boshqacha aytganda, biz o'z xaq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqeahodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg`un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak» Yurtimizda xozirgi kunda yoshlar ongida milliy o'zlikni anglashni shakilantrish uchun avvalo yoshlar o'zida besh mezon talablarini shakilantirmog'I lozim bular. 1. Milliy ong - shunday g`oyalar, fikrlar tizimiki, u har bir millatning tarixi, taqdiri va kelajagi bilan bog`liq bo`lgan manfaatlar, maqsadlarni ifodalash bilan birga, millat vakillari faoliyatini maqsad, yo`nalishlar tomon boshqarib turadi. 2. Milliy g`urur - shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o'z-o`zini anglashi asosida shakllanadigan, ajodolari qoldirgan moddiy, ma`naviy merosdan, o'z xalqining jahon tsivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, o`sha, millatlar oldidagi qadr-qimmati, obro` - e`tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha. 3. Milliy iftixon - millat ma`naviy kamolotining barcha jihatlarini, merosi va bugungi qadriyatlarini o'z ichiga oladi. Milliy istiqlol natijasida erishilgan va erishilajak iqtisodiy va ma`naviy yutuqlar ko`paygan sari O`zbekiston bilan faxrlanish hissi - milliy his shunchalik kuchayib boraveradi. 4. Milliy his - bu millat manfaati bilan yashash, o`zi kimligini tanimoq. O'zligini tanimagan insonda

milliy iftixor so`nadi. Milliylik, millatga mansublik bu umumjahon taraqqiyotining qo nuniyatidir, milliy g`urursiz hech bir millat millat sifatida shakllanmaydi. 5.Milliy harakter - o`zbek xarakteri, milliy ruhiyati, milliy o`ziga xostomonlari asrlar davomida shakllangan hamda asta-sekin ularning qoniga va Joniga joylashib ketgan. Ushbu mezonlargina xaqiqiy milliy o`zlikni anglashning poydвори bo`lsa bu mezonlarda shakilangan yoshlar jamiyat taraqiyoti uchun yetarlicha hissa qo`sha oladi bunday jamiyat davlatning mustaxkam poydevori bo`ladi.

#### **REFERENCES**

1. Karimov I. YUksak ma`naviyat - engilmas kuch. - T.:»Ma`naviyat»,2008. 114-b.
2. Karimov I.A. Ulug`lari e`zozlangan yurt zavol ko`rmagay. //Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. -T.; «O`zbekiston», 2002. –B. 120-127
3. Karimov I. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. // Biz kelajagimizni o`zqo`limiz bilan quramiz. T. 7. –T., O`zbekiston , 1999 y. 214 -194 b.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q.// Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz.T.7.-T.;«O`zbekiston», 1999. –B. 214-71.
5. Karimov I.A. Amir Temur - faxrimiz, g`ururimiz.//YAngicha fikrlash va ishlash davr talabi. T. 5. -T.;«O`zbekiston»,1998 – B.440-207.

**YOSHLAR MA'NAVIYATINI VA IJTIMOIY FAOLLIGINI  
YUKSALTIRISHDA MILLIY QADRIYATLAR OMILI**

*Tojiboev Abdug'ani Abdumalikovich*

*Toshkent viloyati Zangiota tumani*

*"Toshkent Tibbiyot Akademiyasi" akademik litsey*

*Bosh o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Globallashuv jarayonida kechayotgan voqealarni to‘g‘ri talqin qila olish, har bir voqelikni milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimiz asosida tahlildan o‘tkazish ulkan ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa milliy g‘oya va mafkuramiz mustahkam bo‘lmog‘i lozim. yosh avlod ongi va tafakkuriga singdirilgan milliy g‘oya har qanday yot g‘oyalarning ta’siriga berilib qolmaslikni ta’minlashi bilan birga ularga munosib javob qaytarish ko‘nikmasini ham shakllantiradi, milliy qadriyatlarimizni hurmat qilishga va uni asrab- avaylashga undaydi.

**Kalit so’zi:** globallashuv ,komil inson, milliy-ozodlik, mustaqillik, madaniyat, urf-odat, modernizatsiya, aqidaparastlik, ma’rifat, millat

**Аннотация:** Важно уметь правильно интерпретировать события глобализации, анализировать каждую реальность исходя из наших национальных интересов и ценностей. А для этого наша национальная идея и идеология должны быть сильными. Национальная идея, заложенная в умах и мышлении молодого поколения, не только гарантирует, что на него не влияют какие-либо иностранные идеи, но и развивает способность адекватно реагировать на них, побуждает их уважать и сохранять наши национальные ценности.

**Ключевые слова:** глобализация, совершенный человек, национальное освобождение, независимость, культура, традиция, модернизация, фанатизм, просвещение, нация.

**Abstract:** It is important to be able to correctly interpret the events of globalization, to analyze each reality on the basis of our national interests and values. And for that, our national idea and ideology must be strong. The national idea instilled in the minds and thinking of the younger generation not only ensures that it is not influenced by any foreign ideas, but also develops the ability to respond appropriately to them, encourages them to respect and preserve our national values.

**Keywords:** globalization, perfect man, national liberation, independence, culture, tradition, modernization, fanaticism, enlightenment, nation

## KIRISH

Bugun yurtimizda tinchlik va barqarorlik hukm surayotganiga qaramay, bundan buyon ham mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlash ustivor maqsad bo‘lib qolaveradi. Bu, bir tomondan, mustaqillik biz uchun, avvalo, o‘z taqdirimizga o‘zimiz egalik qilish huquqi, kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan barpo etish, yurtimiz boyliklaridan faqat xalqimiz va vatanimiz manfaati yo‘lida foydalanish huquqini bergani O‘zbekiston yoshlari ham ana shu oliv ne’matdan barhamand bo‘layotgani bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, mustaqillik yillarda ana shu muqaddas qadriyat va milliy an’analarga tayangan holda yashash huquqini ham berdi. Uni saqlab qolish uchun mustaqillikni asrab-avaylash kerak bo‘ladi. Ma’lumki, mustaqillikgacha milliy o‘zlikni anglashga bo‘lgan tabiiy intilish johilona inkor etilar edi. Navro‘z, ramazon, qurban hayiti kabi muqaddas milliy bayramlar taqiqlangan edi. Amir Temur, Imom Buxoriy, Imom Termizi, Ahmad Farg‘oniy, Baxouddin Naqshband, Hoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro kabi ajdodlarimizning, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi milliy-ozodlik harakati fidoyilarining nomlarini xalqimiz xotirasidan o‘chirib tashlashga harakat qilinar edi. Bugun mustaqillik tufayli ularning nomlari, milliy-ma’naviy qadriyatlarimiz tiklanib, o‘zligimizni chuqurroq anglab bormoqdamiz. Bugun yoshlar o‘z milliy tarixini o‘rganmoqda. Ona tili, madaniyat, urf-odat va an’analarining qayta tiklanib borayotgani ularni o‘zligini anglashga shart-sharoit yaratib berayotgani ham muhim yutiqdir. “Bugun yoshlar shunchaki milliy-ma’naviy qadriyatlarini o‘rganib qolayotgani yo‘q. Ular dunyo xalqlari erishgan yutuqlardan bahramand bo‘lmoqda. Xorijiy davlatlarda o‘qish, bilim olib, fan-texnika yutuqlari, ilg‘or texnologiyalarni egallab jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga joriy etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar”<sup>1</sup>.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Yoshlarda ijtimoiy faoliyat holati va amalga oshirish shakllari haqida tahlil olib borildi. Tursunova N.ning “Yoshlarning ijtimoiy faolligi: tushuncha va fazilatlari” nomli o‘quv qo‘llanmasi metodologik manba bo‘lib belgilandi. 1 Shavkat Mirziyoyev “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi” 2019 O‘zbekiston

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma’lumki, 2020 yilda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlar 18 million 720 ming nafarni yoki umumiyligi aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo‘lganlar esa 14 million 80 ming nafarni yoki 64 foizni<sup>2</sup> tashkil etgan edi. O‘z-o‘zidan ayonki, aholimizning aksariyat qismini tashkil etadigan yoshlarimizning hali-beri yechilmagan muammolariga e’tiborimizni jalb etish, ularni hayotimizda haqiqatdan ham hal qiluvchi kuchga aylantirish masalasi jamoatchiligidan diqqat markazida turibdi. Zero, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganlaridek “-Oldimizda nihoyatda muhim, kelajagimizni hal qiluvchi yangi vazifa turibdi. Bu vazifa erkin fuqarolik

jamiyatining ma'naviyatni shakllantirishda, boshqacha aytganda, ozod, o'z haq-huquqini yaxshi taniydigan, boqimandalikning o'zi uchun or deb biladigan, o'z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, ayni zamonda o'z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan komil komil insonlarni tarbiyalashdan iborat".<sup>3</sup> Ma'lumki, tarbiya inson shaxsi ma'naviyatini, e'tiqodini, o'zini anglash, yonatrogfa bo'lgan munosabatini shakllantirishga qaratilgan jarayondir. Shunday ekan, ushbu jarayon mutanosibligini ta'minlashda ta'lim- tarbiya ishini uyg'un tarzda olib borish lozim bo'ladi. Ta'lim orqali yoshlar haytida o'z o'rinalarini topishda ma'lum bir kasb- hunarni o'rganish bilan birga, o'zlarini bo'lajak hayotga tayyorlab boradilar. Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi, qayta tiklanayotganligi, jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo'lida muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljedishda hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, boshlovchi ahamiyatga egadir. Birinchi prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Huquqiy demokratik adolatli davlat qurishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, xalqimizning madaniy va eng nozik tuyg'ularini, chuqur falsafiy, siyosiy, huquqiy tushunchalarini o'zida mujassam etadigan ma'naviyatni yuksaltirish asosiy va ustivor vazifalardan biriga aylandi". Jamiyat yoshlar ongida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirmay va mustahkamlamay turib o'z istiqboliga erisha olmaydi. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamli vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash bundan buyon ham faoliyatimizning eng muhim yo'nalishi bo'lib qoladi" deb ta'kidlaydi Birinchi prezident I.A.Karimov. Mustaqillik esa ana shu vazifani amalga oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Xalq yoki millat o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega bo'lsagina, o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lini erkin belgilab olishi, yoshlarni o'z milliy qadriyatlari negizida tarbiyalash mumkin. Biroq jamiyat hayotining barcha jabhalarini erkinlashtirmsandan haqiqiy erkinlikka erishib bo'lmaydi. Erkinlik g'oyasi va xalqning ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun yuksalishning qudratli manbai bo'lib xizmat qilgan. Sharqda shaxs erkinligi va huquqlari, xatti-harakati, xulq-atvori, jamiyatdagi o'rni, ma'suliyatini idrok etish darajasiga baho berilganda muayyan guruh, etnos, xalq, millat, jamiyatning manfaatlari, huquqlariga alohida qadriyat va an'analardan kelib chiqqan holda yondashiladi. Yoshlar dunyoqarashida milliy-ma'naviy qadriyatlarga tayanish, uning talqini va jamiyatimizda iqtisodiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishda tutgan o'rni bugungi muhim muammolar jumlasidandir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Millat uchun erkinlik adolat tantanasining oliy ifodasidir. Erkinlik birovni o'ziga qaram qilishga, birovning mol-mulkini talon-taroj etishga, birovga xiyonat qilishga, birovni o'ldirishga yoki zarar yetkazishga yo'l qo'yaydi."<sup>6</sup> deb ta'kidlaydilar. Erkinlik qonunga asoslanadi: qonun doirasida olib yuborilgan ishlar va xatti-harakatlar ahloqiy hamda huquqiy qadriyatlarni jihatidan haqli hisoblanadi. Kundalik turmushda, o'zaro munosabatlarda inson erkinligi qonun hamda axloqiy normalar bilan cheklangan bo'ladi. Erkinlikni to'g'ri tushunib, uni hayotimizga to'hri tatbiq etganimizdagina, bu buyuk ne'mat-adolat va erkinlikni saqlab qolishimiz va undan keyingi avlodlarimiz ulardan bahra olishlari mumkin. I.Ergashev Yoshlar dunyoqarashida milliy – ma'naviy qadriyatlarga tayanish muayyan maqsad va vazifalarni o'z ichiga oladi. Ular quyidagilar : • Yoshlar o'z dunyoqarashida milliy – ma'naviy qadriyatlarga tayanmasa, ularning ongi va tafakkuridan mutlaqo

begona qadriyatlar joy oladi. O‘zining milliyma’naviy qadriyatlariga nisbatan bepisandlik bilan qarash shakllanadi. • Yoshlarning milliy- ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatinig hozirgi holatini o‘rganish, ularning amaliy faoliyatlarida ko‘proq qaysi qadriyatlar ustivor bo‘lib borayotganini aniqlashga yordam beradi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad ularning milliy- madaniy meros va qadriyatlarga nisbatan ishonch va e’tiqodni mustahkamlashdan iborat. • Yoshlarning milliy- ma’naviy qadriyatlarga nisbatan ishonch va e’tiqodining mustahkam bo‘lishi O‘zbekiston tanlagan o‘ziga hos va mos taraqqiyot yo‘li talablaridan kelib chiqadi hamda yoshlar oldiga aniq vazifalarni qo‘yadi.<sup>7</sup> I.Ergashev jamiyat ma’naviy hayotida milliy qadriyatga munosabat muammolarini quyidagi omillarga bog‘laydi : 1. Mustaqillik ulug‘ ne’mat va qadriyat ekanini chuqur idrok etgan holda, umummaqsad yo‘lida yoshlar ozod shaxs va erkin fuqaro sifatida jamiyat oldidagi o‘z ma’suliyatini chuqur anglab, faollik ko‘rsatishi ularning qalb amriga aylanishi lozim. 2. Jamiyatni erkinlashtirish va ma’naviyat demokratiya hamda yoshlar dunyoqarashidagi milliy- ma’naviy qadriyatlarga tayanish bilan ham uzviy bog‘liq. Mamlakat, xalq, millatning buguni va kelajagiga daxldor bo‘lgan qadriyatlar haqida o‘z fikrini ochiq va erkin bildirish ayrim salbiy holatlarning oldini oladi. Eng muhimi, fikrni erkin aytish muhim. Yoshlar fikriga hurmat bilan qarash, o‘zgalar fikriga tayanish, milliy- ma’naviy qadriyatlarni tiklash orqali jamiyatda siyosiy- huquqiy madaniyat yuksalib boradi. 3. Demokratik jamiyatda milliy- ma’naviy qadriyatlarni tiklashga ehtiyoj ortib, fikrlar xilma- xilligi, munozara madaniyati shakllanadi. Faqat o‘z fikrini o‘tkazish, o‘zgalar fikrini bo‘g‘ib qo‘yish hollariga barham beriladi. 4. Milliy – ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi tufayli yoshlar o‘z erkinligi va mustaqilligini qadrlaydigan, unga hurmat bilan qaraydigan, shu tuyg‘uga ko‘proq ehtiyoj sezadigan bo‘lib boradi. Madaniy merosga nisbatan befarqlik va loqaydlik kabi ayrim illatlar barham topadi. 5. Bugun rahbarlik lavozimlarida ishlayotgan ayrim shaxslar faoliyatida uchraydigan, qadriyatlarimizga to‘g‘ri kelmaydigan salbiy illatlarga barham berish imkoniyati tug‘iladi. 6. Mustaqil mamlakatda har bir yoshning qaysi sog‘ada ishlashidan qat‘i nazar, avvalo, ozod va erkin shaxs, inson sifatida o‘zligini anglamog‘i zarur bo‘ladi. O‘zlikni anglash esa ma’naviy qadriyatlarni chuqur o‘rganish, asrab- avaylab rivojlantirish orqali amalga oshadi. Mustaqil O‘zbekistonning kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari taraqqiyoti davrida, asriy ma’naviy merosimiz, milliy qadriyatlarmiz, buyuk ajdodlarimizning tarixiy tajribalaridan to‘g‘ri foydalaniib, ularning ibratli ishlaridan saboq olish mamlakatimizda fuqarolik jamiyat qurilishi vazifalarini amalga oshirishga, xalqimizning ma’nan yuksalishiga xizmat qiladi. Xalqimiz mustaqillikning o‘z hayotida va taqdirida hal qiluvchi ahamiyat kasb etganini tobora teranroq anglab yetmoqda. Bugun O‘zbekistonda yashayotgan har bir yosh mustaqillikning bergen ne’matidan barhamand bo‘lmoqda, deb ayta olamiz. Mustaqillik tufayli O‘zbekiston yoshlari o‘z taqdirini o‘zi hal etish huquqini qo‘lga kiritda. Bugun O‘zbekiston birovga qaram emas, o‘z taraqqiyot yo‘lini o‘zi belgilab, mustaqil ichki va tashqi siyosat olib bormoqda. Yoshlar ko‘z o‘ngida iqtisodiy hayot o‘zgarmoqda. Mulkning xilma-xilligiga o‘tilgani har bir yoshga o‘z xohishiga ko‘ra iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatini berdi. Bir tomonlama, rejali iqtisodiyot o‘rnida bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin mehnat faoliyati shakllanmoqda. Tadbirkorlik, fermerlik, kichik va o‘rta biznes bilan shug‘ullanish uchun imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bugun O‘zbekiston o‘ziga qarashli bo‘lgan, xalqning mehnati bilan yaratilgan boylikni o‘zi o‘z ixtiyori bilan tasarruf etmoqda. Unga o‘zi egalik qilmoqda. Bugun izlanuvchan, tadbirkor, yangicha fikrlaydigan har bir kishining hayot tarzi ham o‘zgarib borayotgani shubhasiz. Bu borada davlatimiz raxbari tomonidan mamlakatimizda 2021 yilni “Yoshlarni qo’llab- quvvatlash va aholining sog’lig’ini mustahkamlash yili” deb e’lon qilinishi ayniqsa diqqatga sazovordir. O‘zbekiston respublikasi “Ijtimiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazi tomonidan o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov natijalariga ko‘ra, milliy o‘zlikni anglash bo‘yicha so‘ralgan 46,6 foizi yoshlar xalqning urf- odatlari va an’analalariga, 28,9 foizi O‘zbekistonning milliy mustaqilligiga, 28,4 foizi o‘z xalqining boy tarixiga, 21,7 foizi ona tili va milliy madaniyatiga, 19,5 foizi o‘z millatining ma’naviy o‘ziga xosligi, 16,6 foizi o‘tmish avlodlarning buyuk merosiga tayanish muhim ahamiyat ega ekanini bildirishgan. Demak, O‘zbekiston yoshlari xalqining tarixi va an’analari, milliy madaniyati, avlodlar o‘rtasidagi aloqa, o‘zlikni anglash va o‘ziga xoslikni muhim omil sifatida baholaydi. Mustaqillik sharoitida yoshlar o‘z hayotiy tajribalarida mustaqillikning afzalligini his etib, unga ishonch bildirmoqda. Mustaqillik milliy o‘zlikni anglashning muhim sharti sifatida qadrlanmoqda hamda o‘zligini namoyon etish omili sifatida baholanmoqda. Masalan, respublikamizda yashayotgan axolining yoshdagilarining 30,6 foizi, o‘zbeklarning 30,3 foizi, markaziy osiyo xalqlari vakillarining 32,4 foizi, to‘liqsiz o‘rta ma’lumotlilarning 30,1 foizi milliy o‘z- o‘zini anglashni O‘zbekistonning milliy mustaqilligi bilan bog‘lab, uni muhim omil deb biladi. Ayni paytda mamlakatimizda istiqomat qilayotgan slavyan millatiga mansub yoshlarning 8,9 foizi, boshqa millat vakillarining 14,4 foizi ham milliy o‘zlikni anglashni ona tili va milliy madaniyat bilan (51,1 foiz), xalq urf-odatlari bilan (33,8 foiz) bog‘laydilar.<sup>9</sup> Jamiyatda yoshlar tarbiyasi muammolari har doim kunning biringchi darajali mavzularidan biri bo‘lib kelgan. Ayni paytda, dunyoda globallashuv jarayoni tezlashmoqda. Dunyo xalqlari, davlatlar o‘rtasida o‘zaro aloqalar kuchaymoqda. O‘zbekiston ham undan chetda turgani yo‘q. Turli xalqlarga xos bo‘lgan qadriyatlar O‘zbekiston yoshlari hayotiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday muhit xalqaro axborot tizimi, internet, OAV, reklama, turli xil kino ko‘rsatuvlari bilan bog‘liq asarlar yoshlar ma’naviy hayotiga ta’sir ko‘rsatishi, turli xil qadriyatlarning kirib kelishiga sharoit hozirlaydi. Uning qaysi jihatlaridan foydalanish yoki foydalanmaslikni yoshlar yaxshi bilishlari lozim. Qadriyatlarni bir-biridan farqlash, milliy qadriyatlarni yo‘qotmagan holda munosabatda bo‘lishlari muhimdir. Ijtimoiy hayotda, ayrim yoshlarning xatti-harakatlarida milliy qadriyatlarni singdirish va unga sodiq qilib tarbiyalash kabi muhim vazifalar turganini ko‘rsatadi. Aksariyat yoshlarimiz esa milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan o‘zlarining to‘g‘ri munosabatlarini shakllantirgan. Qadriyatlarni targ‘ib etadigan urinishlarga, xususan, aqidaparastlikka nisbatan o‘zlarining salbiy munosabatlarini bildirishlarini yuksak baholash lozim. Bugun jahon axborot maydonida yoshlarni milliy qadriyatlarga qarshi tarbiyalashga

urinish kuchaymoqda. Qadriyatlarga munosabatni o'zgartirmasdan demokratik jamiyat qurib bo'lmasligi to'g'risidagi fikrlar ostida qanday yashirin maqsadlar yotgani tobora ayon bo'layotir. Bunday harakatlar yoshlarni o'z xalqi, vatani va milliy qadriyatlarga nibatan bepisand ruhda tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, ularda ko'proq g'arbona qadriyatlarga moyillikni uyg'otishga bo'lgan yashirin maqsadlar mujassam bo'ladi. Yoshlar hayotida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni muhim; milliy qadriyatlarni yaxshi bilmagan yoshlarning xatti-harakatlarida nosog'lom aqidaparastlik holatlari tezroq joy oladi. Mustaqillik yangi qadriyatlар tizimiga, milliy madaniy meros va an'analarga tayanish orqali yoshlarni umuminsoniy qadriyatlarni to'g'ri baholashlari yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. Mustaqillik yoshlar hayotida yangi davrni belgilab berdi va yoshlarning buni chuqur his etishlari maqsadga muvofiqdir. Yoshlar dunyoqarashida milliy-ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashdan ko'zlangan maqsad ularni faqat o'z qadriyatlari tayanim yashashga o'rgatish emas, balki shu umumbashariy qadriyatlarni ham o'zlashtirib, mamlakatning o'ziga hos taraqqiyoti unga bog'liqligini hisobga olib yashashga, ishlashga da'vat etishdir. Bundan tashqari, milliy- ma'naviy qadriyatlarni chuqur bilish yoshlar tomonidan mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlashga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Bu mamlakatning istiqboldagi rivoji bilan uzviy bog'liqdir. Mustaqillik sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zining haqqoniy mazmuniga ega bo'lmoqda. Yoshlarning u to'g'risidagi qarashlari va munosabatlari ham o'zgarib borib, milliy-ma'naviy qadriyatlarga umuminsoniy qadriyatning negizi sifatida qaralayotgani muhim yutiqdir. Hozirgi davrda qo'lga kiritilgan muhim yutiqlarimizdan biri ta'lim-tarbiyada milliy, ma'naviy qadriyatlarning ustivorligiga erishganimizdadir. Bu yosh avlodga boy tarixiy, milliy, ma'naviy merosni singdirish hamda asrlar davomida shakllangan xalq pedagogikasi an'analari asosida ta'lim-tarbiya berish demakdir. Zero Abdulla Avloniy aytganidek "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir". Globalashuv jarayonida kechayotgan voqealarni to'g'ri talqin qila olish, har bir voqelikni milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarni asosida tahlildan o'tkazish ulkan ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa milliy g'oya va mafkuramiz mustahkam bo'lmoq'i lozim. Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.Karimovning 2006-yil 25-avgustdagagi "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi qarori ham milliy qadriyatlarni yanada hurmat qilishga qaratilgan xujjalardan biri bo'ldi.

### XULOSA

Zero, xalqimiz, ayniqsa yosh avlod ongi va tafakkuriga singdirilgan milliy g'oya har qanday yot g'oyalarning ta'siriga berilib qolmaslikni ta'minlashi bilan birga ularga munosib javob qaytarish ko'nikmasini ham shakllantiradi, milliy qadriyatlarni hurmat qilishga va uni asrab-avaylashga undaydi. Shu nuqtai nazardan, yoshlar bilan bog'liq muammolarni hal etishda milliy qadriyatlardan, ilg'or taraqqiyotga xizmat qiluvchi diniy qadriyatlardan foydalanish, ularni zamonaviy demokratik qadriyatlarni bilan uyg'unlashtirgan holda, yosh avlodni har omonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash masalasiga bugun yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Ayni paytda yoshlarni ma'naviy himoyalash tizimining mexanizimini ishlab chiqishga ham e'tibor qaratilmoqda. Chunki hozirgi globalashuv sharoitida, bir tomndan, milliy qadriyatga,

ikkinchi tomondan, zamonaviy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy- huquqiy yangilish jarayonlarini amalga oshirish alohida dolzarb bo‘lib qolmoqda. O‘zbek xalqining ibratnomuz, ayniqsa yoshlarni tarbiyalashda katta ta’sir eta oladigan urf-odatlari, an’analari, rasm-rusumlari va marosimlari borki, bularni bugungi kunda oilada balalar ongiga, kundalik hayot tarziga singdirish yoshlarning ma’naviy taxdidlar ta’siriga tushib qolishining oldini olishdag muxum vazifalarimizdan biri xisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)**

1. Madaliyeva Z. Huquqiy madaniyat va yoshlar. - T.: “Akademiya”, 2020. 5-bet.
2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz.7-jild. –T.: “O‘zbekiston”, 1999. 304-bet.
3. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz.7- jild. –T.: “O‘zbekiston”, 1999. 306-bet.
4. Karimov I.A. Vatanmiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish-oliy saodatdir. – T.: “O‘zbekiston”, 2007. 38-bet.
5. Milliy istiqlol g‘oyasi. Bakalavriat bosqichi uchun darslik. - T.: Akademiya, 2020
6. Milliy istiqlol g‘oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O‘zbekiston, 2019.
7. Milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondoshuvlar. - T.: Akademiya, 2020.

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY MADANIYATNI  
SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

*Turdiyeva Dilnoza Valijonovna  
Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani  
1-son DMTT metodisti*

*Bolalarning go`dakligidan ongi va tafakkurini to`g`ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviyali bilim va ma`naviyatga ega bo`lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin kechadi.*

*Sh.M.Mirziyoyev*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola MTT tarbiyanuvchilarining aqliy, ma`naviy varuhiy, rivojlanishi hamda ularni shaxs sifatida kamol toptirishning asosiy shart-sharoitlari.

**Kalit so'zlar:** Tarbiyachi, shaxs, tarbiya , ma`naviy, aqliy, pedagogik, o'yin, uzlucksiz ta'lif.

Maktabgacha ta`lim bolaga ijtimoiy muhit tomonidan ta`sir ko`rsatadigan, malakali shaxslar tomonidan ta`lim-tarbiya faoliyatni samarali tashkil etadigan ilk bilim dargohi hisoblanadi. Har bir bola ruhiyati o`ziga xos bo`lgan murakkab konfiguratsiyaga ega, shu bilan unga ta`sir etuvchi omillar va ularning ta`siri ham juda xilma-xildir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishlari va faolliklari ham aynan maktabgacha ta`lim tashkilotida mashg`ulot jarayonlarida o`z ifodasni topadi. Xuddi shuningdek hozirgi kunda tarbiyanuvchi bolajonlar o`rtasida olib boriladigan asosiy mashg`ulotlar bolaning diqqati va xulq-atvor ko`nikmalariga ijobiy ta`sir etib bolada hayotga o`zgacha bir qiziqish paydo qiladi.

Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida tashkil etilgan pedagogik jarayon bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilishi zarurligi va shartligi hammaga ayon. Pedagogik jarayonni asosiy ko`rinishlaridan biri bu, bola shaxsiga ehtiyotkorlik bilan pedagogik-psixologik yondashish kerak. To`la ma`noda tashkil etilmagan pedagogik jarayon o`sayotgan bolani miyasida bo`shliqlar paydo bo`lishiga olib keladi. Bola o`sgan sari uning miyasi, aqli to`ladi. Shuning uchun ota-onalar tarbiyachilar diqqatida bo`lishi kerak. Bolalarni yoshiga qarab rivojlantirishga qaratilgan ta`limiy o`yinlar harakatlarni rivojlantiruvchi va hatto bolalarning sog`ligini tiklovchi o`yinchoqlar bo`lishi kerak. Bolalarni nutqini rivojlantirishda o`yinchoqlarning o`rni katta Hozirgi vaqtida o`yin faoliyati to`liq amalga oshirilgandagina bola shaxsi rivojlanadi. O`yin faoliyatini bevosita kattalar bilan birga amalga oshiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ta`lim sohasidagi islohatlar avvalo oiladan bashlanadi.

Xuddi shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish lozimki,maktabgacha ta'lim uzlusiz ta'limning asosiy bug`ini hisoblanadi. Avvalo bu tizimga ota-onalarning ijtimoiy faoliyati va farzandlari uchun shart-sharoit yaratishlari nazarda tutilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ish mazmuniga esa kichkintoylarni maktab bosqichida o`qishga tayyorlashdir. Maqsadimiz bilimni sifatini ko`tarish va dunyo andozalari darajasiga olib chiqish. Maktabgacha yoshdagi bolalarning odob ahloqli va mehnatga layoqatli, yetuk bo`lishiga juda katta e'tibor beriladi. Bolalarni ilk yoshdan boshlab uyda, kuchada, bog`chada ,mexmonda o`zini tutish qoidalari, muomila madaniyati, ovqatlanish, kiyinish-yechinish, saranjom-sarishta yurish, odobli mexnatsevar bo`lish va boshqalar mehnatini qadrlash kabi odatlarga o`rgatish orqali bolani odob ahloqli mehnatga moyil qilib tarbiyalash, Maktabgacha ta'lim tashkiloti ishining mazmuni, tarbiyaning asosini tashkil etadi.Maktabgacha yoshdagi bolalarning odob ahloqi va mehnatkash bo`lib tarbiyalanishi uchun ularga salomlashish va xayrlashishni bilish, o`zidan kattalarga sizlab murojaat qilishni bilishni o`rgatib borish zarur.

Ularga «*labbay*», «*xup bo`ladi*», «*xush kelibsiz*», «*rahmat*», «*salomat bo`ling*», «*mumkinmi*», «*kechirasiz*», «*marhamat*» kabi so`z va iboralarni o`z o`rniga kuyib ishlatishni bolalar ongiga singdirib borishimiz kerak. «Lekin sog`lom avlod tarbiyasi oson ish emas ,u har bir inson va har bir oila, butun jamiyatdan jiddiy e'tibor va uzlusiz mehnat talab qiladi »- degan edi birinchi Prezidentimiz Islom Karimov. Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy tarbiya asoslari bolalar tengdoshlari bilan muloqot qilishni o'rganadilar, ularning faoliyati turlari sezilarli darajada kengayib boradi va atroflaridagi dunyo bilimlari doimiy ravishda to'ldiriladi.Shunday qilib, ota-onalar axloqiy me'yorlarni o'zlashtirishga va ularni kuzatishga tayyor bo'lganda, bu yo'nalishni qanday belgilashadi? Oddiy sinov bor: bolangizni orqaga qaytmasliklarini iltimos qiling va siz uning oldiga qiziqarli yangi o'yinchini ochishingiz kerak. Bunga qarshilik qildingizmi? Qaytib ketmadingizmi? Agar bola istaklarini va istaklarini boshqarishni o'rgangan bo'lsa, u oddiy axloq me'yorlarining talablarini bajarishga juda tayyor.Oldimizga qo`yilgan barcha maqsadlarimizning siyosiy –iqtisodiy va ma'naviy hayotimizda davlatimiz, jamiyatimiz qurilishida amalga oshirilayotgan o`zgarishlarning ,ezgu intilishlarimizning ma'no mohiyati sog`lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdir.Aqliy faoliyatni tashkil etish va aqliy ishlarni tartibga solishga doir masalalar yoritilgan. Bundan maqsad haddan tashqari charchash va asabiylikning oldini olishdir. Biz buyuk kelajak sari odimlamoqdamiz. Shu bois yuksak axloqiy salohiyatga ega bo`lgan avlodni tarbiyalamog`imiz darkor. Sog`lom xalq, sog`lom millat buyuk ishlariga qodir bo`ladi.Shaxs tayyorgarligi atrof muhitni kattalarga, tengdoshlariga, o`ziga, o`simliklar, jonivorlar dunyosiga, tabiiy hodisalarga, insonlar yaratuvchanligiga munosabatda yuzaga keladigan shaxsiy madaniyatning shakllanganligini nazarda tutadi.Eng muhimi bola ongiga qanday umumiy axloqiy

tamoyilning mustaxkamlanganligi, u tomonidan ijtimoiy ahloq me'yorlari va umum insoniy qadriyatlarning tan olinganligi «*nima yomon*», »*nima yaxshi*»ligini anglaganidir. Shaxs (ruxiy) tayyorgarligida eng muhim jihat «bolaning ichki pozitsiyasi» shakllanganlidir yoki «motivatsion-tayyorgarlik», ya'ni bolaning kattalar va tengdoshiga yordam berishga bo`lgan ehtiyoji bilan bog`lik sabablarga ko`ra mакtablarga borish istagini uyg`otish. Shaxs rivojlanishi oiladagi tarbiyaga bog`liq. Tortinchoq va qo`rroq bolalar ko`proq qat'iy nazoratga ushlab turiladigan, bola tashabbusi buladigan oilalarda bo`ladi va oxir oqibatda u faqatgina kattalar yoki birov larning ruxsati bilan harakat qiladigan bo`lib qoladi. Bolasini maqtaydigan oilada bolalar aniq maqsadi bo`lmasada, buyruq berishga o`rganadi va muomila qilishni bilmaydi. Bolani o`z holiga quysa jangari, qat'isyisiz, salbiy alomatlar paydo bo`ladi. Maktabgacha ta`lim tashkilotlari tarbiyanuvchilarining aqliy, ma`naviy va ruhiy rivojlanishi, ularni shaxs sifatida kamol toptirishning shart sharoitlaridir. Tarbiyada eng muhim vosita bu mehr va shirinso`zlik bilan tarbiyalashdir. Bu ikki vosita bir bo`lib, bolani shakllantiradi. Shu jumladan, ta`limni ham g`azab va jazolash bilan amalga oshirmagan ma'qul. Zero, zo`rlab berilgan ta`lim bola xotirasidan tezda o'chib ketadi. Oqibatda uning shu sohaga nisbatan qiziqishi so'nishi mumkin. Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, ta`limning avvali ham yaxshi tarbiyadan boshlanadi. Islom ta`limotida yosh avlodning jismonan sog`lom va baquvvat bo`lib ulg`ayishiga jiddiy ahamiyat berilgan. Bu *haqda Payg`ambarimiz* (s.a.v.): “*Farzandlaringizga suzish va kamon otishni, qizlarga ip yigirishni o'rgatinglar*”, deganlar.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Voxidov M.«Bolalar psixologiyasi» Toshkent. 1992 y.
2. Vohidov M.V. Maktabgacha tarbiya psixologiyasi. T.,
3. Krutetskiy V.A. Pedagogik psixologiya asoslari
4. Zunnunov A. Oilada bola shaxsini shakllantirish. T.: O`zbekiston, 2006 yil

TARBIYALANUVCHILARDA MEN KONSEPSIYASI  
INDIKATORLARINI SHAKLLANTIRISH

*Eshchanova Gavharjon Otajanovna*

*Urganch davlat Universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

*Azimboyeva Aziza Azimboy qizi*

*Urganch davlat Universiteti Magistratura bo'limi*

*Ta'lismi va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lismi)*

*mutaxassisligi magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lismi tarbiyalanuvchilarining hissiy kompetensiyalari rivojlanishini "Men" tushunchasini shaklanishini o'rGANAMIZ.

**Kalit so'zlar:** emotsiyonal, ijtimoiy – hissiy rivojlantirish, "Ilk qadam" dasturi, "O'zbekiston Respublikasida davlat Maktabgacha ta'lismi tashkilotisi to'g'risida Nizom", «men», «meniki»

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy hayotning tobora axborotlashuvi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining murakkablashuvi yosh avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularni ijtimoiylashtirishni taqoza etmoqda. Maktabgacha ta'lismi tashkilotilari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy munosabatlarini tog'ri tashkil etishga tayyorlash kelajakda o'ta murakkab jarayonda samarali faoliyat yurita olishlari uchun imkon beradi. Maktabgacha yoshdagi boalalarni tizimli yondashuv asosida kattalar va tengdoshlari bilan muloqatchanlikka o'rgatish psixologik zo'riqishlarga nisbatan bardoshli bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadi. Bola uchun ijtimoiy munosabatlar sub'yektlari; ota-onalar.oila a'zolari,tengdoshlari,tarbiyachi va enaga.

"Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" asosida ishlab chiqilgan "Ilk qadam" dasturida ijtimoiy-hissiy rivojlanish yo'nalishida kattalar va tengdoshlari bilan muloqotchanlikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.Har qaysi yosh guruhiga tegishli bolalarni ijtimoiy munosabatlarga kirishishga qaratilgan ta'lismi-tarbiyaviy vazifalar berilgan. "Ta'lismi to'g'risida"gi Qonunning 30-moddasi orqali farzandlar tarbiyasi va ta'lismi olishlari, ularning qonuniy huquqlari va manfaatlari himoyasi borasida ota-onalarning o'rni va javobgarligi oshirildi. "O'zbekiston Respublikasida davlat Maktabgacha ta'lismi tashkilotisi to'g'risida Nizom" ga muvofiq bola maktabgacha ta'lismi uyda, ota-onalarning mustaqil ravishda ta'lismi va tarbiya berish orqali yoki doimiy faoliyat ko'rsatadigan Maktabgacha ta'lismi tashkilotlarida, shuningdek, muassasaga jalb qilinmagan bolalar uchun Maktabgacha ta'lismi tashkilotlarida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan Davlat talablari yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalgalashirishdagi me`yoriy xujjat hisoblanadi. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy hayotning tobora axborotlashuvi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining murakkablashuvi yosh avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularni ijtimoiylashtirishni taqoza etmoqda. Maktabgacha yoshdagi bojalalarni tizimli yondashuv asosida kattalar va tengdoshlari bilan muloqatchanlikka o`rgatish psixologik zo`riqishlarga nisbatan bardoshli bo`lish ko`nikmalarini shakllantirishga ko`maklashadi. Maktabgacha ta`lim tashkilotilari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy munosabatlarini tog`ri tashkil etishga tayyorlash keljakda o`ta murakkab jarayonda samarali faoliyat yurita olishlari uchun imkon beradi. bolaning o`zi to`g`risida, o`z imkoniyatlari to`g`risidagi tasavvurlarini shakllantirishda kattalar (pedagog, oila a`zolari) tomonidan baholanish katta rol o`ynaydi. Tarbiyachidan bolaning ijtimoiy psixologik mavqeini bilib olish, xulq-atvoridagi yaxshi sifatlarni topishga intilishi, o`z-o`zini past va yuqori baholash bilan bog`liq hissiy holatlarni “oldindan” ko`ra bilishga yo`naltirish lozim. jamoa manfaati bilan bog`liqligi haqidagi bahoni eshitadilar. Bola jamoa fikri va bahsi bilan hisoblashsa, o`zining jamoa uchun zarurlyyatini sezsa, u bilan g`ururlansa, umumiy hayotning yoqimli va quvonchli bo`lishi uchun intilsa, bu jamoaning etarli darajada shakllanganligidan dalolat beradi.

Bola kelishi bilan bolalar jamoasining a`zosi bo`lib koladi, u boshqa bolalar bilan uynashi mehnat qilishi, kelishishi kerak bo`lsa yon bosishi o`rganib oladi. Tarbiyachi har bir bolaning qobiliyatini alohida baholab borishi kerak. Keyinchalik jamoada hayot tajribasining to`plapishi natijasida «men», «meniki» tushunchasining o`rnini «biz», «bizniki» degan tushunchalar egallaydi. Bu esa bolalarning o`zini jamoa a`zosi deb tushunib olganidan va o`z shaxsi manfaatini umumiy maqsadga buysundira oladigan davridan boshlanadi.

Yaxshi o`rtoq bulish,- bu boshqalar bilan o`zini bir qatorda qo`yishi, ular to`g`risida g`amxo`rlik qilish, shu bilan birga senyolg`iz emassan, sen to`g`ringda boshqalar ham o`yaydi, senga boshqalar ham g`amxo`rlik qiladi degan ma`noni anglatadi.

Bolalar jamoasini shakllantirish uchun ma'lum shart - sharoitlar zarur hisoblashadi.

Bular:

- bog`chaxodimlarining o`zaroxamjihat bo`lishi;
- bolalar hayotini tashkil etish;
- o`yinchoqlarning bolalar yoshiga, qiziqishiga mos kelishi hamda mikdor jihatdan ham bolalar soniga to`g`ri kelishi;

- bolalarda o‘zaro ahillik, g‘amxurlik, jamoatchilik, insoniylikni tarbiyalashga yordam beruvchi mashg‘ulotlar;
- bolalar uchun har xil qiziqarli faoliyatlarni tashkil etib borish;
- oila bilan mustahkam aloqa o‘rnatish,
- bolalarga xulq - atvor me’yorlari va qoidalarini o‘rgatib borish.
- bolalar o‘rtasida ijobiy xayrixohlik muhitini yaratish.

Demak, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar jamoasiga har doim katta odam rahbarlik qiladi. Bunda bolalarning harakatlari ma’lum tomonga yo‘naltiriladi, boshqariladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda . jamoatchilik munosabatlarining boshlangich belgilari axloqiy sifatlarning murakkab guruhidir.

Bunga bolalarning do‘stlashishi, birga o‘ynash va mehnat qilish xohishi, qobiliyati, boshqalarning xohishi qiziqishi bilan hisoblashishi, bir-biriga yordam bera olishi, topshiriqni vijdonan bajarishi, narsa va buyumlarni asrashikabi axloqiy sifatlar majmuasi kiradi. Bunday his - tuygu, tasavvur, tushunchalar bola shaxsining ijtimoiy yo‘naltirilgan hoddha takllanishiga yordam boradi, bolada insonparvarlikning dastlabki namunalari shakllanishiga ta’sir etadi.

- Atrofdagi odamlarni-kattalarni va tengdoshlarini yaqindan bilib olish uchun:- kattalar bola bilan o‘yin orqali, badiiy, musiqali, sahnalashtirish faoliyatları orqali (ertaklarni sahnalashtirish, qo‘g‘irchoq, soya teatrлари) hissiy jihatidan to‘yingan mazmunli muloqotni tashkil qiladi;

- bolalarni kattalar va boshqa bolalar bilan o‘zaro bir-biriga hissiy yaqinlik, o‘ziga tanish kattalarga va tengdoshlariga nisbatan ishonch, o‘zaro bir-birini tushunish hissini tarbiyalash lozim. Kattalarning va boshqa bolalarning hissiy holatlarini: sevinish, faxrlanish, tinchanish, jahldorlik kabi xususiyatlarini, hayajonlanishlarini tushuna boshlaydilar; shaxsiy sifatlarni shakllantirish turli faoliyatlarda; jamoada o‘zini tuta bilishga o‘rgatiladi; agar inson charchasa, nimadandir arazlasa, kayfiyati tushsa, jahli chiqsa uning kayfiyatini sezish mumkinligini tushuntiradi.

- insonlarning teatrda, muzeyda, ko‘rgazmada, transportda, pochtada, bankda, stadionda, magazinda o‘zini tutish haqidagi diafilmlarni, videofilmlarni, video lavhalarni ko‘rsatish, bolalarni o‘zini tutish haqidagi bilimlarini kengaytirish, shuningdek bolalar muassasadagi o‘yinlari, mashg‘ulotlari, bayramlari haqidagi tasavvurlari kengaytirib boriladi. Muzey, teatr, ko‘rgazmalar, sayr va ekskursiyalarni tashkil qilish orqali bolalarni kishilar dunyosi bilan qiziqtiriladi.

- kattalar va boshqa bolalarning iltimoslarini bajarishga intilishlarini qo‘llab-quvatlab, ularning takliflariga javob berish, kattalarning mehnatiga nisbatan havas uyg‘otish va uning jamiyatdagи ahamiyatini anglashda, kattalar bilan olib boriladigan mehnat faoliyatlariga jalb qilinadi.

- tengdoshlarining holatlari orqali (o‘yinga qabul qilishmaganda, qiziqarsiz rol berishganida, o‘yinchoq ifodalashga odatlantiriladi. O‘zaro munosabatlarini: “mana bunday qilsak – boshqalarga ham, menga ham yaxshi bo‘ladi”; “buni qilish mumkin emas, chunki boshqalar xafa bo‘ladi va menga yoqmaydi” kabi xulosa chiqarishga o‘rgatiladi; axloqiy odob qonun-qoidalari bilan mos holda “yaxshi”, “mumkin”, “lozim”, “mumkin emas” kabi tushunchalarni bilishlari lozim. Axloqiy me’yorlarni mustaqil ravishda o‘zlashtirish orqali ijodiy faoliyatlarini faollashtirish va tengdoshlari bilan muloqot davrida u yoki bu axoqiy me’yorlarni to‘g‘ri tanlay olishlari lozim:

- boshqa insonning kayfiyatini tushunish, ularga yordam berish, kuchsizlarga, xafa insonlarga, keksa insonlarga diqqatli bo‘lish, guruhdagi yangi kelgan bolalarga, uyiga kelgan mehmonlarga samimiy munosabat o‘rnataladi;

- kichiklar, kattalar, shuningdek tengdoshlari bilan: o‘g‘il bolalar, shuningdek qiz bolalar bilan muloqot qilishda ijtimoiy xulq-atvor me’yorlariga rioya qilishni taraqqiy ettirib turish lozim;

- o‘zaro aloqa va munosabatni o‘rnatishda verbal va noverbal usullardan foydalanish (imo-ishora, pantomima) takliflar, savollar, iltimoslar bilan chiqishi, javoblarni diqqat bilan eshitishi, savollarga shirinsuhanlik bilan javob berishi, muloyim tabassum qilishi, samimiy tarzda boshqalarga o‘z yordamini taklif qilishga o‘rgatiladi;

- o‘z tashabbusiga ko‘ra o‘z ixtiyori bilan bolalar bilan salomlashish, kattalarga, tengdoshiga minnatdorchilik bilan qaytaradi;

- murojaat qilishning turli variantlaridan foydalanishga: “assalomu - alaykum”, “xayrli tong”, “xayrli kun”, “ko‘rishguncha”, “ertagacha”, “sizdan minnatdorman”, “rahmat”, “sizdan iltimos”, “imkonningiz bormi” kabi va boshqa so‘zdar bilan murojjat qila boshlaydi;

- o‘ziga yoqqanligini, simimiyligini, iltifot ko‘rsatishni ifoda qilishga o‘rganadi;

- bolaning muloqot qilish doirasi kengaytirib boriladi; tanish bo‘lmagan kishilar bilan munosabatni tiklash usullarini shakllantirib boriladi (boshqa guruh tarbiyachisi, mudira, uslubchi, psixolog, muassasa mehmoni, tengdoshlarining ota- onasi bilan):

- birgalikda olib boriladigan faoliyatda yumshoq, samimiyat bilan o‘z takliflarini, maslahatlarini, iltimoslarini bildirishga o‘rgatiladi; tengdoshiga hissiy yoram ko‘rsata boshlaydi, o‘zaro hurmat, ishonch muhitini yaratadi;

- qabul qilingan ijtimoiy muloqot usullari yordamida o‘zini himoya qilishga, tengdoshi qichqirganida, jahli chiqqanida, ustidan kulganida, mensimaganida o‘z mavqeini tiklash hissi uyg‘otiladi. O‘ziga ishonmagan, uyatchan bolalar bilan olib boriladigan ishlarni shaklantirishda (johillik, jahldorlik, qo‘pollik)

- o‘ta muloqotga kirishuvchan, qitmir, o‘z manfatini ko‘p ko‘zlaydigan bolalarga o‘z-o‘zining fikrini tasdiqlaydigan, yaxshi o‘yinchoqlarni, rollar taqsimlanganida), (“men senga nima qildim, nima uchun sen men bilan shunday ish qilayapsan?” Kabi savollar bilan murojaat qilishga, “kel, yaxshilikcha sen bilan o‘ynaylik” kabi takliflar

qilishga o‘rgatish, “men boshqalar bilan rasm chizgim kelayapti, boshqa bolalar bilan o‘ynay qol” kabi tushuntirishlar orqali rad qilishga o‘rgatib boriladi.

- insonlarga nisbatan munosabatlarida muloqot qilishda qarama-qarshi chiqish qobiliyatini shakllantirish (o‘yin orqali bola yumshoq muloyim ovoz bilan “sehrli” “rahmat”, “iltimos” kabi so‘zlarni, boshqalarga nisbatan “balli”, “yasha” kabi so‘zlarni ifodalashi, bunda o‘z fikrinigina amalga oshirishi, hech kimga mazmunni o‘zgartirish imkonini bermasligi, qurilishga yangi narsalarni kiritishga bermasligi lozim (“sen buni yaxshi o‘ylabsan, lekin buning hojati yo‘q”).

- o‘z his-tuyg‘ulariga nisbatan qulq soladi, o‘zining hissiy holatini tushuntiradi.

- bola o‘z hissiyotlariga, o‘z hissiy holatlariga qulq sola boshlaydi. (“men xursandman”, “men mammunman”, “mening kayfiyatim yaxshi”, “mening jahlim chiqayapti”, “meni ranjitishdi”) kabi so‘z bilan ifodalashga o‘rgatish lozim.

O‘z hissiyotlarini ijobiy holatlarni ham, salbiy holatlarni ham so‘z bilan ifodalashi; boshqalarga nisbatan ijobjiy baholash qobiliyatini shakllantirib borish talab qilinadi. bolaning o‘zi to‘g‘risida, o‘z imkoniyatlari to‘g‘risidagi tasavvurlarini shakllantirishda kattalar (pedagog, oila a‘zolari) tomonidan baholanish katta rol o‘ynaydi. Tarbiyachidan bolaning ijtimoiy psixologik mavqeini bilib olish, xulq-atvoridagi yaxshi sifatlarni topishga intilishi, o‘z-o‘zini past va yuqori baholash bilan bog‘liq hissiy holatlarni “oldindan” ko‘ra bilishga yo‘naltirish lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov «Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch». Toshkent 2008y
2. I.A.Karimov — O’zbekiston XXI asrga intilmoqda!. Toshkent, O’zbekiston, 1999y
3. I.A.Karimov ||Barkamol avlod - O’zbekiston taraqqiyotining poydevori ||.Toshkent, S harq, 1997y
4. I.A.Karimov «Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir»- Toshkent 1995 y.
5. I.A.Karimov «Barkamol avlod orzusi» - Toshkent 1999 y.
6. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - Toshkent 2008 y.
7. O`zbekiston Rsepublikasining «Ta’lim to`g`risidagi qonun» - Toshkent 1997 y.
8. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari.T, O’zPFITI, 2000. Tuzuvchi mualliflar:M.Rasulova, H.Abdurahmonova va boshqalar.
9. O`zbekiston Respublikasi maktabgacha tarbiya. Toshkent 1992 y.
10. Maktabgacha ta’lim jurnali. №1 -2000 y.
11. Kadrlar tayyorlash bo‘yicha «Milliy dastur» - Toshkent 1997 y.
12. Maktabgacha tarbiya muassasasi to`g`risidagi nizom. - Toshkent 1995 y.
13. «Bolalar bog`chasida ta’lim-tarbiya dasturi» - Toshkent 1993 y.Tuzuvchi mualliflar:L.Mo’mnova, M.Ayupova, S.Karimova.
14. Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash tayanch-sinov dasturi. Toshkent - 1998 y.
15. Sh.Shodmonova, «Maktabgacha ta’lim pedagogikasi» Toshkent 2003
16. ||Uchinchi ming yillikning bolasi|| tayanch dasturi.2002y

## BUYUK KARL VA UNING IMPERIYASI PARCHALANISHI

*Aliyev Asqar Normurotovich  
Samarqand viloyat Ishtixon tuman 1-IDUM*

**Annotatsiya:** Buyuk Karl 742 yili tug‘ilgan u sulola asoschisi Pipin Pakananing o‘g‘li bo‘lib, Franklar qirolligini 46 yil boshqargan. “Buyuk” nomi tarixchilar tomonidan 53 marotaba harbiy yurishlar qilganligi sabab berilgan. U yirik sultanat tuzadi. Karl haqida ko‘plab hikoyalar, asarlar, afsonalar, rivoyatlar va qo‘shiqlar yaratilgan. Uning ismidan “korol” ya’ni “qirol” unvoni kelib chiqqan. Buyuk Karl 773-yili german qabilasi langobardlarga qarshi jang boshlaydi, langobardlar qiroli Dezideriy mag‘lub etiladi. Karlning jiyani Roland Arab xalifaligi istilo qilgan Ispaniyaga qarshi jangda halok bo‘ladi. Reyn daryosining o‘ng sohilida yashovchi sakslarga qarshi urushlar 30 yildan ortiq davom etadi. Bu urush Karl uchun ancha murakkab kechadi. Sakslar germanlarning Karlga bo‘ysunmagan so‘ngi yirik qabilasi bo‘lgan. Ammo baribir franklarga bo‘ysunganlar. “Buyuk Karl va uning imperiyasi parchalanishi” haqida batafsil ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so’zlar:** Tarix, sulola, hukmdor, imperiya, urush, sultanat.

Buyuk Karl (742.2.4814.28.1) -franklar qiroli (768 yildan), imperator (800-yildan), karolinglar sulolasi uning nomi bilan atalgan. Uning bosqinchilik urushlari (773—774 yillarda Italiyadagi Langobard qirolligiga, 772—804 yillarda sakslar yeri va boshqalarga qarshi) natijasida katta imperiya vujudga kelgan. B. K.ning olib borgan siyosati (cherkovga homiylik qilish, sud va harbiy islohotlar va boshqalar) G‘arbiy Yevropada yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishida muhim boskich bo‘lgan. Buyuk Karlning imperiyasi uning vafotidan so‘ng bir oz vaqt o‘tgach, parchalanib ketgan.

Buyuk Karl 742 yili tug‘ilgan u sulola asoschisi Pipin Pakananing o‘g‘li bo‘lib, Franklar qirolligini 46 yil boshqargan. “Buyuk” nomi tarixchilar tomonidan 53 marotaba harbiy yurishlar qilganligi sabab berilgan. U yirik sultanat tuzadi. Karl haqida ko‘plab hikoyalar, asarlar, afsonalar, rivoyatlar va qo‘shiqlar yaratilgan. Uning ismidan “korol” ya’ni “qirol” unvoni kelib chiqqan. Buyuk Karl 773-yili german qabilasi langobardlarga qarshi jang boshlaydi, langobardlar qiroli Dezideriy mag‘lub etiladi. Karlning jiyani Roland Arab xalifaligi istilo qilgan Ispaniyaga qarshi jangda halok bo‘ladi. Reyn daryosining o‘ng sohilida yashovchi sakslarga qarshi urushlar 30 yildan ortiq davom etadi. Bu urush Karl uchun ancha murakkab kechadi. Sakslar germanlarning Karlga bo‘ysunmagan so‘ngi yirik qabilasi bo‘lgan. Ammo baribir franklarga bo‘ysunganlar.

Charlz I Karolinglar sulolasining birinchi franklar qiroli Pepin Qisqichbaqaning o'g'li edi. Frank qirollarining yangi sulolasi Pepin Shortning otasi Charlz Martell sharafiga "Karolinglar" nomini oldi.

768 yilda Pepin Short vasiyatnomasi qoldirdi, unga ko'ra shtat uning o'g'illari - Charlz I va Karloman o'rtaida ikki qismga bo'lingan. Ammo akasining to'satdan vafoti Karl I ning Franklar davlati erlarini birlashtirishiga yordam berdi.

Charlz Men baland bo'yli, baquvvat va baquvvat,adolatli va dono, faol va jangovar hukmdor edim. Charlz Men o'z oldimga maqsad qo'ydim - mustahkam nasroniy davlatini yaratish. Varvarlarni bosib olish va nasroniylikni qabul qilish Franklar davlatining asosiy vazifasiga aylanadi. Franklar davlati shimolda va shimoli-sharqda saklarning german qabilalari bilan, sharqda slavyanlar bilan, janubda arab-musulmon Ispaniyasi bilan birga yashagan. Charlz I davlati urush natijasida yaratilgan va tinchlik bilan mustahkamlangan.

Charlz Men birinchi navbatda uning bosqinchilik yurishlari bilan mashhur bo'ldim. Uning qo'shini 53 martadan ko'proq yo'lga chiqdi, 27 marta podshohning o'zi qo'shin boshida edi. Charlz I harbiy yurishlar, harbiy g'alabalar va xristian cherkovi xizmati bilan mashhur bo'lishni orzu qilgan.

Buyuk Karl I davrida (xalq tomonidan shunday nomlangan) franklar tomonidan olib borilgan urushlarning sabablarini aniqlaydi va qayd qiladi: Dvoryanlar yangi yerlar va qaram dehqonlarni egallahsga, urushda qo'lga kiritilgan o'ljalar hisobiga boyib ketishga intildilar;

Cherkov bosib olingen hududlarda nasroniylikni yoyishga intildi; Karlning o'zi Men jamoatning g'alabalari va xizmati bilan ulug'lanmoqchi edim. Buyuk Karl I ning yurishlari haqidagi hikoyani "5-9-asr o'rtalarida Franklar davlati" xaritasi bilan birgalikda ishslash tavsiya etiladi.

Buyuk Karl I yurishlarining yo'nalishi va ularning natijalari  
Ispaniyaga  
Sakslar yurtiga  
Italiyaga

Musulmon arablarga qarshi. Pireney janubidagi ernoq franklar davlati qo'lga olindi va bir qismi bo'ldi.

Lombardlar mag'lub bo'ldi, ularning davlati yo'q qilindi. Italiya Franklar davlati tarkibiga kirdi.

Har yili harbiy yurishlar uyushtirildi.

1) Sakslar bilan urushlar.

Sakslar bilan urushlar 30 yil davom etdi. Sakslar butparastlar edi. Franklar hukmronligi va nasroniylik ularning odatiy turmush tarziga jiddiy halokat olib keldi.

Sakslar ham jangchilarga, ham ruhoniylarga qarshi kurashgan. Franklar esa bunga javoban minglab sakslarni juda shafqatsizlarcha qatl etishdi. 803-yilda franklarga qarshi kurashda ichki kuchlarini tugatgan sakslar nasroniy Yevropa tarkibiga kirdilar.

2) Sharq.

Sharqda Karl I slavyanlarga qarshi kurashmoqda. U sakslarga qarshi cheer (slavyan qabilasi) bilan ittifoq tuzadi, ularga ruxsat beradi

Elba daryosiga boring. Bu erda franklar avarlar - Osiyo cho'llarining ko'chmanchilari bilan uchrashadilar. Ikkinchisi o'z davlatini - Avar xoqonligini (zamonaviy Vengriya o'rnida) yaratdi. Avarlar Franklar qaramligidan xalos bo'lishga intilayotgan Bavariyaga yordam ko'rsatdilar. Tez orada franklar avarlarni yoki ular ham deyilganidek, "otliqlar imperiyasi"ni mag'lub etib, uni yer yuzidan yo'q qilishdi. Bavariya zabit etildi, franklar Dunayga yo'l oldilar. Franklar davlati ikki baravar ko'paydi.

3) Ispaniyaga.

Karl I ning ispan arablariga qarshi yurishlari mashhurdir. Bu yurishlarda Ispaniya hududining bir qismi bosib olindi. Pireney tog'laridan janubda Ebro daryosigacha - Charlz I davlatining chegara hududi. Bu yurishlar bir necha asrlar o'tib yaratilgan "Roland qo'shig'i" dostonida o'z aksini topgan.

"Roland qo'shig'i" nasroniy qo'shini qanday qilib bir kun muvaffaqiyatsizlikka uchragani va Pireney tog'lari orqali uyga qaytganligi va u erda mahalliy aholi - basklar tomonidan hujumga uchragani haqida hikoya qiladi. Jangda Karlning yaqin do'sti Xruodland o'ldirildi (she'rda - Roland).

4) Italiyaga.

Bu yo'nalishda Rimning davlat g'oyasi va uni amalga oshirishga chaqirilgan xalq kuchi to'qnash keldi. Buyuk Karl I va Rim papasi birgalikda Lombard qiroliga qarshi yurishdi. Ikki tomon o'rtasidagi qarama-qarshilik jarayonida Lombardlar qiroli taxtdan mahrum bo'ladi. Italiyada Karl I toj kiydi va Rimning homiysi bo'ldi. Fath qilingan yerlar Franklar davlatiga qo'shib olindi. Karl I hukmronligining oxiriga kelib, ko'plab qabilalar va xalqlar uning hukmronligi ostiga o'tdi. Franklar qirolligining hududi kattaligi bo'yicha sobiq G'arbiy Rim imperiyasiga yaqin edi.

3. 800 yilda Rimda Buyuk Karl I e'lon qilindi Rim imperatori. Rim papasi Karl I ning boshiga oltin imperator tojini qo'ydi.

Rim imperatori unvonni Franklar qirolining obro'sini ko'tardi, chunki u uni erta o'rta asrlarning eng qudratli hukmdori bilan tenglashtirdi - Vizantiya imperatori.

Karoling davlatining qudratli rivojlanishi va Vizantianing Yevropa qit'asidan chekinishi imperiya g'oyasining timsolini taqozo etdi. Bir tomondan, arablar, sakslar, slavyanlar, avarlar bilan urushlar bosqinchilik maqsadida, ikkinchi tomondan esa xristianlikni yoyish uchun olib borilgan.

4. Charlz Men imperator bo'lib, nasroniylik e'tiqodining himoyachisi vazifasini o'z zimmasiga oldim. Imperator va papa o'rtasida yaqin aloqalar belgilandi. Karl I tosh cherkovlar qurilishiga homiylik qilgan. Uning uy cherkovi Axen cherkovi bugungi kungacha saqlanib qolgan. Imperiyaning poytaxti Rim emas, balki Aaxen.

Franklar davlati xristian qadriyatlari asosida qurilgan. Bu uning qonunchiligidagi ifodalangan. Charlz I o'z fuqarolaridan itoatkorlik va sodiqlikni kutgan edi. Charlz Men butun imperiyani tumanlarga bo'ldim, ularning har birining boshida mahalliy zodagonlardan tanlagan bir kishi bor edi. grafik (lavozim). Graf soliq yig'di, sud o'tkazdi va militsiyaga rahbarlik qildi.

Maxsus topshiriqlar uchun Karl I ning yaqin doiralaridan "suverenning emissarlari" bor edi. Ular butun imperiya bo'ylab sayohat qildilar, mahalliy hukmdorlarning harakatlarini nazorat qildilar va imperator Karl I nomidan hukm qildilar.

Shunday qilib, Karl I o'z hukmronligini mustahkamlashga harakat qildi. Imperiya boshqaruvi samaradorligini oshirish uchun Karl I oliy kengash a'zolari, ruhoniylar va boshqa davlat amaldorlarining ta'limiga g'amxo'rlik qildi, shuningdek, o'z fuqarolarining xristian ta'limiga katta e'tibor berdi. Imperator saroyida maktab tashkil etilgan bo'lib, unda bo'lajak davlat amaldorlari tayyorlanadi. Uning buyrug'i bilan monastir va cherkovlar qoshida maktablar ochildi. Karl I Yevropaning ma'rifatparvar odamlarini taklif qila boshladi. Keyinchalik ular "Akademiya" nomini olgan ilmiy to'garakni tuzdilar.

### **Adabiyotlar:**

1. Kollinz, R. (2001).Buyuk Britaniya. Basingstoke: Palgrave Macmillan.
2. J. (2010).Buyuk Karl: imperiya va jamiyat. Manchester: Manchester Univ. Matbuot.
3. Sullivan, R. (2019).Buyuk Britaniya | Biografiya, yutuqlar va faktlar. [onlayn] Britannica entsiklopediyasi. Mavjud: britannica.com [Kirish 24 Jul. 2019].
3. Mark, J. (2019).Buyuk Karl. [onlayn] Qadimgi tarix ensiklopediyasi. Mavjud: ancient.eu [Kirish 24 Jul. 2019].
4. En.wikipedia.org. (2019).Buyuk Britaniya. [onlayn] mavjud: en.wikipedia.org [Kirish 24 Jul 2019].

**PEDAGOG JAMOADA SOG'LOM MUHITNI SHAKLLANTIRISHDA  
RAHBAR FAOLIYATINING AHAMIYATI**

*Saidqulova Gavhar Odiljon qizi  
Toshkent viloyati, Chirchiq davlat pedagogika instituti  
Ta'lif muassasining boshqaruv yo'nalishi 2-kurs magistranti*

**ANNOTATSIYA**

Maqolada ta'lif muassasalari jamoasida sog'lom muhitni yaratishning pedagogik-psixologik asoslarini tahliliga e'tibor qaratilgan. Jamoadagi psixologik zo'riqishlarni bartaraf etish, ta'lif muassasasi rahbari va bo'ysunuvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, xodimlarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkillashtirish, mehnat faoliyatini tashkil etishga takliflarni erkin kiritish imkoniyatini yaratish, jamoada do'stona, shuningdek faoliyatda hamkorlik munosabatlarini yaratish.

**Kalit so'zlar:** ta'lif, ta'lif muassasasi, o'qituvchi, pedagogik, psixologik, psixokorreksiya, korreksion pedagogika

**ABSTRACT**

The article focuses on the analysis of the pedagogical and psychological basis for creating a healthy environment in the community of educational institutions. Overcoming psychological tensions in the team, improving the professional skills of the head of the educational institution and subordinates, the proper organization of leisure time of employees, the opportunity to freely submit proposals for the organization of labor activities, team-friendly, as well as building partnerships.

**Keywords:** education, educational institution, teacher, pedagogical, psychological, psychocorrection, correctional pedagogy

Jamoani ijtimoiy-psixologik muhiti - guruhning eng ajralmas psixologik xarakteristikasidir, bu guruhning birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan alohida ob'ektlarni (hodisalarini, jarayonlarni) aks ettirishning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq ijtimoiy jarayondir.

Guruh faoliyatining samaradorligi jamoaning ijtimoiy- psixologik muhiti holatiga bog'liq.

Jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhit

**Sog'lom ijtimoiy- psixologik iqlimning eng muhim belgilari:**

- guruh a'zolarining bir-biriga bo'lgan ishonchi va yuqori talabchanligi;
- o'zaro do'stona va konstruktiv tanqid qilish;
- butun jamoaga tegishli masalalarni muhokama qilishda o'z fikrini erkin ifoda etish;
- menejerlarning bo'ysunuvchilarga bosimining yo'qligi va ularning guruh uchun muhim bo'lgan qarorlarni qabul qilish huquqini tan olishlari;

- jamoa a'zolarining vazifalari va ularni amalga oshirishdagi ishlar holati to'g'risida yetarli darajada xabardorligi;
- jamoa a'zolarida jamoaga tegishli bo'lganidan mammunlik hissiyoti;
- jamoaning har qanday a'zosida ko'ngilsizlik holatini keltirib chiqaradigan holatlarda (aldanish, umidsizlik, rejalar ni buzish) yuqori darajada hissiy ishtirok etish va o'zaro yordam;
- guruhning har bir a'zosi tomonidan ishlarning holati uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish va boshqalar.

**Ushbu dasturni amalga oshirishda quyidagi qushimcha tadbirlarni amalga oshirish zarur:**

- 1) rahbarlarning kasbiy mahoratini oshirish, mehnat jamoasini boshqarish va psixologik muhitni holatini normallashtirish bo'yicha adabiyotlarni o'rganish, tashkiliy va tarbiyaviy ishlar usullari va uslublari;
- 2) personal malakasini oshirish, kasbiy malakasini oshirish, xodimlarning karera rejalashtirish imkoniyatlarini ta'minlovchi kadrlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish;
- 3) jamoa bilan qo'shma tajribalarda yutuq va muvaffaqiyatsizliklarni aniqlash;
- 4) agar kerak bo'lsa, rahbarlik uslubini o'zgartirish orqali tashkilotdagi sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni yanada takomillashtirish;
- 5) psixologik muvofiqligi asosida jamoani shakllantirish;
- 6) boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida xodimlarning salohiyatidan foydalanish;
- 7) xodimlar o'rtasidagi rasmiy va norasmiy aloqalar chastotasining ko'payishiga ko'maklashish, ularning afzalliklarini ko'rsatib, ularning kasbiy o'sishiga ko'maklashish;
- 8) jamoaning bo'sh vaqtlarini birgalikda tashkil etish va o'tkazish:
  - sport musobaqalarini o'tkazish;
  - teatrlarga, kinolarga, konsertlarga qo'shma tashriflarni tashkil etish;
  - maxsus ayramlar, sanalar va marosimlar uchun ziyoftlar tashkil etish;
- 9) jamoa a'zolarining havaskor chiqishlarida ishtirok etish;
- 10) jamoa uchun psixologik yengillashtirish xonasini yaratish;
- 11) xodimlar o'z takliflarini kiritishlari mumkin bo'lgan guruhi shini yaxshilash uchun "takliflar va istaklar qutisini" yaratish;
- 12) tashkilot psixolog tomonidan davriy va doimiy psixologik treninglar.

Jamoadagi psixologik zo'riqishlarni bartaraf etish, ta'lim muassasasi rahbari va bo'ysunuvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, xodimlarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkillashtirish, mehnat faoliyatini tashkil etishga takliflarni erkin kiritish imkoniyatini yaratish, jamoada do'stona, shuningdek faoliyatda hamkorlik munosabatlarini yaratish.

## Dasturni amalga oshirish natijasida qo‘yidagi ijobiy ijtimoiy-psixologik muhit ko‘rsatkichlarini vujudga kelishi mumkin:

- jamoada ishbilarmonlik, ish kuni davomida ijodiy kayfiyat, xodimlar o‘rtasidagi munosabatlarda quvnoq ohanglari, kayfiyatdagi optimizm hukmronlik qiladi;
- munosabatlar hamkorlik, o‘zaro yordam, xayrixohlik tamoyillari asosida quriladi; guruh a’zolari hamkorlikda ishlarda qatnashishni, bo‘sh vaqtlarini birga o‘tkazishni yaxshi ko‘radilar; munosabatlarda ma’qullah va o‘zaro qo‘llabquvvatlash ustunlik qiladi, yaxshi konstruktiv tanqid bildiriladi;
- tashkilot xodimlari faol, kuch-qudratga to‘la, o‘zaro yordamda tezda javob berishadi, xodimlarning o‘zaro yordami kerak bo‘lsa, hamkasbini «to‘laqonli qamrab olishga» tayyorligi;
- ayrim xodimlarning yutuqlari yoki muvaffaqiyatsizliklari tashkilotning barcha a’zolarining hamdardligi va samimiyligi ishtirokini keltirib chiqaradi, agar muvaffaqiyatga erishilsa, xodimlar o‘z hamkasblari va o‘z tashkilotlari bilan faxrlanishni his qilishadi;
- tashkilot tarkibidagi tarkibiy bo‘linmalar yoki jamoadagi mikro guruuhlar o‘rtasidagi munosabatlarda o‘zaro kelishuv, tushunish va hamkorlik vujudga keladi;
- kadrlar qo‘nimsizligining pastligi. Xodimlar boshqa tashkilotlarga teng, ba’zan esa yuqori lavozimlarga o‘tkazilishidan ham bosh tortishadi;
- tashkilot uchun qiyin paytlarda jamoaning jipsligi va hissiy birligi mavjud ("bitta - hamma uchun, va hamma – bir kishik uchun").

Muhitni sog‘lomlashtirishda psixokorreksion yordamning samaraliligiga baho berish borgan sari aktuallashmoqda. **Bu mutaxassisning ta’sir eta olishi va psixokorreksion ishning sifatliligidandir.**

- Ishning samaradorligini baholashda aniq metodni belgilab olish zarur. Korreksion ishda ma’lum bir metodni oldindan tanlash qiyin, chunki ish faoliyatida psixologlar turli metodlardan foydalanadilar.

- Hatto bir metod har xil mutaxassisda har xil natija beradi.
- Ishning bahosini bu metoddan xabari bo‘lmagan ekspert berishi zarur. - Psixologning tarbiyaviy-ta’limiy sifatini hisobga olish kerak.
- Psixologning kasbiga bo‘lgan qiziqishini hisobga olish zarur.
- Guruhiy korreksion ishda psixologning professional bo‘lishi katta ahamiyatga ega.

- Psixokorreksion ishlarda mijoz psixologik ta’siridan so‘ng quyidagilarga qarab baholanadi:

- Ichki kechinmalarning sub’ektiv mohiyatining o‘zgarganligi.
- Ta’sir etgandan so‘ng respondentning ijobiy tomonga o‘zgarishi.
- Psixologik ta’sir samarasini belgilashda psixofiziologik metodlardan foydalanish mumkin. Ular insonning vegetativ-somatik fiziologik va psixik

funksiyalarini baholaydi. Psixokorreksion ta'sirning samaraliligi kriterisi har bir shaxsdagi salbiy o'zgarishlarni aynan uni o'ziga xos ekanligini hamda tanlangan psixokorreksion metodlar ta'siri shu o'zgarishlarga qaratilganligini hisobga olish bilan bog'liqdir.

Maqsad: profayling o'tkazuvchi xodimlarning kuzatuvchanlik sifati shakllanishining psixologik jihatlarini o'rganish orqali kuzatuvchanlik sifatini rivojlantirish.

Bu maqsadga erishishda quyidagi vazifalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.

- Kuzatuvchanlik sifatini muhim xarakterga ega ekanilagini anglab yetishga ko'maklashish.
- Tabiiy kuzatish usullarini o'rgatish va ob'ektiv xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish.
- Nizoli vaziyatlarda o'z xulq-atvorini korreksiya qilish malakasini shakllantirish.
- O'z emotsiyasini to'g'ri namoyon qila bilish va aggressiv reaksiyalarini jilovlay olishga qaratilgan bilimlarni xosil qilish.
- Boshqa odamlarning kechinmalari, xolati va qiziqishlarini tushunib yetishiga yordam berish.
- Shaxslararo nizolarni konstruktiv xal etish bilimini shakllantirish.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni amalga joriy qilish orqali biz quyidagi natijalarga erishishimiz mumkin:

1. Xodimda namoyon bo'layotgan kuzatuvchanlik sifati darajasini oshishi;
2. Xodimning o'z-o'zini anglashi, shu o'rinda o'z-o'ziga bahosini adekvat xolatga kelishi ;
3. Nizoli va muammoli vaziyatlarda xulq-atvorni meyorida ushlab turish;
4. O'zi va boshqalarning emotsiyalni xolatini solishtirishga, o'zidagi emotsiyalni zo'riqishlarni pasaytirish.
5. Xulq-atvor normalariga rioya qilish.

#### **Psixokorreksiyani o'tkazish shartlari:**

- Xodimning psixologik yordam olishi uchun ixtiyoriy roziligi ;
- Xodimning mutaxassisiga ishonchi;
- Korreksion dasturni amalga oshirish jarayonida xodim faolligi.

#### **Psixokorreksion guruh faoliyatining asosiy tamoyillari:**

- Masuliyatlilik tamoyili.
- Yaqinlik tamoyili.
- Qo'llab-quvvatlash tamoyili.
- Shu yerda va xozir tamoyili.
- Maxfiylik tamoyili.
- Seminarning boshidan oxirigacha qatnashish tamoyili.

**Psixokorreksiya jarayonini aks ettiruvchi 4ta asosiy strategiya mavjud:**

- Vaziyatni o‘zgartirish.
- Vaziyatni o‘zgartirish uchun o‘zini o‘zgartirish. □ Vaziyatdan chiqib ketish.
- Mazkur vaziyatda hayotining yangi jihatlariga etibor berish.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Дусмухамедова Ш.А. Психологические особенности педагогической оценки в обучении детей шестилетнего возраста: Автореф. дис.... канд. психол. наук. М., 1987. 24 с : Канд дис. – М.: НИИ АПН СССР, 1988.–162 с, 1987.
2. Дусмухамедова Ш., Салиева Д., Максимова Л. А. Соотношение уровня развития академической самостоятельности младших школьников с показателями учебной мотивации и стилем педагогической деятельности (на примере учащихся начальных школ Узбекистана) //Педагогическое образование в России. – 2020. – №. 2. – С. 77-83.
3. Дусмухамедов О. С., Дусмухамедова Ш. А. ЎЗБЕКИСТОН АҲОЛИСИНИНГ МОЛИЯВИЙ САВОДХОНЛИГИНИ ОШИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА //ББК 74.48 Р 76. – С. 193.
4. Khamidovna K. Z. Professional orientation of communicative competence of students //European science. – 2020. – №. 2-2 (51).
5. Касимова З. Х. Особенности национальных ценностей и межкультурных коммуникаций в содержании гуманитарного образования //Вестник науки и образования. – 2019. – №. 22-3 (76).
6. Khamidovna K. Z. Application of interactive methods in teaching psychology //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 9. – С. 197-205.
7. Khamidovna K. Z. Professional orientation of communicative competence of students.[Электронный ресурс] //Режим доступа: <https://scientific-publication.com/images/PDF/2020/51/EUROPEAN-SCIENCE-2-51-II-A.pdf>(дата обращения: 23.09.2020).
8. Касимова З. Х. ПРОЯВЛЕНИЯ МЕЖЛИЧНОСТНОЙ КОММУНИКАЦИИ В ЭПОХУ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КУЛЬТУР //International scientific review. – 2020. – №. LXX.
9. Касимова З. Х. РАЗВИТИЕ ВАЖНЫХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ В ЛИЧНОСТИ РУКОВОДИТЕЛЯ //International scientific review. – 2020. – №. LXXIV.
10. Касымова З. Х. ПОДГОТОВКА СПЕЦИАЛИСТА НОВОЙ ФОРМАЦИИ В ПРОЦЕССЕ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ СПОСОБОВ ОБУЧЕНИЯ //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в. – 2017. – С. 252-253.
11. Касимова З. Х. ПЕРСПЕКТИВЫ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ В УСЛОВИЯХ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ //Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-. – 2016. – С. 185.
12. Касимова З. Х., Джалилова Ф. С. Перспективы самореализации личности в условиях дистанционного обучения //Культура в евразийском пространстве: традиции и новации. – 2016. – С. 233-235.
13. Kasimova Z. H. The use of interactive methods in the development of critical and creative thinking //The edition is included into Russian Science Citation Index. – 2014. – С. 132.
14. Касимова З. Х. СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ЗАЩИТА ЛИЧНОСТИ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ ВОЗДЕЙСТВИЙ //Редакционная коллегия. – С. 133.
15. Khamidovna K. Z. et al. Psychological Aspects Of The Development Of Ecological Ideas Among Students //Psychology and Education Journal. – 2021. – Т. 58. – №. 2. – С. 7812-7818.

16. Назаров А. Психологические особенности руководителей, влияющие на принятие управленческих решений //Молодой ученый. – 2019. – №. 44. – С. 298-300.
17. Nazarov A. S. Psychological analysis of levels of administration of management decisions //Вопросы экономики и управления. – 2020. – №. 3. – С. 1-5.
18. Умаров Б. М., Назаров А. С. Низоли вазиятларда бошқарув қарорларини қабул қилишнинг ташкилий ва ижтимоий-психологик механизмлари //Молодой ученый. – 2020. – №. 7. – С. 352-353.
19. Nazarov A. S. et al. Қарор қабул қилиш бошқарув фаолиятининг психологик мезони сифатида //Молодой ученый. – 2020. – №. 11. – С. 280-282.
20. Назаров А. С. Adoption of management decisions as the main function of the modern manager //Проблемы современной экономики. – 2020. – С. 7-12.
21. Назаров А. С., Худайбергенова З. Socio-psychological features of management decision-making //Молодой ученый. – 2020. – №. 50. – С. 430-432.
22. Назаров А. С. Psychological aspects of managerial decision making //Молодой ученый. – 2020. – №. 44. – С. 45-48.
23. Назаров А. С. Принятие управленческих решений как основная функция современного менеджера //Вопросы экономики и управления. – 2020. – №. 2. – С. 1-5.
24. Nazarov A. S. Psychological foundations of managerial decision-making //Молодой ученый. – 2021. – №. 3. – С. 46-48.
25. Назаров А. С. THE PSYCHOLOGY OF DECISION-MAKING STRATEGIES //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2021. – №. 1-7. – С. 79-82.
26. Назаров А. С. и др. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗРАБОТКИ И РЕАЛИЗАЦИИ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2021. – №. 2-9. – С. 31-35.
27. Назаров А. Scientific and methodological foundations of the influence of the social and psychological properties of the manager on managerial decisions //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 4/S. – С. 523-532.
28. Назаров А. Научно-методические основы влияния социально-психологических свойств руководителя на управленческие решения //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 4/S. – С. 523-532.
29. Назаров А. С., Митина О. В. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРИНЯТИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ //Наука и мир. – 2020. – №. 12-1. – С. 73-75.

ZAMONAVIY RAHBAR UCHUN QO`YILGAN TALABLAR VA  
UNGA XOS BO`LGAN XUSUSIYATLAR

*Andijon davlat universiteti Ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti  
Pedagogika va psixologiya yo`nalishi  
2-bosqich 202-guruh talabasi  
Azimjonov Shohruxbek  
[azimjonovshohrux@gmail.com](mailto:azimjonovshohrux@gmail.com)  
Tel: (93)2419199*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy mavqyei rahbarlik faoliyatini bajarishida kuchli omilligi, Buning ahamiyati ayniqsa, sharq madaniyati misolida yaqqol ko‘zga tashlanishi haqida Hududimizdagi oddiy fuqaro rahbar shaxsida-nufuzli, o‘ziga to‘q va to‘la-to‘kis insonni ko‘rishni xohlaydi. Rahbar mayda iqtisodiy muammolarni bemalol hal qila olishi, katta ijtimoiy aloqalarga molik ekanligi bilan hamda o‘z aqliy qobiliyati, tajribasi bo‘yicha boshqa xodimlardan ustun turishi lozimligib haqidagi mazmunda.

**Kalit so`zlar:** mavqe, lavozim, tashabbus, intuitsiya, mas`uliyat, muvaffaqiyat, tashkilot, uslub

**Abstract:** This article is about the fact that a person's socio-economic status is a strong factor in leadership, and its importance is especially evident in the example of Eastern culture. wants to see a man. The leader is said to be able to solve small economic problems easily, to have great social connections, and to be superior to other employees in his mental ability and experience.

**Keywords:** position, position, initiative, intuition, responsibility, success, organization, style

Yuqori lavozimga mansub rahbar o‘z boshqaruv faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi uchun anchagina yuksak aqliy ko‘rsatkichga ega bo‘lishi kerak. Bunday salohiyat kutilmagan vaziyatni tahlil etishda, muammoni hal qilish jarayonida bir necha vazifani parallel ravishda boshqarish zaruratidan kelib chiqadi.

Lavozim talablari turli bo‘g‘in rahbarlari uchun turlicha aqliy salohiyat zarurligini ta’kidlaydi. Yuqori bo‘g‘in rahbarlari aniq ifodalangan ijtimoiy intellektga ega bo‘lishlari shart. Ular tashabbuskor, muloqotga boy, yuksak siyosiy va ijtimoiy mavqyega ega, ishga aloqadar tanish-bilishlari ko‘p, intuitsiyasi rivojlangan va tashkilot faoliyatining qayerga yo‘nalishini tezda payqab olishlari kerak. Har qanday tashkilotdagi asosiy og‘irlikni o‘ziga oluvchi o‘rtta bo‘g‘in rahbarlarida esa maxsus qobiliyat ko‘proq rivojlangan bo‘lishi lozim. Ular ishga diqqat-e’tiborli, mas’uliyatli,

katta hajmdagi miqdoriy va sifat ma'lumotlarini tahlil etish qobiliyatiga ega shaxslardir.

Yuqorida aytib o'tilgan umumiylar qobiliyatlar, muvaffaqiyatli boshqaruvni ta'minlovchi zarur shaxs xislatlarini aniqlash, va ularni rahbarlikda rivojlantirish masalasini dolzARB qilib qo'yadi. Natijada nafaqat mazkur xislatlarni aniqlash, balki bu yo'nalishdagi tadqiqotlarni tashkil etish bo'yicha bir qator vazifalarni hal etishni talab qiladi. Bu borada amaliy faoliyat olib boruvchi tadqiqotchilarining ta'kidlashicha, rahbarlarni baholash kadrlar bilan ishslash masalasining eng nozik qismiga aylangan.

Inson tajribasi va uning boshqaruv faoliyatida namoyon bo'lishi ikki asosiy masala orqali tahlil qilinadi. Birinchidan, yuqori bo'g'in rahbari uchun boshqaruv tajribasi zarur, shuningdek, ulardan hayotiy tajribaga ega bo'lish ham talab qilinadi. Ikkinchidan, o'rta bo'g'in rahbarida esa o'z sohasi bo'yicha kamida uch yillik tajriba bo'lishi lozim. Bu toifa rahbar tajribasini tahlil etar ekanmiz, asosiy e'tibor kasb sohasiga qaratiladi. Odatda psixologiya fanida qobiliyatning umumiylar maxsus turlari ko'rsatiladi. Umumiylar qobiliyatlar shaxsning har qanday faoliyatga kirishishida muvaffaqiyat uchun imkoniyat yaratса, maxsus qobiliyat faqat ayrim yo'nalishdagi faoliyat turida muvaffaqiyatga erishish uchun asos bo'ladi. Mana shunday umumiylar qobiliyat turkumiga inson aqlini, ya'ni intellektni kiritish mumkin.

Rahbar intellekti qanchalik yuqori bo'lishi kerak, degan savol, albatta, bahsdan xoli emas. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'ta yuqori intellekt yuksak rahbarlik malakalarini amalga oshirishga xalaqit berar ekan. Shunday deyishning asoslaridan biri – qaror qabul qilishda haddan tashqari aql ishlashish bu jarayonni yanada cho'zib yuborishi mumkin. Shuning uchun boshqa bir qator tadqiqotchilar, rahbarda nazariy aqldan ko'ra, amaliy aql rivojlangan bo'lishi kerak.

Darhaqiqat, oilada to'ng'ichlik o'z mavqeiga ko'ra ma'lum mas'uliyat ham demakdir. O'zbek oilalaridagi ko'pbolalik sharoiti to'ng'ich farzandga ota-onaga madadkor bo'lish, kichiklarga rahnamolik qilish va nazoratni o'z bo'yniga olishini taqozo etadi. Bu esa shakllanayotgan shaxsning tashkilotchilik va nazoratga bo'lган imkoniyatini yanada oshiradi, kelgusi faoliyatida o'z-o'zini idora eta olish qobiliyatini shakllantiradi. Ishlab chiqarish sharoitida inson xulqini tushunish va uni boshqarish uchun shaxs tabiat haqida ma'lum bir ma'lumotga ega bo'lish kerak.

Tashkilotda shaxs o'zgalar bilan munosabatga kirishar ekan, demak, u turli ijtimoiy guruhlar faoliyatida qatnashadi. Shu munosabat bilan shaxs a'zo bo'lган guruh va jamoalarga xos psixologik qonunlarni ham tahlil etish zarurati tug'iladi.

Boshqaruv jarayonini psixologik tahlil etish masalasi, avvalambor, rahbarning faoliyatini takomillashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Yosh rahbar boshqaradigan tashkilotdagi xodimlarning o'rtacha yosh ko'rsatkichi ko'pincha past bo'ladi. Yoshlik (30-35 yosh atrofida) bu yangilik va kashfiyotlarga moyillik, ijodiylilik, qo'rmaslik va o'zguruvchan muhitga moslashuvchanlik bilan ifodalanadi. Afsuski,

bunday tashkilotda katta yoshdagi (40-45 dan yuqori) xodimlarga, hatto, shubha bilan qarashadi. Lekin, aniqlanishicha, inson 35-55 yoshlarida o‘z kasbining mohir ustasiga aylanadi, o‘z sohasidagi bilimni yaxshi egallaydi va ixtirolarni joriy etishga o‘zida ishtiyoy sezadi. Shu bilan birga, unda vaziyatnisovqqonlik bilan tahlil etish, vazminlik kayfiyati shakllanadi.

Xulosa qilib aytrganda Rahbar bu maxsus tayyorgarlik ko’rgan,boshqarishning sir-asrорлари,qонун-қоидаларини пuxta egallagan malakali mutaxassisdir.Har bir menejer o‘ziga xos boshqaruv uslubiga ega.

Uslub-bu ishlash, boshqarishdagi o‘ziga xos yo’l,usul ma’nosini anglatadi. Rahbarning ish uslubi bu boshqaruv jarayonida u yoki bu masalani hal qilishda uning o‘ziga xos yondoshishidir.Rahbar qaror qabul qilganda,uning bajarilishini tashkil etganda va qo’l ostidagi kishilar ishini nazorat qilganda o‘z vazifalariga muvofiq ish ko’radi.Biroq,harbir rahbar bunda o‘ziga xos ravishda,boshqaruv jarayonida o’zi uchun mos bo’lgan,oz rahbarlik uslubini belgilaydigan usullar bilan harakat qiladi.Rahbarlik uslubi rahbarlarning o‘z qo’l ostidagilari bilan aloqasida,ularning o‘zaro munosabatlarida tarkib topadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2005.
2. Yo‘ldoshev M, Nazarova N. Rahbarlik psixologiyasida axloq. – Toshkent, 2010.
3. Karimova V., Xayitov O, Djalolova S. Boshqaruv psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2008.
4. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2006.
5. Mahmudov I., J.Qoraboyev. Rahbar shaxs psixodiagnostikasi. – Toshkent: Akademiya, 2013.
6. Rasulov M. Ijtimoiy-ruhiy menejment. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDIU nashri, 2007.
7. Quronboyev Q., Hayitov U. Rahbar ma’naviyatining boshqaruv samaradorligini oshirishdagi roli va ahamiyati. – Toshkent: Turon zamin ziyo. 2016.
8. G’oziyev E., Toshimov R. Menejment psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2001.

**RAHBAR SHAXSI UCHUN MULOQOT DAVOMIDA AMALDA BO`LISHI  
KERAK BO`LGAN PSIXOLOGIK XOLATLAR**

*Andijon davlat universiteti Ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti  
Pedagogika va psixologiya yo`nalishi  
2-bosqich 202-guruh talabasi  
Azimjonov Shohruxbek  
[azimjonovshohrux@gmail.com](mailto:azimjonovshohrux@gmail.com)  
Tel:(93)2419199*

**Annotatsiya:** Muloqot jarayonida boshqalarga ta'sir etish imkoniyati o'z haqimizda ijobjiy taassurot uyg'ota olishimizga bog'liq. Ijobiy munosabatlar shakllangan sharoitda o'zgaga ta'sir etish imkoniyati katta bo'lib, o'zimiz haqimizda ijobjiy taassurot uyg'otish mexanizmlariga taalluqli fikrlarni bayon etib o'tish lozim. Psixologiya fanida o'zgada ijobjiy yoki yoqimli taassurot uyg'otish simpatiya deb ataladi, salbiy yoki noxush taassurot qoldirish esa antipatiya deyiladi. Xo'sh, suhbatdoshda biz haqimizda simpatiya uyg'onishi uchun nima qilish kerak? Shunday savollarga quyida javob olishingizm mumkin.

**Kalit so`zlar:** antipatiya, simpatiya,

Ikki shaxs muloqotga kirishganda ularning o'zaro munosabatlaridagi ko'zga ko'rinas mas ba'zi bir xususiyatlarni tahlil qilib o'tish o'rinnlidir. Aynan shu «mayda» xususiyatlarni ko'p jihatdan o'zgada simpatiya uyg'otish manbaalari bo'lib xizmat qilishi mumkin. Mashhur psixolog A.A. Bodalev tanishuv jarayonida o'zgalar haqida qay tarzda ma'lumot olinishini aniqlash borasida maxsus tajribalar o'tkazgan.

Aniqlanishicha, boshqa odam idrok qilingan paytda birinchi bo'lib uning soch turmaklashiga e'tibor qaratilar ekan. Sochdan keyin e'tibor insoning ko'ziga qaratiladi. Ma'lumki ko'z, o'z navbatida, inson haqida juda ko'p ma'lumot beradi. Boshqa tadqiqotlar orqali aniqlanishicha, inson ko'z qorachig'ining me'yordan ko'ra salgina kengayishi o'zga kimsalarda unga nisbatan jozibadorlik ruhini uyg'otadi. Aksincha, ko'z qorachig'inig torayishi esa atrofdagilarni o'zidan jerkish kuchiga egaligi aniqlangan. Quvnoq va hayotga zavq bilan qaraydigan kimsalar nafaqat tabassum qiladilar, balki ularning ko'z qorachig'i ham noxush his uyg'otuvchi kimsalarga nisbatan kengroq bo'lar ekan. Demak, insonning aynan yuz ifodasi simpatiya uyg'otuvchi birlamchi manba hisoblanadi. Shundan so'ng insonning tana harakatlari, gavdasini tutishi, yurish turishi idrok etiladi. O'ziga va imkoniyatlariga ishongan kimsa doim qaddi-qomati tek turadi va hatto o'zidan faxrlanish hissini yog'dirib turadi. Navbatdagi e'tibor qaratiladigan jihat muloqot jarayonidagi kimsaning shaxsiy xislatlaridir. Bir-birining tashqi qiyofasiga e'tibor qaratgan suhbatdoshlar ma'lum

vaqtan so‘ng «Bu qanday kimsa?», «U qanday xislatlarga ega?» degan savollarga javob izlay boshlashadi. Aytib o‘tilgan idrok bosqichlari muloqot jarayonida o‘ziga nisbatan simpatiya uyg‘otish asoslarini shakllantirish imkonini beradi. Va kezi kelganda o‘zgalarga nisbatan noo‘rin uyg‘onayotgan birlamchi taassurotlarni yengib o‘tish, ularning ta’sirida chalg‘ib qolmaslik uchun ham imkoniyat yaratadi. Noverbal signallar, aksariyat hollarda ixtiyoriy boshqarish doirasidan chetda bo‘lib, odamning haqiqiy his-tuyg‘ulari, niyat va xohishlari ko‘rsatkichi desak, xato bo‘lmaydi. Masalan, ikki qo‘lni ko‘krak oldida qovushtirib, oyoqlarni tizzaga ustma-ust qo‘yish yopiq holatni anglatadi va bu holat suhbatdoshning muloqotdan o‘zini chetga olishi deb talqin etilishi mumkin. Aksincha, qo‘llarning yon atrofda joylashishi, kaftlarning ochiqligi va oyoqni kerib sal oldinga engashib turish, o‘tirish suhbatdoshga va muloqot mazmuniga xayrixohlikni anglatadi.

Suhbatdoshning ochiq yoki yopiq tana holati muloqot davomida o‘zgarib turuvchi ko‘rsatkich bo‘lib, suhbat mazmuni qanday o‘tayotganligiga qarab u bizga ochiq bo‘lishi, va agarda suhbat unga noqulayliklar tug‘dirganda esa yopiq pozani egallashi mumkin. Masalan, ikki yaqin do‘sit muloqotini kuzatsak, ularning tana harakatlarida yopiqlik alomatlari deyarli ko‘rinmaydi. Ularning o‘zaro xayrixohlik holati nafaqat tanasida, balki o‘rtadagi masofaning yaqinligida, o‘zaro suhbatdagi muloyim tovush intonasiyasida, yuzidagi yengil tabassum ifodasida aks etadi. Aynan shu ko‘rsatkichlar muloqot jarayonining ijobiyo yo‘nalishda o‘tayotganligi haqidagi asosiy belgilardir. Muloqot vaziyatida bunday belgilarning kuzatilishi, o‘zaro munosabatning yaxshi o‘rnatilganligini, suhbatning ikkinchi bosqichiga o‘tish mumkinligidan dalolat beradi.

Biroq, suhbatdoshdan kelayotgan noverbal signallar uning yopiq holatdaligidan dalolat berib, muloqotning ikkinchi bosqichiga o‘tish imkoniyatini cheklab qo‘yishi ham mumkin. Bunday vaziyatda rahbar qanday ish tutishi lozim va qanday harakatni amalga oshirishi mumkin? Zamonaviy psixologiya fani shunday bilim va ko‘nikmalarni bayon qilishi mumkinki, ularning ayrimlarini qo‘llash muloqot muhitini ijobiylashtirishga, o‘zaro munosabatlarni yanada muqobillashtirishga ko‘mak bo‘ladi. Bu boradagi birinchi va joiz qadamlardan biri – rahbarning tashqi qiyofasi va ichki dunyosida muloqot uchun ijobiy holatning aks etishidir. O‘zgaga xayrixohlik, samimiyy munosabat, uning manfaatlari haqida qayg‘urish alomatlari o‘z navbatida, xodim shaxsida ham shunday javoblarning uyg‘onishiga ta’sir etadi. Passiv tinglashda esa boshqa tomonni tushunish borasida tushunish alomatlari minimal darajada namoyon etiladi. Masalan, oddiygina bosh qimirlatib tasdiqlash, «hmm», «ahha», «tushunarli» kabi iboralar bilan cheklanish. Muammoli va qiyin vaziyatdagi muloqot olib borishda iloji boricha faol tinglash malakasini namoyon etish lozim. Bunday sharoitda passiv tinglash suhbatdoshlar orasida tushunmovchilikni, o‘zga tomon holati va tasavvuri haqida ma’lumot yetishmovchiliginu yuzaga keltiradi.

Xulosa o`rnida shuni aytish kerakki, har bir muloqot vaziyati xususiyatidan kelib chiqqan holda faol yoki passiv tinglash turlarini qo'llash mumkin. Lekin nazarda tutilayotgan muloqot vaziyatida aynan faol tinglash uslubidan foydalangan ma'qul. Oddiygina bir buyruq bilan xodimni deyarli har qanday ishni zimmasiga olishga majbur etish mumkin. Ammo, ishning natijasi qanday bo'lishi, vazifani bajarishga xodimning qanchalik sidqidildan munosabatda bo'lishi, topshiriq sifatini hal etadigan asosiy omildir.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Karimova V., Xayitov O, Djalolova S. Boshqaruv psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2008. – 208 b.
2. Mahmudov I., J.Qoraboyev. Rahbar shaxs psixodiagnostikasi. – Toshkent: Akademiya, 2013. – 118 b.
3. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent. 2006. – 230 b.
4. Quronboyev Q., Hayitov U. Rahbar ma'naviyatining boshqaruv samaradorligini oshirishdagi roli va ahamiyati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016. – 60 b.
5. G'oziyev E., Toshimov R. Menejment psixologiyasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent, 2001. – 137 b.

## ZAXIRA KADR IMIJINI TALABLARGA MOSLASHTIRISH NAZARIYASI

*Andijon davlat universiteti Ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti  
Pedagogika va psixologiya yo`nalishi  
2-bosqich 202-guruh talabasi  
Azimjonov Shohruxbek  
azimjonovshohrux@gmail.com  
Tel: (93)2419199*

**Annotatsiya:** Ma'lumki, boshqaruv - murakkab kasblardan biri bo'lib, u na-faqat iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik bilimlami nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham o'zlashtirgan holda yetarli tayyorgarlik-ka ega boiishlikni talab etadi. Bunda umumiy, texnik, iqtisodiy, omilkorlik va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lish bilan birga, rahbar barcha haqiqatlarni tushunish orqali ko'p qirrali vaziyatlar- da, sharoitlarda o'z qiyofasini amaliy tarzda to'g'ri ifoda eta olishni bilishi zarur. Vaholanki, rahbar tomonidan olib boriladigan boshqaruv jarayonini maqsadga muvofiq ravishda amalga oshishi uchun qiyofaning roli ham katta ahamiyatga ega bo'ladı.

**Kalit so`zlar:** mavqe, lavozim, tashabbus, intuitsiya, mas`uliyat, muvaffaqiyat, tashkilot, uslub

**Объявление:** Известно, что менеджмент – одна из самых сложных профессий, требующая достаточной подготовки не только в экономических, социальных и психологических знаниях, но и в теории и на практике. В дополнение к общим, техническим, экономическим, операционным и организационным навыкам лидер должен уметь формулировать свой образ в различных ситуациях и контекстах, понимая все факты. Однако роль имиджа также важна для того, чтобы процесс управления осуществлялся целенаправленно.

**Ключевые слова:** позиция, позиция, инициатива, интуиция, ответственность, успех, организованность, стиль.

Rahbar shaxsining barcha qobiliyatlarini mukammallashtirish boshqaruvda qanchalik ahamiyat kasb etsa, rahbarda qiyofani max-sus shakllantirish bilan professional faoliyatda kamolotga erishish ham shunchalikmuhim. Rahbar qiyofasi deganda, imij so'zining ifo-dasi namoyon bo'lar ekan, bu boradagi turli xil ta'riflami keltirish, ulami tahlil qilish va o'rganish uning yanada chuqurroq mohiyatini anglab yetish hamda ushbu mazmunda teran fikr yuritishga unday-di. Masalan, boshqaruv jarayonida rahbar imijini yaratish va shakl-lantirishning turli tamoyillarini tadqiq qilish "imij" fenomeni shaxs tamoyili va ta'sir ko'rsatish psixologiyasi nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda tahlil etilganligini e'tirof etish kerak. Ko'plab

mutaxassislar tadqiqotlar orqali qo‘lga kiritilgan natijalarga tayanib - imij - uni uzatish usulini o‘zgartirish orqali yaratiladi, deb hisoblaydilar.

Marketing psixologiyasida “imijni boshqarish tamoyili” tushunchasi mavjud bo‘lib, yuz yillar oldin G‘arbda ishlab chiqarishdagi jamoaning psixologiyasini boshqarish strategiyasini yaratishni boshiaganlar. Rahbaming imiji to‘g‘risidagi tasawur munosa- batlardagi guruhga ularga yetib kelgan ma’lumot asosida yaratiladi va ongiga singadi. Ushbu “PR” tamoyilining muallifi, deb amerika- lik tadqiqotchi A.Lini hisoblash mumkin.

Imijni shakllantirishning ayrim strategiyalari aslida ko‘proq muvaf- faqiyatli raqobatchilik omillarini eslatadi. A.Solovyev imijni yaratish texnikasini muvaffaqiyatli raqobatchilik omillari yig‘indisi, deb aytadi. U: “Ishlatilayotgan texnologiyalar asosan: muloqot uslubi, nostandard holatlarda o‘zini tutishi, tanazzul vaqtidagi holatlari, tashqi ko‘rinishi (kiyim, soch turmag), mimikasiga tegishli”, - deb hisoblaydi. A.Solovyevning fikricha: “Imij maqsadli ravishda uzatilayotgan ma’lumot va kommunikativ oqim ustidan nazorat o‘matgan holda shakllantiriladi. Siyosiy jihatdan olib qaralganda, nomzodning eng muhim tomonlarini mujassamlashturuvchi xususiyatlarini tanlash bilan bir qatorda, quyidagilar ham e’tiborga olinishi kerak:

- a) nomzodning jamoat ongida qoldirgan oldingi tasavvuri (harn- mada ma’lum siyosatning obrazi bir kunda o‘zgarishi mumkin emas);
- b) saylovchilaming ijtimoiy kutishi (jamoa undan nimani kut- moqda);
- v) saylov kompaniyasi tanlagan strategiya”.

Imij - bu tashqi qabul qilinuvchi obrazdir. Zamonaviy ta- moyillaming ko‘pchiligi ta’sir qilish yo‘llaridan foydalanishning aksentualizatsiyasi asosida qurilgan. Bu yondashuvning nazariyotchilari filolog va jumalistlar hisoblanadilar. Imijni informatsion yaratish tamoyili muallifining e’tirof etishicha: “Insonning imiji go‘yoki ikki yo‘nalishda shakllanadi. Bir tomonidan, u ommaviy kommunikatsiya oqimlari talablariga javob berishi kerak. TV ga to‘g‘ri keladigan vizual axborot oqimi aksariyat holatlarda iste’mol liderlarini birinchi o‘ringa olib chiqadi. Bu yo‘nalishga - kiyinish usuli, gapirish, soch turmag, qarash, poza, mimikalar kiradi. Bular so‘z orqali uzatilmaydigan 69 foiz axborotni beradi. Aynan ush- bu ma’lumotlar ta’sirida kishilar o‘zlarining asosiy xulosalarini chiqaradi. Ma’lumki, suhbatdoshni baholash dastlabki 15 sekundda yuz beradi. Semiotikaning qo‘llanish nazariyasi va texnikasi - ancha zamo- naviy hisoblansa-da, atrof-muhitni keskin va tez o‘zgartiradigan qarorlami qabul qilish vaqt, go‘yoki individga doimiy o‘zini o‘zi tahlil qilish imkoniyatini qoldirmaydi, - deb tushuntiradi. Bunday holatlarda semiotika faqatgina qoniqarli (ko‘rinarli) natijaga kelish- ga yordam beradi.

Menejmentda nima foyda keltirsa shu to‘g‘ri, lekin shaxsiy o‘zgarishlar ustida ishlaganda bu yondashuv noto‘g‘ri.

“Hech qanday imijeologiya real narsalar o‘mini bosa olmaydi, u faqatgina ijobiy tomonlami kuchaytirib, yomon tomonlami yashi- rishga yordam beradi xolos. Agarda haqiqat imijga mos kelmasa, u buziladi. Ammo bu jarayon semiotika “texnika”siga ziddir”.

“Nikkolom” firmasining konsultantlari esa imijni shakllantirish jarayonining asosiy masalalarini quyidagicha tasavvur etadilar: “Siyosatchining jamoa oldidagi asosiy masalasi - o‘zini namoyish qilishni optimal ko‘rinishini, o‘zini ommaviy “Men”nini ishlab chiqishdir.

Imijni o‘zgartirish doimiy ravishda og‘riqli kechadi, chunki u o‘z- o‘zini baholashga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qiladi. Rahbaming egoist- ligi tufayli, ba’zida, “xo‘jayin” obraziga o‘zgartirish kiritish kerak, degan taklif maslahatchini shaxsiy dushmanga aylantirib qo‘yishi mumkin. Gap faqatgina qanday maslahat berishda ham emas. Aslida rahbar - bu o‘z afzallik va kamchiliklari yordamida muvaffaqiyatga erishgan insondir. Mana shunday sinovlardan o‘tgan, o‘rganib qol- gan muvaffaqiyatli “o‘zini tutish modeli”ni hamda o‘zining “omma- viy Men”ini unchalik ishonchli bo‘lmagan “ideal model”ga o‘z ix- tiyori bilan o‘zgartirish kelarmikan? Fikrimizcha, ushbu psixologik muammoga mahalliy olimlarimiz hali yetarlicha e’tibor berishmagan. Ko‘plab nashrlar ko‘proq rahbaming emas siyosiy lideming imijiga bag‘ishlangan. “Lider imiji” ta’rifida o‘z-o‘zini baholash ish faoli- yatida iz qoldiradi deyilgan: past baho berish lidemi yangi qiyinchi- liklami yengishga undaydi, yuqori holatdagi baholash xalaqit beradi va faqatgina adekvat baholash o‘zinigina o‘ylamasdan, balki muno- sabatlarda aloqalami yaxshilaydi”.

Haqiqatda esa imijni o‘zgartirish va talablarga moslashtirish (korreksiyalash) deganda, o‘ziga nisbatan bahoni qayta ko‘rib chiqish hamda oshirish haqida gap ketadi. Imijni shakllantirishning muallif taklif etayotgan usulini “shaxsiy o‘sish” strategiyasi, deb atash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

B.Jining fikricha, o‘ziga past baho beradigan odamdagи bo‘shliqni muvafqaqiyat toidira olmaydi, balki faqat o‘ziga boigan muhabbatgi- na yordam bera oladi. O‘ziga baho berishni faqatgina yangi muvaffa- qiyatlar orqali yuksaltirish murnkin, ya’ni “imij yaratish - sizdagi bor yaxshi xususiyat va sifatlami yuzaga olib chiqish, shakllantirish de- makdir”. Shu bois, hozirda olib borilayotgan qator tadqiqotlarda imijini o‘zgartirish va talablarga moslashtirish masalasi “shaxsiy o‘sish strategiyasi” sifatida qabul qilingan.

### **Zaxira kadr imijini aniali y jihatdan shakllantirish va rivojlantirish bosqichlari**

Zamonaviy fan imijni amaliy jihatdan rivojlantirish va shakllantirish istagida bo‘lgan rahbarlikka da’vogar (nomzod), ya’ni zaxira kadrlar oldiga quyidagi o‘nta‘ bosqichni aniqlashtirish masalasini qo‘yadi:

1. O‘zgarish kerakligini aniqlash.

2. Aniq maqsadlarni shakllantirish.
3. Haqiqiy imijni baholashning anglanganligi.

Amerikaliklar- da shunday ibora bor: “Qayoqqa qarab harakat qilishni tushunish uchun, qayerda turganingni aniqlashing kerak”. Ko‘pincha “imij ega”si obyektiv haqiqatni aniqlashning uddasidan chiga olmaydi. Lekin bu muammo psixodiagnostika usullari yordamida yechilishi mumkin.

4. “Ideal imij”ni aniqlash.
5. Xohlayotgan o‘zgarishlar to‘plamini aniqlash.
6. “Ideal imij” va “qulay hududlar”ni qiyoslash..
7. Maqsadga erishish yo‘llarini aniqlash.
8. OAV bilan munosabatga tayyorlanish.
9. Katta kommunikativ kenglikka chiqish.
10. Natijalarni tekshirish va yangi o‘zgarish!ar kiritish kerakligini anglash.

Hayot bir joyda muqim turmaydi va hatto eng ijobjiy imij ham vaqt kelib o‘zgarishlarni hamda zaruriy talablarga qayta moslashishlami (korreksiya) talab qilishi mumkin. Bunday vaziyatlarda esa, kognitiv psixologiyaga asoslangan holda, haqi- qiy professional psixolog rahbar (yoki yangi lavozimga da’vogar) ga o‘zini o‘zi shakllantirish va talablarga moslashtirish uslublarini ham o‘rgatishi kerak bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida zaxira kadr imijini shakllantirishda kelajakdagi o‘zgarishlarga ehtiyoj sezilib, jamiyatda ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar bosqichi boshlanmoqda. Yangi zamo- naviy rahbarning imiji - bu san’atni qadrlovchi, “sog‘lom yashash tarzi”ni targ‘ib qiluvchi, oilaparvarlik, vatanparvarlik tuyg‘ulari- ga ega hamda “ommaviy” ma’lumot sohibi demakdir. Imij nafaqat “omma fikri”ga mos kelishi, balki bu fikmi shakllantirishi ham kerak.Demakki, imij yaratish strategiyasini yaxlit holdagi ijti- moiy-psixologik dinamik jarayon sifatida tasavvur qilish mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. **Hayitov O.E.** Iqtisodiy psixologiya: 0‘quv qo’llanma. Oliy o‘quv yurtlari magistratura bosqichi talabalari uchun. - T., 2009.
2. **Olimov M.S.** Sport pedagogik mahoratini oshirish (yengil atletika) [Matn]: darslik / M.S. Olimov, I.R. Soliyev, B.Sh. Haydarov. — T., 2017.
3. Suv xo‘jaligida menejment psixologiyasi (o‘quv qoTlanma) / O'.P.Umurzoqov muharrirligi ostida; R.Z.Asanova, Z.K.Ismailova, J.X.Rashidov, Q.O.Shovazov, B.U.Hasanov, B.X.Shafqarov, Z.M.Muqi- mov, U.E.Xoliyorov, I.L.Abdurahimov. - T., 2012.
4. **Umarova N.Sh.** Mehnat psixologiyasi: 0‘quv qoTlanma. - T, 2018.
5. Umumiy psixologiya: 0‘quv qoTlanma /N.Sh.Umarova, D.N.Ar- ziulov; Mas’ul muharrir O.E.Hayitov; 0‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus taTim vazirligi. - T., 2018.

TURLI RAHBARLIK USLUBLARINING PSIXOLOGIK TAVSIFI

G.R.Tojiboyeva

Andijon davlat universiteti Umumiy psixalogiya kanfedrasi dotsenti

Azimjonov Shohruxbek Ulug'bek o'g'li

Pedagogika va psixalogiya yo'nalishi 202-guruhi talabasi

E-mail: azimjonovshohrux43@gmail.com

@shoh\_1199

Telefon: +998(93)2419199

**Annotatsiya:** Uchbu maqolada raxbarlik uslublarining psixologik taxlili va tavsifi haqida atroficha taxlil qilingan. Turli rahbarlik uslublari, usullari xodimlar bilan ishslashning psixologik tomonlari keng yoritilgan. Zamonaviy rahbar aslida qanday uslub va uskunlardan foydalanishi kerak, Har bir rahbar boshqaruv faoliyatida o'z vazifalarini o'ziga xos uslubda bajarishi kerak aslida. Rahbarlik uslubi rahbarning jamoani o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishda tashabbuskorlik va ijodiy yondashishga undash usullaridan, qo'l ostidagilar faoliyati natijalarini qanday nazorat qilish kerakligini aynan manashu maqolada yoritib bergenmiz.

**Kalit so'zlar:** raxbar, uslub, usul, psixologik, xodim, ob'ektiv component

Rahbarning unga xodimlar tomonidan boshqarish uslubi ko'p jihatdan tashkilot muvaffaqiyatini, kompaniyaning rivojlanish dinamikasini belgilaydi. Xodimlarning motivatsiyasi, ularning ishga munosabati, psixologik munosabatlari va boshqalar yetakchilik uslubiga bog'liqdir.

Har bir rahbar boshqaruv faoliyati jarayonida o'z vazifalarini o'ziga xos uslubda bajaradi. Rahbarlik uslubi rahbarning jamoani o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishga tashabbuskorlik va ijodiy yondashishga undash usullarida, qo'l ostidagilar faoliyati natijalarini qanday nazorat qilishda ifodalanadi. Qabul qilingan yetakchilik uslubi rahbar faoliyatining sifati, uning samarali boshqaruv faoliyatini ta'minlash qobiliyatining o'ziga xos xususiyati bo'lib xizmat qilishi mumkin, shuningdek, jamoada qulay munosabatlari va xatti-harakatlarning rivojlanishiga hissa qo'shadigan o'ziga xos muhit yaratadi. Rahbarning o'z vakolatlarini qay darajada topshirishi, qo'llayotgan vakolat turlari, uning eng avvalo insoniy munosabatlarga yoki birinchi navbatda topshiriqni bajarishga e'tibor qaratishi bu rahbarning yetakchilik uslubini aks ettiradi.

"**Uslub**" so'zi yunon tilidan olingan. Dastlab, bu mumli doskaga yozish uchun tayoqni anglatardi, keyinchalik u "qo'l yozuvi" ma'nosida ishlataligani. Bu erdan biz etakchilik uslubi boshqaruvchining harakatlaridagi o'ziga xos "qo'l yozuvi" ekanligini taxmin qilish mumkin.

Etakchilik uslubi - bu maqsadga erishish jarayonida rahbarning xodimlarga nisbatan xatti-harakatlarining tipik turi. Boshqaruv funktsiyalarining tarkibiy qismlaridan biri bu etakchilik (boshqaruv).

Etakchilik uslubi - tashkiliy vazifalar va boshqaruv funktsiyalarini bajarish uchun jamoaga rahbarga ta'sir qilish usullari, uslublari, raxbar xodimlarini barqaror individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan xolda yondashishi muhimdir. Bu rahbarning qo'l ostidagilarga ta'sir o'tkazish va ularni tashkilot maqsadlariga erishishga undash uchun odatiy xatti-harakatidir.

Uslub barqaror bo'lib, bu turli xil boshqaruv usullaridan tez-tez foydalanishda namoyon bo'ladi. Ammo bu barqarorlik nisbiydir, chunki uslub odatda dinamizm bilan tavsiflanadi. Mavjud vaziyatga mos keladigan to'g'ri ishlab chiqilgan etakchilik uslubi engib bo'lmaydigan to'siqlarni engib o'tishga qodir. Va u tizimni kutilmagan yuqori natijalarga olib boradi. Rahbarlik uslubi asosan belgilanadi individual fazilatlar yetakchi shaxs. Ammo ularning barcha ahamiyatiga qaramay, shaxsiy xususiyatlar boshqaruv uslubini tashkil etuvchi boshqa tarkibiy qismlarni istisno qilmaydi. Ushbu komponentlar uslubning sub'ektiv elementini tashkil qiladi, lekin uslub doimo umumiy ob'ektiv asosga ega.

Ob'ektiv ravishda, rahbar qanday uslubni tanlamasin, uning tanlovi uning harakatlarining yo'li va usulini tavsiflovchi ongli maqsad bilan belgilanadi. Bundan tashqari, uslubning boshqa ob'ektiv komponentlari ham mavjud. Bularga quyidagilar kiradi: boshqaruvning muntazamligi; muayyan faoliyat doirasining o'ziga xos xususiyatlari; menejerlar uchun yagona talablar; ijrochilarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (yoshi, jinsi, malakasi, kasbi, qiziqishlari va ehtiyojlari va boshqalar); boshqaruv ierarxiysi darajasi; yuqori menejerlar tomonidan qo'llaniladigan boshqaruv usullari va usullari. Uslubning ushbu ob'ektiv komponentlari menejer faoliyatidagi uyg'unlikni, ishlab chiqarish funktsiyasi va jamoadagi munosabatlarni tartibga solish funktsiyasini, unda shakllangan an'analar va aloqa usullarining tabiatini, shuning uchun ish uslubini ko'rsatadi.

Liderlik uslubini o'rganish psixologlar tomonidan yarim asrdan ko'proq vaqt davomida olib borilgan. Tadqiqotchilar ushbu muammo bo'yicha ko'plab materiallarni to'plashdi.

Har bir rahbar boshqaruv faoliyati jarayonida o'z vazifalarini o'ziga xos uslubda bajaradi. Rahbarlik uslubi rahbarning jamoani o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishda tashabbuskorlik va ijodiy yondashishga undash usollarida, qo'l ostidagilar faoliyati natijalarini qanday nazorat qilishda ifodalanadi. Qabul qilingan etakchilik uslubi rahbar faoliyatining sifati, uning samarali boshqaruv faoliyatini ta'minlash qobiliyatining o'ziga xos xususiyati bo'lib xizmat qilishi mumkin, shuningdek, jamoada qulay munosabatlар va xatti-harakatlarning rivojlanishiga hissa qo'shadigan o'ziga xos muhit yaratadi.

Har qanday boshqaruv faoliyati sub'ektiv asosga ega. Rahbar biron bir qaror qabul qilishdan oldin, avvalo, hamma narsani aqlan o'ylaydi mumkin bo'lgan usullar xodimlarga ta'sir qiladi va vaziyatga qarab, o'z fikricha, eng mosini tanlaydi. Va menejerning vazifalari ish ta'rifi bilan belgilanishiga qaramay, ish uslubi rahbarning o'ziga xos shaxsiyatining iziga ega. Rahbarning uslubida uning shaxsiy fazilatlari namoyon bo'ladi, ular jamoaning xususiyatlari va ehtiyojlariga qarab bir oz farq qiladi. Uslubga rahbarning aql-zakovati va madaniyati, kasbiy va siyosiy tayyorgarlik darajasi, xarakter xususiyatlari va temperamenti, rahbarning axloqiy fazilatlari, qo'l ostidagilarga e'tiborli bo'lish qobiliyati, jamoani boshqara olish qobiliyati, ishtiyoq muhitini yaratish kuchli ta'sir ko'rsatadi. ish uchun, kamchiliklarga toqatsizlik va befarqlik.

Binobarin, etakchilik uslubida, bir tomondan, uning umumiyligi ob'ektiv asoslari, ikkinchi tomondan, boshqaruv funktsiyalarini amalga oshirish uchun ushbu menejerna xos bo'lgan usullar va usullar ajratiladi. Uslubning ob'ektiv komponenti boshqaruv faoliyatiga qo'yiladigan ijtimoiy va iqtisodiy talablarning yig'indisi bilan belgilanadi. Subyektiv komponentlar menejerning shaxsiy xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Ammo agar uslub o'zining ob'ektiv asosini aniq ajrata olmasa, unda yo'q, hatto etakchining eng zo'r fazilatlari ham tashkilot muvaffaqiyatini ta'minlay olmaydi.

Rahbarlik uslubini tafsiflovchi asosiy omillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Rahbarlarning malakasi, samaradorligi, mas'uliyati, shaxsiy fazilatlari, axloqi, xarakteri, temperamenti va boshqalarga nisbatan qo'yiladigan talablari.

O'ta avtoritar yoki avtokratik rahbar o'z irodasini majburlash, mukofotlash va hokazolar orqali yuklaydi. Rahbar demokratik, ishontirish, oqilona e'tiqod yoki xarizma orqali ta'sir qilishni afzal ko'radi. U o'z irodasini qo'l ostidagilarga yuklashdan qochadi.

Ko'rinish turibdiki, xodimlarni boshqarishning avtoritar yoki demokratik uslublarini uning ekstremal ko'rinishlarida topish juda qiyin. Etakchilik uslublari aralash bo'lishi mumkin va vaziyatga bog'liq, ya'ni, moslashuvchan. Bu faqat bitta uslubga rioya qilishdan ko'ra ko'proq natijalar beradi. Shunga qaramay, umuman olganda, etakchilikda asosiy e'tibor etakchilikning ijtimoiy-psixologik, iqtisodiy usullariga va boshqaruvning demokratik uslubiga qaratilishi kerak, deb aytish mumkin. Buyruq usuli mos emas, chunki, mening fikrimcha, yangi g'oyalarni, muammolarni hal qilishda nostandard yondashuvlarni faqat xo'jayinning xohishi bilan tug'ilishiga majburlash mumkin emas.

Shunday qilib, bugungi tez o'zgaruvchan dunyoda eng samarali uslub - adaptiv uslub, ya'ni, haqiqat uslubi. Rahbarning qaysi turini ko'rib chiqsak, birinchi navbatda, biz o'ziga xos etakchilik uslubiga ega bo'lgan shaxs haqida gapiramiz va ko'pincha shaxsiy xususiyatlar xulq-atvor uslubini belgilaydi.

**Foydalangan adabiyotlar ro'yhati.**

1. Kabushkin NI. Asoslari Menejment: Prok. nafaqa - 4-nashr. Minsk: Yangi bilimlar, 2001. - 241 b.
2. Knyshova E.N. Menejment: Darslik. M .: FORUM: INFRA-M, 2005. - 67 b.  
Krichevskiy R. L. Agar siz yetakchi bo'lsangiz ... Elementlar kundalik ishda boshqaruv psixologiyasi, M.: Delo, 1996. - 384 b.
3. Rag'batlantiruvchi menejment / R. X. Shakurov tahriri ostida, Rossiya ta'lim akademiyasi, Maxsus ta'lim instituti, 1996. - 56 b.
4. Tashkiliy psixologiya / Tuzish va. umumiyl tahrir. L. V. Vinokurova, I. I. Skripyuk. Sankt-Peterburg: Peter, 2000. - 512 p.
5. A.A. Radugina Menejment asoslari: Oliy maktablar uchun darslik / Ed. - M: Markaz, 1998 - 36 b.
6. Pugachev V.P. Tashkilotning xodimlarni boshqarish. - M.: Aspect Press. - 2000. - B. 135.

## BOSHQARUVDA NIZOLI VAZIYATLAR PSIXALOGIYASI

**G.R.Tojiboyeva**

*Andijon davlat universiteti Umumiy psixalogiya kanfedrasi dotsenti*

**Azimjonov Shohruxbek Ulug'bek o'g'li**

*Pedagogika va psixalogiya yo'nalishi 202-guruh talabasi*

*azimjonovshohrux43@gmail.com*

*@Shoh\_1199*

*Telefon: +998(93)2381999*

**Annotatsiya:** Boshqaruv tizimida umuman olganda barcha sohalarda nizo va nizoli vaziyatlar bo'lib turadi, bizning ko'zimizga yaxshi holat bo'lib ko'rinnmasada lekin, nizo va tortishuvlar orqali ko'plab kashfiyotlar, yangi-yangi ilg'or g'oyalar shakillanadi. Ammo tangani ikkinchi tomoni ham bor deganidek nizolar ortidan jinoyatli holatlar ham bo'lishi mumkun. Bu maqolada asosiy etiborni qaratadigon joyi nizo va tortishuvlar bo'lishi kerak faqat va faqat yangiliklar yaratish yo'lida, hali kashf etimagan g'oyalarni kashf etish yolda.

**Kalit so'zlar:** Dialektik, Nizo, Ziddiyat, Sotsiometrya

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida va jabhalarida, odamlar orasida doimo o'zaro kelishmovchiliklar,ziddiyat va nizoli vaziyatlar mavjud bo'lib kelgan.Dialektik materializm qonuniyatlariga binoan har qanday rivojlanish va yuksalish asosida qarama-qarshilik va ziddiyat yotadi.Shaxs,jamiyatda taraqqiyotini amalga oshiruvchi asosiy kuch xisoblanadi.Shuning uchun ham nizo va ziddiyat jamiyat rivojlanishini asosiy omillari hisoblanadi.Dastlab nizo haiqida ma'llimot bersak.Nizolar psixologiyasi haqida fikr yuritar ekanmiz, nizo o'zi nima? degan savol tug'ilishi tabiiy.

**Nizo** lotincha «konflikt» so'zidan olingan bo'lib, «to'qnashish», ya'ni maqsad, qiziqish, nuqtai nazar, fikrlar, kishilarning o'zaro ta'sirlashuvidan iborat. qarama-qarshi yo'nalishlar borasida to'qnashishlaridan iborat.

Nizo-muloqot ishtirokchilarining xar biri uchun muxum bo'lgan muamoni hal etish vaqtida ular o'rtasida vujudga kelgan qarama-qarshilik va kurashning keskin kuchayib ketish jarayonidir.

Jahonda, globallashuv jarayoni jadal sur'atlar bilan kechayotgan ayni bir paytda jamoa bilan samarali muloqot o'rnata bilish, jamoalarda yuz beradigan nizoli vaziyatlarni to'g'ri taxlil qilish hamda kelib chiqish sabablarini chuqur o'rganish bugungi kun psixolog va sotsiologlar oldida turgan muhim muamolardan bir bo'lib qolmoqda desak mubolag'a bolmasa kerak.

Ziddiyat va nizolar insoniyat paydo bo‘lgan davrdanoq mavjud bo‘lib, uni ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o‘rganish borasidagi ilk qarashlar ham o‘z

tarixiga ega. Tobora takomillashib borayotgan hayot tarzi, mehnat faoliyati, shaxslararo munosabat muhitining o‘zgarayotganligi ziddiyatlarning ham o‘ziga xos tomonlari mavjudligini ko‘rsatadi.

Ziddiyat, nizo haqidagi dastlabki konsepsiylar XIX–XX asrlarda vujudga kelib, uning yechimlarini topish yo‘llari bo‘yicha qo‘yilgan qadamlar o‘tgan asrning oxirlarida bir qadar salmoqli bo‘ldi. Bugungi kunda psixologiya va ijtimoiy psixologiyada Ershob A.A „Shaxs va jamiyat” (Jamoadagi shaxslararo nizoli vaziyatlarni bartaraf etish), Kichanov I.M „Ziddiyatlar” (yoqlaydigonlar va qarshilar.) Smolin G.L „Ziddiyatlarni tadqiq qilish tomoillari” kabi bir necha olimlar tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ushbu tadqiqotlar orasida ruminyalik ruxshunos olim Jekob Morenening olib borgan izlanishlari katta ahamiyat kasb etadi. O‘z tadqiqotlarini kichik guruhlarda olib borgan Moreno „sotsiyometriya” metodini ishlab chiqadi. „Sotsiyometrya” lotinch “so cietas” – jamiyat va “metreo” – o‘lchayman sozlaridan olingan bo‘lib, guruhdagi shaxslar aro munosabatlarni o‘lchashga qaratilgan texnikadir. Nazaryani sotsiometya uning mualifini fikiricha, jamiyatdagi barcha nizolar, muamolarni yechishning usullaridan biri – insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish va shunga ko‘ra, jamiyatda o‘zgarishlarni amalga oshirish kerak degan g’oyaga asoslangan. Amalda esa xar bir jamoalarda maxsus sotsiyometrik so’rovlar o’tkaziladi va uning natijalarini tashkiliy jarayonlarda inobatga oladi. Lekin ohirgi payitlarda sotsiyometryaga nazar o‘zgargan, uning byuzlab madifikasiyalari, turlari ishlab chiqildi. Axamyatlisi shuki, uning haqiqatdan ham guruhdagi manaviy – psixalogik muxitga tasir etuvchi emotsiyal munosabatlarini aniqlashda mutaxasis tomonidan ishlatish mumkun. Bunda har bir guruh a’zosi tanlov sharoitga solinadi, yani u yoki bu sharoitda biron bir ishni bajarishda o‘ziga yoqqan (yoqmagani ham) sheringini guruhdoshlari orasidan tanlashi kerak. Masalan: Maktab o‘quvchilariga „Kim bilan dars taylorlashni xohlarding?”, „Kim bilan mакtab yer uchaskasi xasharda yonma-yon turib ishlashni hohlaysan?”, mehnat jamoalarida esa boshliq tomonidan berilgan muhum topshiriqni ikki kishi bajarishi kerak bo’lsa, sheriklikka kimni olgan bo’lardingiz? , talabalarda: Xorijga o‘qishga yuborishsa kursdoshlaringdan kimni senga sherik qilib berishini istaysan? Shu van shunga o‘xshash savollar bilan murojat qilinadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. D.B.Rahmonova. Boshqaruв psixologiyasi fanidan ma’ruzalar matni-Buxoro 2010.
2. R.H.Dushanov, Yo.A.Parfiyev “Kasbiy psixologiya” Ma’ruzalar kursi.Toshken 2010.
3. G’.H.Sharofutdinova “Muloqot psixologiyasi” - Termiz 2008.
4. Pedagogika va psixologiya fanidan ma’ruzalar matni - Toshkent 2010.
5. F.A.Akramova “Ijtimoiy psixologiya” – T. 2007
6. Яровицкий В. “Сто великих психологов” – М. : “Вечер” . 2004
1. [www.effecton.ru](http://www.effecton.ru)
2. www.ejop.org

## SYSTEMATIZATION OF FACTORS AFFECTING THE MANAGEMENT EFFICIENCY OF RAILWAY TRANSPORT ENTERPRISES

Rasulova G.F.

Kadirova Sh.A.

Tashkent State Transport University

**Abstract:** The authors systematize the factors affecting the management efficiency of railway transport enterprises based on the study of domestic and foreign literature on the problems of organization, optimization and management efficiency of the railway transport system.

ISO 9001 sifat menejmenti tizimini qo'llash ISO 9001 sifat menejmenti tizimi sertifikati. Standartlashtirish va sertifikatlashtish. ISO 1875 yildan keyin, Jahon urushi tugagan vaqtga kelib, dunyo miqyosida fan vatexnika sohasidagi yutuqlar, o'zaro, ya'ni davlatlararo axborot almashuvinityo'lga qo'yish borasidagi ish lab chiqaruvchilar talablari, xalqaro miqyosda iste'molchining paydo bo'lgan yangi ehtiyojlarini qoniqtiradigan davlatlararo ma'lum bir kuchga ega, hamma tan oladigan me'yoriy hujjatlar ishlab chiqib, uni amalga joriy qilish kabi talablar XX asrga kelib metrologiya sohasida me'yor va talablarr Xalqaro tashkilotining vazifalarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Shunga asoslanib va xizmat turi hamda doirasi o'zgargan bu tashkilotni 1926- yildan boshlab eski nomi bilan emas, avval ISA, keyinchalik esa Xalqaro ISO tashkiloti nomi bilan atash qabul qilindi. Bu tashkilotga a'zo mamlakatlar vakillari doimiy ravishda tashkilotning Parijda joylashgan vakolatxonasida muntazam faoliyat ko'rsata boshladilar va ham o'z davlatlari manfaatlarini himoya qilib, ham xalqaro miqyosga mos me'yoriy hujjatlar ustida hamkorlikda ishlab, qo'mitaning har uch yilda bir marta chaqiriladigan Assambleyasiga a'zo davlatlar uchun yagona dasturlar tizimini yaratib taqdim eta boshladilar. II Jahon urishidan keyin esa, bu Xalqaro ISO tashkilotini, Xalqaro Birlashgan Millatlar tashkiloti tasarrufi ostida faoliyat yurgizishiga kelishib olindi. Hozirgi kunga kelib bu tashkilotga 90 ortiq davlatlar a'zo bo'lib, ISO Xalqaro tashkiloti standartlash, metrologiya va sertifikatlash YO'nalishida, jahon miqyosida unga a'zo bo'lgan barcha davlatlar fikrlarini va haq-huquqlarini himoya qilgan holda faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Korxonalarining ehtiyojlari va talablariga muvofiq bizning kompaniyamiz yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari boshqa zarur xizmatlarni ham taqdim etadi. Ushbu ishlarning barchasida amaldagi huquqiy me'yoriy hujjatlar, mahalliy va xorijiy tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan standartlar va butun dunyoda qabul qilingan sinov usullariga rioya qilinadi.

Demak, transport sohasini rivojlantirish uchun sifat asosiy mezon hisoblanadi. Chunki har bir sohada sifatlari xizmat ko'rsatish rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi. Shu o'rinda O'zbekiston korxonalarida sifatni boshqarishda ilg'or xorijiy

davlatlar tajribasini qo'llash bugungi globallashuv davridagi o'zining dolzarbliji bilan ahamiyatlidir.

Agar xodimlar tomonidan bajariladigan mahsulotlar yoki ishlar ISO 9000 sertifikatiga ega bo'lsa, bu qattiq sifat menejmenti ichki ishlarda amalgam shuning uchun odatda sertifikatish va tekshirish jarayonini boshlash kerakligi haqida savol tug'diradi. Agar siz sertifikatsiyadan muvaffaqiyatli o'tsangiz, amalda bu korxonada qo'llaniladigan sifatmenejmenti tizimining samaradorligi yuqori darajada ekanligini anglatadi. Muvaffaqiyatli sertifikatlashtirishni iste'molchilarga eslatish ularning ishonchini oshiradi. Agar nomuvofiqliklar aniqlanganda, aniqlangan muammolar ro'yxati tuziladi va ularni hal qilish yo'llari aniqlanadi.

Boshqaruv tizimlarining sifatli faoliyat yuritishini ta'minlash. Ko'p yillar davomida korxonalarda, tashkilotlarda asosan sifat ko'rsatkichlarini aniqlash va ishlab chiqarish jarayonida sifatning ta'minlanishi holati haqida hisobotlar tayyorlovchi bo'linmalar ish olib borgan. Bunday bo'linmalar muammolarni aniqlash va xatolarni tuzatishga o'zlarining resurslarini yo'nal-tirishgan.

Mahsulot sifati qanday baholanadi?

Sifat menejmenti tizimini baholash menejer tomonidan qo'yilgan talablarga javob berishi uchun xizmatlar sifatini tekshirish tartibini boshlash kerak. Buning uchun mustaqil ekspertlar tovarlarning kichik partiyasidan namuna oladi va laboratoriya tekshiruvlarini o'tkazadi. Natijalarni olgandan so'ng ular standartlarda ko'rsatilganlar bilan taqqoslanadi. Mahsulotning muvofiqlik sertifikatini faqat barcha ko'rsatkichlar talab qilinadigan qiymatlarga mos kelgan taqdirda olish mumkin.

Sifatni boshqarish uchun asosiy talablar

- Korxonada sifat menejmenti belgilangan talablarga javob berishi uchun birinchi navbatda quyidagilarga ishonch hosil qilish kerak:
  - mahsulotlarning texnik sifati belgilangan talablarga javob beradi;
  - kompaniya bozor sharoitlaridan kelib chiqqan holda mahsulot sifati bo'yicha yangi o'zgarishlarga ishonch bilan moslashadi;
  - mutaxassislar to'liq o'qitilgan, maxsus tajribaga ega, bu ularga berilgan vazifalarni muammosiz bajarish imkonini beradi;
  - kompaniya doimiy ravishda yangi bozorlarga chiqish imkoniyatini qo'lga kiritish uchun yangi etkazib beruvchilarni qidiradi (qarang) Bu, o'z navbatida, maqsadli auditoriyani ko'paytirish va daromad olish tezligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ommaviy tekshirishlarni tugatish

“Sifat nazoratiga qaramlikni enging. Sifatni ommaviy tekshiruvlar orqali ta'minlash mumkin emas, bu barqaror mahsulot ishlab chiqarish jarayonining natijasi bo'lishi kerak.

Dastlab, sifat boshqaruv intizomi sifatida 20-asr boshlarida yig'ish liniyasi ishlab chiqarishni joriy etish bilan paydo bo'ldi. Ungacha mahsulotini kichik partiyalarda ishlab chiqargan hunarmand ishlab chiqarish jarayonini boshidan oxirigacha o'zi nazorat qila olardi. Va konveyerda turgan ishchi o'z mehnati natijalaridan ajralib qoldi, ya'ni u har kuni ertalabdan kechgacha mahkamlab qo'ygan "10 yong'oq" yig'ilishdan keyin konveyerdan chiqib ketadigan yaltiroq chirolyi mashinalardan juda uzoqda edi.

#### Xizmat sifati

Bizning faoliyatimiz xizmatlarimizning eng yuqori sifatini ta'minlashi kerak bo'lган jarayonlar doirasida belgilanadi. Aniq axborot oqimlarini, interfeyslarni tartibga solish qoidalarini ta'minlash uchun javobgarlik va vakolatlar aniq belgilangan<sup>5</sup>.

QMS yaratilganda va amalga oshirilganda ichki auditlar Sifat menejmenti vakolatli vakili kompaniyaning yuqori rahbariyatiga quyidagi tahlillarni o'z ichiga olgan hisobot taqdim etadi:

- Mijozlarning shikoyatlari
- Kompaniyaning bozor ulushlari
- Tuzatish harakatlari
- Profilaktik choralar
- Ichki auditlar
- Maxsus resurslar
- Xodimlar bilan ishslash
- korporativ madaniyat.

#### **Foydalaniлgan adabiotlar ro`yhati**

1. G'.Hojiahmedov,I.Yaxyayeva,M.Umarova,A.Usmonov Бутаев Ш.А. ва бошқалар. Логистика. –Т.: Extremum Press, 2012.
2. G'.Hojiahmedov,I.Yaxyayeva,M.Umarova,A.Usmonov Бутаев Ш.А. ва бошқалар. Логистика. –Т.: Extremum Press, 2012.
3. Шанозарова, Н. Б. (2019). Перспективы развития логистических систем в сфере пассажирских перевозок.Достижения науки и образования, (7 (48)), 10-11.
4. Шоназарова, Н. Б., & Кенжаева, Б. О. (2020). Сущность логистических затрат и пути их оптимизации.Проблемы науки, (5 (53)), 32-34.

ТРАНСПОРТИ - ИҚТИСОДИЁТНИ МУҲИМ ТАРМОГИ

**Н.Б.Шаназарова**

*Тошкент давлат транспорт университети катта ўқитувчиси*

**О.Б.Эгамбердиев**

*Тошкент давлат транспорт университети асисстенти*

**С.М. Арслонбеков**

*Тошкент давлат транспорт университети доценти*

**Аннотация:** Ушбу мақолада мамалакатнинг ижтимоий - иқтисодий ривожланишида автомобил йўллари муҳим кўрсаткич ҳисобланади, ташиб жараёнини транспорт коммуникациялари билан таъминлайди, автомобиль транспорти ҳаракатланувчи таркибининг иш унумдорлигини ошириш учун зарур бўлган шарт-шароитларни яратади, автомобиль йўлларидағи ҳаракат қатнови зичлигини ўзгартириш, геометрик омилларга ва уларни автомобиль транспорти томонидан тасарруф этилиши интенсивлигига боғлиқ равишда техник-тасарруф ҳолатларини таъминлаши баён этилган.

**Калит сўзлар:** транспорт махсулоти, техник-иктисодий тизим, ижтимоий - иқтисодий ривожланиш, давлат-хусусий шериклик.

**Аннотация:** В данной статье автомобильные дороги являются важным показателем социально-экономического развития страны, обеспечивают транспортный процесс транспортными коммуникациями, создают необходимые условия для повышения производительности дорожного подвижного состава, изменения плотности движения, геометрических факторов и их транспорта, в зависимости от интенсивности утилизации государством.

Транспорт - барча иқтисодиёт тармоқларини боғлочиси вазифасини бажаради ва ўзига хос хусусиятга эга. Биринчидан, транспорт моддий махсулот ишлаб чикармайди, иккинчидан транспорт махсулоти юк ва йўловчи ташиб хажми, учинчидан, бошка иқтисодий тармоқлар каби махсулот захираси яратилмайди. Бундан қўриниб турибдики, транспорт мамалакатнинг ижтимоий - иқтисодий ривожланишида асосий омиллардан биридир. Транспортнинг самарали фаолиятида йўллар муҳим кўрсаткич ҳисобланади. Транспорт логистикасини ривожлантиришида автомобиль йўлларининг ўрни бекиёс. ундаги хизмат турларини замонавийлаштиришга катта эътибор қаратилмоқда. Жумладан, “2017 - 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича “Ҳаракатлар

стратегияси" қабул қилинди .Ушбу стратегияда транспорт соҳасини ривожлантиришда бир қанча вазифалар белгиланган. Булар:

- миллий транспорт логистика компаниялари ўртасида рақобат даражасини ошириш;
- автомобиль паркларини кенгайтириш;
- йўл-транспорт инфратузилмасини янада ривожлантириш;
- экспортга мўлжалланган миллий маҳсулотлар нархларини рақобатдош қилиш мақсадида юкларни бир транспортдан бошқасига қайта юклаш пунктлари сонини ошириш;
- автомобиль йўллари ҳолатини яхшилаш ва йўл-транспорт инфратузилмасини ривожлантириш белгилаб ўтилган.

Шунингдек, Ўзбекистон республикаси президентининг 2022- 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси дастурида Автомобиль саноатида кооперацияни янада ривожлантириш орқали ишлаб чиқариш ҳажмини 1,4 бараварга, экспорт ҳажмини 2 бараварга кўпайтириш ва маҳаллийлаштириш даражасини ошириш. Чирчиқ шаҳрида қишлоқ хўжалиги машинасозлиги ишлаб чиқаришини ягона саноат кластери усулида ташкил этиш вазифаси белгилаб қўйилди. Бугунги кунда транспорт маҳсулоти харажатлари миллий иқтисодиётни ривожланишида муҳим масала ҳисобланади. Сўнгти йилларда логистика харажатларини ўрганиш ва аниқлаш муаммоси билан боғлиқ масалалар кўплаб тадқиқотларда кўриб чиқилган. 90-йилларда. XX аср. логистика харажатларини ўрганиш ва аниқлаш муаммоси чет эл иқтисодчилари Д.Д.Шалек , М. Кристофер, Боверсох, К. Сковронек, Д.Р. Сток, Д.М. Ламберт томонидан, шунингдек, логистика харажатларининг назарий жиҳатларини ўрганиш бир қатор рус тадқиқотчилари (Вельможин, В.А. Гудков, Л.Б. Миротин, А.Л.Носов) томонидан амалга оширилган<sup>1</sup> бўлиб, улар логистика харажатларини меҳнат, моддий, молиявий ва ахборот ресурслари ва трансакцион харажатлари деб ҳисоблашган.

М. Куфелнинг фикрига кўра, "логистика харажатлари - бу харажатларнинг шундай тоифасики, бунда материалларнинг барча шакллари вақт ва маконда ҳаракатланишни режалаштириш, амалга ошириш ва бошқариш (технологик жараёнлар бундан мустасно) натижасида юзага келадиган корхона мулкидан фойдаланишнинг пул ифодаси"<sup>2</sup> бўлиб ҳисобланади.

<sup>1</sup> Миротин, Л.Б. Эффективная логистика / Л.Б. Миротин, Э. Тышбаев, О.Г. Порошина. – М.: Экзамен, 2002. – 160 с.

<sup>2</sup> Kufel, M. Koszty przepływu materialow w przedsiębiorstwach przemysłowych. Problemy budżetowania, ewidencji i kontroli / M. Kufel. – Wrocław: AE. – 1990. – 230p.

Шундай қилиб, барча иқтисодиёт тармоқларини ривожланишида логистика харажатлари, транспорт махсулоти, яъни ишлаб чиқаришдаги хом ашё ёки улгуржи ва чакана савдо тармоғидаги тайёр маҳсулотлар таннархи билан боғлиқ харажатларни ташкил этади.

Ҳаракатлар стратегиясида белгиланган вазифалардан келиб чиқиб Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 2 декабрдаги “2018-2022 йилларда транспорт инфратузилмасини такомиллаштириш ва юк ташишнинг ташқи савдо йўналишларини диверсификациялаш чора-тадбирлари тўғрисида” ги қарори қабул қилинди. Ушбу қарорга мувофиқ, транспорт инфратузилмасини ривожлантириш соҳасида — темир йўл, автомобиль ва авиация транспортини янада ривожлантириш ҳамда уларнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш, юк ташиш бўйича улар томонидан кўрсатилаётган хизматлар даражаси ва сифатини ошириш, халқаро логистика марказларини барпо этиш, халқаро аҳамиятдаги автомобиль йўлларини, йўл бўйидаги зарур инфратузилмани қуриш ва реконструкция қилиш белгилаб ўтилган.

Ўзбекистон президенти Шавкат Мирзиёев 28 ноябрь куни Ашхобод шаҳрида ўтган Иқтисодий ҳамкорлик ташкилотининг (ИҲТ) 15-саммити ишида минтақадаги мавжуд транспорт йўллакларидан унумли фойдаланиш ва янгиларини яратиш тўғрисида фикр юритдилар. Давлат раҳбари минтақалараро транзит хабларини ташкил этиш, замонавий транспорт ва йўл инфратузилмаларини ривожлантириш, транспорт ва транзит тарифларини оптималлаштириш ҳамда қўшимча чегирмаларни тақдим этиш, халқаро юк ва йўловчи ташиш шартларини енгиллаштириш, транспорт соҳасини рақамлаштириш масалаларига аниқ ечимлар топиш мухим эканини таъкидлади. Бу режаларни рўёбга чиқариш учун мамлакатимизнинг транспорт-коммуникация алоқаларини ривожлантириш ва транзит салоҳиятини кенгайтиришга қаратилган минтақавий стратегияни ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқлиги тўғрисида гапириб ўтди.

Автомобиль транспорти бошқа транспорт турларидан бир қатор ўзига хос бўлган фарқларга эга, хусусан, унга доимо янги юк ҳажмларининг турларини ўзлаштириб боришга тўғри келади.

Автомобиль транспортида ҳудудий-тармоқ бошқарувининг тизимини ташкил этиш иқтисодиётнинг бир қатор тармоқлари ва шаҳобчаларини ягона автомобиль - йўл мажмуига бирлаштиришни талаб қиласди.

Мамлакатнинг автомобиль-йўл мажмуини режалаштириш ва бошқариш, унинг фаолият кўрсатиши ва ривожланишининг ижтимоий- иқтисодий хусусиятлари ва барча шаҳобчаларнинг бирлигини ҳисобга олиб, пировард мақсадни кўзлаган ҳолда амалга ошириши керак.

Автомобиль йўл мажмуи барча элементларининг умумий мақсади корхоналар ва аҳолининг юклари ҳамда йўловчилар ташишга бўлган эҳтиёжини қондиришдан иборат.

Автомобиль - йўл мажмуи фаолияти ва ривожланишининг мезони сифатида транспортга бўлган талабларни қондириш учун сарфланадиган ижтимоий (жонли ва буюмлашган) меҳнат миқдори қабул қилиниши мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2 октябрь куни йўл хўжалигини ривожлантириш ва ушбу соҳага инвестицияларни кенг жалб қилиш масалаларига бағишланган йиғилиш давомида «Мамлакатимизда жами юкларнинг 98 фоизи ва йўловчиларнинг 88 фоизи автомобиль йўллари орқали ташилади. Кейинги йилларда юртимиз экспортида тайёр маҳсулотлар улуши кўпайиб бораётганлигини ҳамда келгусида уни янада ошириш режалаштирилганлигини, товарларни манзилга тез ва сифатли етказиш учун эса ривожланган йўл инфратузилмаси кераклигини таъкидлади.

Автомобиль йўлларини қуриш ёки таъмирлаш ишларига халқаро ташкилотлар ва хусусий шерикларни фаол жалб қилиш зарурлиги жумладан, халқаро ва давлат аҳамиятига эга 1 минг 600 километр узунликдаги йўлларга доир 18 та йирик лойиҳани шундай ҳамкорлик асосида амалга ошириш бўйича кўрсатмалар берди. Ички йўлларни таъмирлашда ҳудудларнинг иштироки сезилмаётгани кўрсатиб ўтилди. Молия вазирлигига республика бюджетидан факат умумий фойдаланишдаги йўлларга, ички йўлларга эса маҳаллий бюджетдан маблағ ажратиш тартибини жорий қилиш вазифаси қўйилди. Хорижий давлатларда йўл хўжалиги соҳасида давлат-хусусий шериклик яхши ривожлангани қайд этилди. Йўл бўйи инфратузилма объектларини бериш орқали лойиҳаларга инвесторларни жалб қилиш мумкинлиги таъкидланди. Мутасаддиларга давлат-хусусий шериклик асосидаги лойиҳалар доирасида йўл бўйи объектларини жойлаштириш ва улардан фойдаланиш тартибини ишлаб чиқиш топширилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 9 декабрдаги «Ўзбекистон Республикаси йўл хўжалиги тизимини чуқур ислоҳ қилиш чоратадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5890-сон [Фармонига](#) мувофиқ

Ўзбекистон Республикасининг Давлат чегараси орқали ўтказиш пунктларида чет давлатлар автотранспорт воситаларининг, шу жумладан республикага кириб келаётган оғир вазнили ёки йирик габаритли транспорт воситаларининг Ўзбекистон Республикаси ҳудудига кириши ва унинг ҳудуди орқали транзит ўтиши учун йиғимлар ва тўловлар амалга оширилиши, шунингдек, ташувчилар томонидан транспорт воситаларининг рухсат этилган вазн ва габарит параметрларига риоя этилиши устидан назорат божхона органлари томонидан а

м  
а

70 фоизи — Ўзбекистон Республикаси давлат бюджетига;

20 фоизи — Ўзбекистон Республикаси Транспорт вазирлиги хузуридаги Автомобиль йўллари қўмитаси фаолиятини ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш;

10 фоизи — Давлат чегараси орқали автомобиль ўтказиш пунктларида автотранспорт воситаларининг вазн ва габарит параметрларини қайд этувчи маҳсус автоматлаштирилган ўлчаш воситалари билан жиҳозланган замонавий назоратни ташкил этиш ҳамда ушбу божхона постлари ҳудудидаги ички автомобиль йўлларини тегишли ҳолатда сақлаш учун мақсадли йўналтирилган ҳолда божхона органларининг бюджетдан ташқари жамғармасига йўналтирилади.

Умуман, автомобиль йўллари соҳасини тубдан ислоҳ қилиш учун манфаатдор вазирлик ва идоралар вакилларидан иборат ишчи гурӯҳ тузиб, 2020-2030 йилларда Автомобиль йўлларини ривожлантириш стратегиясини ишлаб чиқиши зарурлиги таъкидланди. Бу стратегияда, аввало, автомобиль йўлларини бошқариш тизимини тубдан такомиллаштириш чоралари белгиланди.

Умумфойдаланувдаги автомобиль йўлларидан ташқари, мамлакатда саноат, қишлоқ хўжалиги ва бошқа ташкилотларга хизмат кўрсатувчи корхона ва идораларга тегишли йўллар ҳам мавжуд. Бу йўлларнинг ҳам кўпчилик қисми қаттиқ қопламага эга. Идора ва ташкилотларга тегишли бўлган йўллар йўл хўжалиги таркибига кирмайди. Улар тегишли ташкилот ва корхоналарнинг мулки саналиб, улардан иншоот сифатида фойдаланилади. Бу йўлларни таъмирлаш ва яроқли ҳолда ушлаб туриш шу корхоналарнинг зиммасига юклатилган.

Автомобиль йўлларининг у ёки бу туридан фойдаланишда (умумий юк кўтариш қобилияти, ўқларга тўғри келадиган юкланиш, габарит ўлчамлар, ҳаракатланиш тезлиги), ёнилғи - мойлаш материаллари харажати, автомобилларнинг ва уларнинг қисмларининг ейилиши, меҳнат унумдорлиги, ҳаракат хавфсизлиги ва ташиш таннархига ниҳоятда катта таъсир кўрсатади. Шу сабабли автомобиль йўлларининг транспорт-тасарруф кўрсаткичларининг яхшиланиши ҳаракатланувчи қисмини тасарруф этишга бўладиган харажатларнинг камайишига ва аксинча, уларнинг камайишига автомобиль йўллари тизимини кенгайтиришга ҳамда уларни яроқли ҳолда ушлаб туришга маблағлар этишмаслиги, ҳаркатланувчи қисмнинг ишлаш шароитини ёмонлашувига ва транспорт ҳамда бошқа турли харажатлар ва йўқотишларнинг ортишига сабаб бўлади.

Ҳозирда Автомобиль йўллари қўмитасида ҳам буюртмачи, ҳам пудратчи, ҳам эксплуатация қилиш функциялари тўпланиб қолгани оқибатида тизимдаги

корхоналар халқаро лойиҳаларда иштирок эта олмаяпти. Шу боис қурилиш ташкилотларини қўмита таркибидан чиқариб, улар негизида «Ўзавтойўл» акциядорлик компанияси ташкил этиш режалаштирилмоқда. Шунингдек, ҳусусий шериклар иштирокида тезкор автобанлар қуришга катта эътибор қаратилмоқда. Давлатимиз раҳбари йўллар сифатини оширишни лойиҳалаштиришдан бошлиш кераклигини таъкидлади. Бунинг учун лойиҳа ташкилотларини қўпайтириш, уларнинг моддий-техника базасини ва кадрлар таркибини кучайтириш бўйича қўрсатма берилди.

Шундай қилиб, йўл хўжалигини самарали олиб бориш, бутун автомобиль - йўл мажмуининг ишлашини, ишлаб чиқариш ва моддий ресурслар тежамини таъминлаб, ижтимоий ишлаб чиқаришнинг жадаллашувига, яъни худудларнинг (биринчи навбатда қишлоқ хўжалиги) ўзлаштирилишига, худудий ишлаб чиқариш мажмуаларининг ва саноат корхоналарининг ривожланишига имкон яратади.

Йўл хўжалигининг таркиби ва унинг ривожланиш қонуниятлари йўл хўжалиги барча умумфойдаланувдаги автомобиль йўллари, ҳамда бу йўлларни таъмирлаш ва яроқли ҳолатда бўлишини таъминловчи корхона ва ташкилотларни ўз таркибига олади.

#### Адабиётлар/Литература/Reference:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш харакатлар стратегияси тўғрисида”ги РF-4947-сонли Фврмони. // Халқ сўзи. 8 февраль 1017 йил.
2. Kufel, M. Koszty przepływu materiałów w przedsiębiorstwach przemysłowych. Problemy budżetowania, ewidencji i kontroli / M. Kufel. – Wrocław: AE. – 1990. – 229 p.
3. Миротин, Л.Б. Эффективная логистика / Л.Б. Миротин, ы.Э. Тышбаев, О.Г. Порошина. – М.: Экзамен, 2002. – 162 с.
4. www.roadvay.uz, www.uzavtoyul (“Ўзавтойўл” ДАК)
5. Шанозарова, Н. Б. (2019). Перспективы развития логистических систем в сфере пассажирских перевозок. *Достижения науки и образования*, (7 (48)), 10-11.
6. Шанозарова, Н. Б., & Кенжаева, Б. О. (2020). Сущность логистических затрат и пути их оптимизации. *Проблемы науки*, (5 (53)), 32-33.

## JAMOAT TRANSPORTIDAN FOYDALANISH SIFATINI BAHOLASH

**N.B.Shanazarova**

*Toshkent davlat transpot universiteti katta o`qituvchisi*

**O.B.Egamberdiyev**

*Toshkent davlat transpot universiteti assistenti*

**S.M.Arslonbekov**

*Toshkent davlat transpot universiteti dotsenti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining tez sur'atlarda rivojlanoyatganligi aholi soni va turmush darajasining o'sishi tufayli yurtimizda jamoat transporti va iqtisodiyotning asosiy jihatlari haqida bayon etilcan.

**Kalit so`zlar:** Dispatcherlik xizmati ,jamoat transporti, aksiyadorlik jamiyat, istiqbolli rivojlanish strategiyasi

Mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining tez sur'atlarda rivojlanoyatganligi aholi soni va turmush darajasining o'sishi tufayli yurtimizda jamoat transporti va iqtisodiyotning asosiy jihatlaridan biri hisoblanadigan bu tizimni rivojlantirishga kundan-kun talab ortib bormoqda.Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda,O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil

fevraldag'i PF-5647-son Farmoni va "O'zbekiston Respublikasi Transport faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019-yil 1-fevraldag'i PQ-4143-son qaroriga muvofiq hamda "Toshkent Shahar jamoat transporti tizimini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida'gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldag'i PQ-111-son qarori, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari asnosida mamlakatimiz transport tizimidagi mavjud muammolarni aniqlash,ularni bartaraf etish orqali transport faoliyati sifatini oshirish oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

"Toshshahartransxizmat" aksiyadorlik jamiyat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 9-oktabrdagi "Toshkent shahrida yo'lovchi tashish transportini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2048-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 13-noyabrdagi "Shahar yo'lovchi tashish transporti tizimini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 308-son qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining 2013-yil 26-noyabrdagi 20 k-PO-son buyrug'iga asosan tashkil etilgan.

“Toshshahartransxizmat” aksiyadorlik jamiyati o‘z maqsadlariga erishish uchun faoliyat va xizmat ko‘rsatishning quyidagi turlarini amalga oshiradi:

- mulkchilik shakllaridan qat’i nazar, jamiyat tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarning shahar yo‘lovchilar tashish transporti tomonidan ko‘rsatiladigan sifatli xizmatlarga bo‘lgan aholi ehtiyojlarini to‘liq qondirishga, shuningdek ular ishining samaradorligini va moliyaviy barqarorligini oshirishga yo‘naltirilgan faoliyatini muvofiqlashtirish;
- yo‘lovchilar tashuvlari xavfsizligini va yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish madaniyatining yuqori darajasini ta’minalash, jamoat transporti qatnovlaridatransport vositalari harakatlari maromiga, belgilangan jadvaliga va intervallariga rioya etish ustidan nazoratni olib borish;
- jamoat transportida avtomatlashtirilgan to‘lov tizimini joriy etish;
- dispatcherlik xizmatini tashkil etish, tashishlarni boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, transport vositalarini tasarruf ishlarini umumiy axborot tizimi bilan ta’minalash;
- yo‘nalishlarning harakat jadvallarini tuzish, harakat jadvallarining bajarilishini nazorat qilish va bajarilgan qatnovlarning hisobini olib borish;
- shahar yo‘lovchi tashish transporti tizimiga shahar yo‘lovchi tashish transportini boshqarishga oid raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi jamoat transporti harakat jadvallari va oraliq qatnov vaqtlariga rioya etilishi, harakat tarkiblarining (on-layn) rejimidagi qatnovlarining masofaviy (GPS) nazorat tizimini joriy etish;

Bugungi kunda “Toshshahartransxizmat” aksiyadorlik jamiyati tizimida 8 ta yuridik shaxs maqomiga ega filial shaklidagi avtobus saroylari mavjud bo‘lib, ular 131 ta shahar ichi yo‘nalishlarida katta va o‘rta sig‘imli avtobuslarda yo‘lovchi tashishni amalga oshiradilar, “Toshavtota’mirxizmat” UK katta va o‘rta sig‘imli avtobuslarga markazlashgan holda xizmat ko‘rsatish va ta’mirlashni, shuningdek, belgilangan tartibda tanlov o‘tkazish yo‘li bilan avtobus parklarining harakat tarkibi uchun ehtiyyot qismlar va materiallarni markazlashgan holda xarid qilishni ta’minlaydi, “Toshyo‘lovchitransxizmat” UK oylik yo‘l chiptalarini va elektron kartochkalarni sotish, shuningdek, jamiyat tarkibiga kiruvchi shahar jamoat transportida yo‘lovchi tashish bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarga dispatcherlik xizmatlarini amalga oshiradi.

“Toshshahartransxizmat” Aksiyadorlik jamiyatining istiqbolli rivojlanish strategiyasi asosiy mohiyati Toshkent shahrida qulay, jozibador bo‘lgan shahar jamoat transporti tizimini yaratishdir, ya’ni birinchi navbatda yo‘lovchilar uchun qulay yo‘lkalar, ikkinchi navbatda velotransport uchun yo‘lkalar va keyingi navbat shahar jamoat transporti uchun qulay infratuzilmalarini yaratishdir.

Istiqlolli rivojlanish strategiyasi amalga oshirishda asosiy yondashuvlar quyidagilardan iborat:

- shahar jamoat transporti infratuzilmasini rivojlantirish, shu jumladan yangi yo‘nalishlar tarmog‘ini tashkil etish;
- harakat tarkibi (avtobuslar)ni zamonaviy “yashil” turlari bilan yangilash;
- transport-o‘tish bog‘lamalari tizimini yaratish hamda yo‘lovchilar uchun qulay bo‘lgan tabaqalashtirilgan tariflarni joriy etishdan iboratdir.

“Toshshahartransxizmat” Aksiyadorlik jamiyatining istiqlolli rivojlanish strategiyasining asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

- jamoat transporti ustuvorligi ta’minlangan holda transport infratuzilmasini rivojlantirish va aholining jamoat transportidan foydalanish darajasini oshirish;
- transport tizimini boshqarishni raqamlashtirish bo‘yicha ilg‘or texnologiyalarini joriy etish;
- transport tizimini istiqlolli rivojlantirib borishni rejalashtirish mexanizmini joriy etish;
- yer usti jamoat transportini tubdan yangi yo‘nalishlar tarmog‘ini joriy etish;
- jamoat transporti harakat tarkibini tizimli ravishda ekologik toza va samarador transport turlari bilan yangilash orqali transport tizimini atrof muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish va shaharda ekologik holatni yaxshilash;
- jamoat transportida aholi uchun qulay tarif siyosatini joriy etish.

“Toshshahartransxizmat” Aksiyadorlik jamiyatining istiqlolli rivojlanish strategiyasini 5 yil davomida bosqichma-bosqich amalga oshirish rejallashtirilgan. Rejadan ko‘zlangan asosiy maqsad aholiga sifatli transport xizmat ko’rsatish hisoblanadi.

2022 yilda yangi 190 dona tabiiy gaz yoqilg‘isida yuruvchi katta sig‘imli MAN rusumli, o‘rta sig‘imli 200 dona SAZ LE60 rusumli avtobuslar hamda 20 dona katta sig‘imli elektrobuslar xarid qilish rejalashtirilgan.

Oxirgi yillarda transport sohasida davlat monopoliyasini qisqartirish, soha va korxonalarda zamonaviy korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy qilish, davlat-xususiy sheriklar, raqamlashtirish, tashqi savdoni kengaytirishda yangi tashabbuslarni qo‘llash, xalqaro transport logistika tizimlariga a’zolikni kengaytirib borish kabi maqsadli yo‘nalishlar bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib shularni aytish mumkunki, hozirda mamlakatimiz transport sohasini rivojlantirish bugungi davrning eng muhim va kechiktirib bo‘lmash talabi hisoblanmaganligi uchun davlatimiz rahbari va tegishli davlat organlari tomonidan qarorlar, farmonlar, taklif va strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Bu o‘rinda transport

sohasini rivojlantirish uchun ilg'or xorij davlatlarini tajribasini,usullarini o'rghanish va ularni transport sohasida qo'llash asosiy ishlardan biri deb belgilangan.

**Foydalanilgan adabiotlar ro`yhati:**

1. G'.Hojiahmedov,I.Yaxyayeva,M.Umarova,A.Usmonov Бутаев Ш.А. ва бошқалар. Логистика. –Т.: Extremum Press, 2012.
2. Шанозарова, Н. Б. (2019). Перспективы развития логистических систем в сфере пассажирских перевозок. Достижения науки и образования, (7 (48)), 10-11.
3. Шоназарова, Н. Б., & Кенжаева, Б. О. (2020). Сущность логистических затрат и пути их оптимизации.

**ARBITRAJ (HAKAMLIK) SUDLARI – NIZOLARNI HAL QILISHNING  
ENG SAMARALI XALQARO USULI**

*Xakimova Gulrux Abdunabiyevna  
Buxoro viloyat yuridik texnikumi  
“Xususiy-huquqiy fanlar” kafedrasи o’qituvchisi  
Tel: 998 (93) 450 28 33  
e-mail: [xakimovagulrux92@gmail.com](mailto:xakimovagulrux92@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada arbitraj (hakamlik) sudlarining faoliyati, afzallikkleri va o’ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot berib o’tilgan. Hakamlik muhokamasi tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlovchi muhim amaliy usullaridan biridir. Zero, uning prinsiplari tadbirkorlik ehtiyojlari uchun to‘la javob beradi. Hakamlik sudlari faoliyati asosiga taraflarning nizoni asliga ko‘ra o‘zlari tanlagan organga murojaat etishda ixtiyorilik va ishonchlilik prinsiplari qo‘yilgan.

**Tayanch tushunchlar:** Arbitraj, sud, da’vogar, javobgar, mediatsiya, hakamlik muhokamasi, hakamlik kelishuvi, mediator.

*Khakimova Gulrukha Abdunabiyevna  
Bukhara Regional Legal Technical College  
Teacher of the “Private-legal Sciences” department  
Phone: 998 (93) 450 28 33  
e-mail: khakimovagulrux92@gmail.com*

**Annotation:** This article provides information about the activities, advantages and characteristics of arbitration courts. Arbitration is one of the important practical methods supporting entrepreneurship. After all, its principles fully meet the needs of business. The basis of the activity of the arbitration courts is the principle of discretion and trustworthiness of the parties in applying to the body of their choice based on the nature of the dispute.

**Key words:** Arbitration, court, plaintiff, defendant, mediation, arbitration, arbitration agreement, mediator.

**Хакимова Гулрух Абдунабиевна**  
Бухарский областной юридический технический колледж  
Преподаватель кафедры «Частно-правовые науки»  
Телефон: 998 (93) 450 28 33  
электронная почта: khakimovagulrux92@gmail.com

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о деятельности, преимуществах и особенностях третейских судов. Арбитраж является одним из важных практических методов поддержки предпринимательства. Ведь ее принципы полностью отвечают потребностям бизнеса. В основе деятельности третейских судов лежит принцип усмотрения и благонадежности сторон при обращении в орган по своему выбору исходя из характера спора.

**Ключевые слова:** Арбитраж, суд, истец, ответчик, посредничество, третейский суд, третейское соглашение, посредник.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada kuchaytirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli kafolatlash, qonun ustuvorligi hamda ijtimoiy adolatni ta'minlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu islohotlarning muhim yo'nalishi bo'lgan sud-huquq tizimini liberallashtirishning hozirgi bosqichida hakamlik sudlari nizolarni muqobil hal qilishning fuqarolar va tadbirkorlar ishonchiga sazovor bo'ladigan instituti sifatida qaror topdi va samarali faoliyat yuritmoqda.

Demokratik fuqarolik jamiyati shakllana borgani sayin ko'plab ijtimoiy munosabatlarning ishtirokchisi bo'lgan fuqarolarning muammolarini hal qilish vazifasini yangi-yangi ijtimoiy institutlar o'z zimmasiga olishi mumkin va lozim. Bu nizolarni muqobil hal etish shakllari vujudga kelish jarayonini anglatadi. Ular vositasida nizolar ancha tez yechim topadi, ularning taraflari davlat byurokratiyasidan xoli tarzda fuqaroviy shakl va usullar yordamida, kam harajat evaziga o'z huquqlari tiklanishi imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday afzalliklar tadbirkorlik sub'ektlari uchun, ayniqsa, kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun nihoyatda muhimdir.

Hakamlik sudlari faoliyati va nizolarni hal etishning muqobil usullari nafaqat fuqarolar va yuridik shaxslar, balki davlat uchun ham ahamiyatlidir. Hakamlik sudlarining roli davlat sudlariga qarama-qarshi emas, balki nizolarni hal qilishning o'zgacha, yangi usulini taklif qilishdir. Binobarin hakamlik sudlarini tashkil etishdan maqsad qandaydir yangi huquqiy tizimni shakllantirish, deb o'yash to'g'ri emas.

Prezidentimizning 2020 yil 17 iyundagi "Nizolarni muqobil hal etishning mehanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori nizolarni sudgacha ko'rib chiqishning yagona tizimini yaratish, mediatsiya, hakamlik sudlari hamda xalqaro arbitrajlarning rolini tubdan oshirish, ularning fuqarolar hamda tadbirkorlarning ishonchiga sazovor bo'ladigan institulgarga aylanishida muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Bu yangi institut bo‘lib, agar davlat organlari yoki mansabdar shaxslarning g‘ayriqonuniy harakatlari natijasida fuqarolar, yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari buzilsa, fuqarolar va yuridik shaxslar Apellyatsiya kengashlariga murojaat qilishlari mumkin bo‘lmoqda.

Hakamlik sudi – fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan, tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy nizolarni hal etuvchi nodavlat organ. Hakamlik sudi nizolarni O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va qonunosti hujjatlari asosida hal qiladi. Hakamlik sudi nizolarni hal qilishning eng samarali usullaridan biridir. Hozirgi vaqtda uning qonuniy asosi yaratilgan.

Mamlakatimizda “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi qonun kuchga kirgan sanadan e’tiboran davlat (iqtisodiy, fuqarolik) sudi bilan bir qatorda hakamlik sudlarining faoliyati yo‘lga qo‘yilib, sud-huquqiy islohotlarining yangi muhim bosqichi boshlandi.

Qonunning barcha qoidalari hakamlik sudlov yurisdiksiyasi tabiatini ifodalaydi. Albatta, qonun va nizolarni ixtiyoriy tarzda davlat sudini rad etib, o‘zining mulkiy nizosini hal etish uchun tegishli hakamlik sudiga murojaat etgan va qatnashchilar o‘zlarining xohishi miqyosida tanlagan hakamlik sudi haqiqatda ham odil sudlovni amalga oshirishi tabiiy. Hakamlik kelishuvi tomonlari uchun hakamlik sudida ishni ko‘rish tanlovi ularning o‘z mulkiy manfaatlarini davlat sudi orqali himoya etishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqididan voz kechishini anglatmaydi.

Qonunda belgilangan ta’riflarning tarkibi, mazmuni va ular qanchalik muvaffaqiyatliligi borasida har qancha munozara qilish mumkin va buning asosida u yoki bu shaklda muayyan mulkka egalik qilish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarning xususiy-huquqiy va ommaviy-huquqiy elementlarini chegaralash yoki birlashtirishi mumkin.

Ammo har qanday holatda, shundan kelib chiqish joizki, hakamlik sudlari qarorlari faqatgina tegishli nizo ishtirokchilari uchun majburiydir va faqatgina ularning o‘zaro huquq va majburiyatlariga daxldor bo‘lib, uchinchi shaxslarga nisbatan, ayniqsa, davlat organlariga nisbatan hech qanday majburiy yuridik oqibatlarni keltirib chiqarmaydi.

Nizolarni hal qilishning hakamlik sudlov shakli, avvalo, undan foydalanish imkoniyati mavjudligi va demokratikligi, ishni ko‘rib chiqish muddatini qisqartirish imkoniyati hamda boshqa bir qancha holatlar tadbirkorlik sub’ektlari uchun jozibadordir.

Hakamlik sudi adolatni izlash va murakkab vaziyatdan chiqishning shakllaridan biri. Bu insonlar o'rtasidagi nizolarni hal qilishning madaniy va ma'rifiy shakli bo'lib, u butun kishilik tarixi davomida davlat sud organlari bilan bir qatorda turli kelishmovchilik va mojarolarga yechim topishning huquqiy vositasi deb tan olingan.

"Hakamlik sudi" degan tushuncha umuman hakamlik (arbitraj) sudi, xalqaro va xorijiy arbitraj degan ma'nolarini qamrab oladi. Bir mamlakat hududida tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasidagi nizolarni ko'rib chiquvchi hakamlik (arbitraj) sudini nizolarni xorijiy unsur ishtirokidagi nizolarni hal etuvchi hakamlik (arbitraj) sudi sifatida faoliyat ko'rsatuvchi xalqaro tijorat arbitrajidan farqlash lozim.

Hakamlik sudlari bu davlat sudlari tizimidagi sud strukturasi emas, balki unga parallel va ishtirokchilar ixtiyoriy bitimi va xususiy-huquqiy munosabatlarga asoslangan nodavlat notijorat tashkilotdir. Hakamlik sudlari yuridik shaxs emas. Hakamlik sudining noyobligi va o'ziga xosligi shundaki, uning qarorlari davlat kuchi va obro'si tomonidan hakamlik sudiga sudlov rasmiy hokimiyat vakolatlarini beruvchi davlat sudlari tomonidan ijro varaqalarini berish orqali ta'minlanadi. Mustaqil hakamlik sudlarining davlat tizimidagi sudlardan farqi sifatida, birinchi navbatda, hakamlik sudida nizoni ko'rib chiqish ishtirokchilarining protsessual va moddiy huquq normalarini tanlashdagi erkinligini ta'kidlash lozim.

Hakamlik sudlari sudning mustaqilligini, halolligini, betarafligini va yuqori professional malakasini ta'minlaydi. Faqat yuristlar emas, balki xo'jalik sohasidagi turli tarmoqlarning yuqori malakali mutaxassislari ham hakamlik sudyalari bo'lishlari mumkin. Ular tayinlanmaydi, balki ularni taraflar o'z xohishlariga ko'ra saylaydilar.

Hakamlik sudi ishni ko'rib chiqishning tezligini va xolisligini ta'minlab, ayni paytda tijorat sirlari qat'iy sir saqlanishini kafolatlaydi. Hakamlik sudlari to'g'risidagi deyarli barcha qonunchilik hujjatlarida taraflar o'z xohishlari bilan sudlov (arbitraj) joyi to'g'risida kelishib olishi mumkinligi nazarda tutilgan. Bu taraflar uchun doimiy ishlaydigan hakamlik sudining ko'chma sessiyasi o'tkazilishi mumkinligini bildiradi.

Sudlov bu turining tejamliligi va davlat poshlinasi to'lash zaruratining yo'qligi (yoki minimalligi), shuningdek, hakamlik sudi qarorini ijro etishning ixtiyoriylik tamoyili, qarorga amal qilinmagan taqdirda qarorni davlatning majburlash tizimi orqali ijro ettirish kafolati uning muhim shartlaridir. Shuningdek, hakamlik sudida ish ko'rishning ruhiy jihatdan sokinligining, ya'ni sudda ishning erkin vaziyatda ko'rlishini, byurokratik talab hamda to'siqlarning yo'qligi, har bir ishning alohida yondashuv bilan ko'rishi, hamkorlik va hamjihatlik muhiti ta'minlanishining ahamiyatini ta'kidlash lozim.

Hakamlik sudining mohiyati yana shundaki, bunda taraflar ularning ishini ko‘radigan sudyani o‘zları erkin tanlash huquqiga ega ekanligidir. Hakamlik sudining davlat sudlaridan farqi shundaki, ish bir oy muddatda ko‘rib chiqiladi. Mijoz tomonidan to‘lanadigan hakamlik yig‘imi, odatda, davlat sudlariga to‘lanadigan bojning yarmiga teng miqdorda belgilanadi.

Hakamlik sudiga shartnama nizolarini hal qilish uchun ikki tomon kelishgan holda keladi. Ular shu ishni hakamlik sudi ko‘rib chiqishi uchun hakamlik bitimini tuzadilar. Agar bu bitimga ikki tomondan bittasi imzo chekmasa, hakamlik sudi bu ishni ko‘rmaydi. Taraflar orasida hakamlik bitimi tuzilgachgina sudya ishni boshlaydi. Agar mijoz ishni sud binosida emas, u taklif qilgan joyda ko‘riliшини istasa, sud buni inobatga oladi. Biroq ikkinchi tomon bunga rozi bo‘lmassa, sud buni rad etadi va ishni sud binosida ko‘rib chiqadi. Hal qiluv qarori ham tomonlar istagidan kelib chiqadigan mazmunda bo‘ladi.

Mazkur sudda ishni ko‘rishda ishtirokchilarining huquq va burchlarining ham farqi bor. Hakamlik sudlari davlat sudlari tizimiga kirmagani bois, uning ishtirokchilariga yolg‘on ko‘rsatma bergani, ekspertning ochiqdan-ochiq yolg‘on xulosa bergani, noto‘g‘ri tarjima yoki guvohning ko‘rsatma berishdan bosh tortgani uchun javobgarlik qo‘llashi mumkin emas. Demak, ishonchlilik nuqtai nazaridan hakamlik sudida ekspert xulosasi va guvohning ko‘rsatmasi taraflarning izoh berishlari kabi bir xil dalil kuchiga egadir.

Bundan tashqari, hakamlik sudi hokimiyat vakolatlari bo‘lmagan organ sifatida guvohni ko‘rsatma berish uchun sudga kelishga majbur qilishga haqli emas. Albatta, hakamlik sudida ishni ko‘rish jarayoni doirasida taraflarning dalillarni to‘plash imkoniyati davlat sudlovi jarayonidagidan kamroqdir. Biroq shu bilan bir vaqtda, ishni hakamlik sudida ko‘rish doirasida taraflarda da’vo talablarini o‘zgartirishga, unga aniqlik kiritishga, masalan, da’vo predmetini va asosini bir vaqtning o‘zida o‘zgartirishga imkoniyat ko‘proq.

O‘zbekiston qonunchiligiga muvofiq, hakamlik sudlari o‘z faoliyatini qonuniylik, mustaqillik, hakamlik muhokamasi ma’lumotlarining oshkor qilinmasligi (konfidensiallik), hakamlik sudyalarining xolisligi, dispozitivlik, hakamlik muhokamasi taraflarining tortushuvi va teng huquqliligi asosida amalga oshiradilar.

Hakamlik sudlari faoliyatining asosiy prinsiplari “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi qonunning 4-moddasida berilgan. Biroq biz fuqarolik (iqtisodiy) sud ishining boshqa umumiyl prinsiplari ham hakamlik muhokamasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatishi haqida gapirishimiz mumkin.

Hakamlik muhokamasi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi muhim amaliy usullaridan biridir. Zero, uning prinsiplari tadbirkorlik ehtiyojlari uchun to'la javob beradi. Hakamlik sudlari faoliyati asosiga taraflarning nizoni asliga ko'ra o'zлari tanlagan organga murojaat etishda ixtiyoriylik va ishonchlilik prinsiplari qo'yilgan.

Hakamlik sudlovi muhokamalarining prinsiplari hakamlik sudlari to'g'risidagi milliy qonunchilikning asosiy, boshlang'ich, rahbariy g'oyalarini, fundamental talablarini tashkil etadi. Ayni vaqtda mazkur prinsiplar ushbu noyob institutning mantiqiy izchil tizim sifatida faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Hakamlik sudlari faoliyatining asosiy prinsiplari hakamlik tizimining, hakamlik muhokamalarining barqarorligini, ichki jarayonlarining izchil ketma-ketlikda ravon, o'zaro mutanosib hamda yaxlit jarayon tarzida kechishini kafolatlaydi.

Hakamlik sudlovining prinsiplari fuqarolarning xususiy huquq va erkinliklarini muhofazalash manfaatlari, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati tabiatini uchun maksimal darajada mos keladi. Zotan, hakamlik sudlari faoliyatiga taraflarning nizoni asl mazmuniga ko'ra, o'zлari tanlagan sudlov tarkibiga erkin hamda ishonch asosida taqdim etishi tamoyili qo'yilgan.

Qonuniylik prinsipi amaldagi qonunchilik hujjatlari va umumiy qabul qilingan amal qilish asoslardan kelib chiqqan holda hakamlik sudlarini sud ishining umumiy prinsiplariga rioya qilishga majbur etadi. Shu tariqa, hakamlik muhokamasida sudyalar mustaqilligi prinsipi umumiy yurisdiksiya sudlaridagiga qaraganda muhimroqdir, chunki taraflar o'zлari sudyalarini mustaqil tanlaydilar va, aniqki, ular tanlagan suda kamida uning nizodagi o'rmini tushunishi va qo'llab-quvvatlashidan manfaatdor.

Ba'zi prinsiplar maxsus me'yoriy hujjatlarda qayd etilmagan bo'lsa-da, shunga qaramasdan hakamlik sudyalari tomonidan qo'llanilishi shart, chunki ular umummajburiy huquq normalaridan kelib chiqadi. Masalan, taraflarning qonun va sud oldida tenglik prinsipi umumiy konstitutsiyaviy asoslardan kelib chiqadi.

Ma'lumotlar oshkor qilinmasligi hakamlik muhokamasining prinsipi deb tan olinishi taraflarga ularning nizolari ko'rilib ochiq yoki yopiq tarzda bo'lishini mustaqil aniqlash huquqini qayd etadi.

Taraflar hakamlik bitimiga ko'ra, nizoni ochiq muhokama etishi ko'zda tutilgan hollardan mustasno holatlarda nizolarni muhokama etish yopiq majlislarda amalga oshirilishi haqidagi shartni hakamlik sudi reglamentiga kiritish mumkin. Bu qoidaning amalga kiritilishi sud muhokamasining oshkorligi umumfuqaroviy prinsipiga mos

bo‘lmasligiga qaramasdan, hakamlik sudlovi ishlari uchun alohida prinsiplar va qoidalarni kiritishlari mumkin.

Hakamlik muhokamasi ma’lumotlarini oshkor qilmaslik prinsipi shaxs va unga tegishli ma’lumotlarni, tadbirkorlar uchun esa tijorat sirlarini oshkor etmaslik nuqtai nazaridan ham muhimdir. Bunga ko‘ra, uchinchi shaxslar, shuningdek, jurnalistlar, jamoatchilik vakillari sud majlisida ishtirok etishi mumkin emas. Ushbu prinsipning tadbirkorlik sub’ektlari uchun ahamiyati shundaki, ular o‘z muammolari, nizolari jamoatchilik nigohiga tushishini istamaydilar. Bu hol hamkorlar o‘rtasida ularning obro‘siga putur yetkazishi mumkinligini ham nazardan qochirmaslik lozim.

Hakamlik sndlari to‘g‘risidagi qonunning 28-moddasiga binoan, hakamlik sudyasi hakamlik muhokamasi davomida o‘ziga ma’lum bo‘lib qolgan ma’lumotlarni hakamlik muhokamasi taraflari yoki ularning huquqiy vorislari roziligidan oshkor qilishga haqli emas. Bundan tashqari, yuqoridaq normaga ko‘ra, hakamlik sudyasi hakamlik muhokamasi davomida o‘ziga ma’lum bo‘lib qolgan ma’lumotlar haqida guvoh sifatida so‘roq qilinishi mumkin emas. Bundan shu ma’no kelib chiqadiki, qonun konfidensial axborot xususida “guvohlik immuniteti” (daxlsizligi) institutini mustahkamlaydi.

Mazkur prinsipni qo‘llash borasida har bir vaziyatda nizoning taraflari o‘zaro kelishib oladilar. Hakamlik muhokamasi yopiq yoki ochiq bo‘lishi masalasida ham taraflar mustaqil qaror qabul qiladilar. Ma’lumotlarni oshkor qilmaslik prinsipini buzganlik uchun qonun javobgarlik masalasini nazarda tutmagan. Ammo bu masalada hakamlik sudyasi, muhokamaga daxldor boshqa shaxslar pozitiv (ijobiyl) javobgarlik, ya’ni mas’uliyat hissiga ega bo‘lishlariga umid qilinadi.

Hakamlik muhokamasi haqidagi ma’lumotlarning oshkor etilishi faqatgina taraflar roziligi bilan ro‘y berishi mumkin. Hakamlik sudi hech bir tarafdan isbot izlash yoki talab qilishga aralashmaydi, chunki bu umumiyl qabul qilingan taraflar tortishuvi prinsipini buzishni anglatadi.

Hakamlik sndlari o‘z faoliyatida dispozitivlik prinsipiga tayanadi. Bu prinsip sub’ektlarning huquqiy munosabatlar tarkibi, ularning sudlov himoyasi usuli va vositalari o‘zlari tomonidan aniqlash erkida namoyon bo‘ladi.

Biroq mazkur prinsip xususiy-huquqiy avtonomiya chegaralaridan tashqariga chiqmaydi, shuning uchun taraflarning sud ishida o‘zlarini erkin tutish huquqi qat’iy aniqlangan chegaralar bilan belgilangan. Har bir taraf sud ishida faqatgina bu orqali boshqa shaxslar huquqi buzilmagan holdagina o‘z huquqini amalga oshirishi mumkin.

Hakamlik sudi ishida dispozitivlik prinsipining o‘ziga xosligi taraflarga o‘zlariga huquq va majburiyatlar berishi va ularga o‘z ixtiyoriga ko‘ra rioya etish, himoya usulini belgilash, huquqiy munosabatlar kelib chiqishi vaqt, ularning o‘zgarishi hamda tugatilishini belgilash va boshqalar bo‘yicha tegishli imkoniyatlarni berishdir.

Hakamlik sud ishida dispozitivlik prinsipi huquq borasida nizo kelib chiqqunicha namoyon bo‘ladi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlari taraflari shartnoma tuzishda uning matniga hakamlik shartini kiritganlarida, shu paytda dispozitivlik prinsipiga asosan ular o‘zlar oralarida kelib chiquvchi nizolarni ko‘rib chiqish uchun muayyan hakamlik sudini tanlaydilar.

